

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY
MAJMUA

TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH
ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

«SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH» yo'nalishi

**«O'ZBEKISTONDA SOLIQQA TORTISH AMALIYOTI»
MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Toshkent 2023

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasida dotsenti Agzamov A.T.,
TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasida dotsenti, PhD Sh.B.Babayev

Taqrizchi: i.f.d., professor M.I Alimardanov

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabrda 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur	4
II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	11
III. Nazariy materiallar.....	77
IV. Amaliy mashg'ulot materiallari	85
V. Keyslar banki.....	145
VI. Mustaqil ta'lim mavzulari.....	152
VII. Glossariy	154
VIII. Adabiyotlar ro'yxati	167

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 31 dekabrda qabul qilingan Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning

mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Byudjet soliq siyosatining dolzarb masalalari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Byudjet soliq siyosatining dolzarb masalalari” modulining vazifalari:

“Byudjet soliq siyosatining dolzarb masalalari” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- tinglovchilarda soliqqa tortish amaliyoti bo'yicha innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonuni, shuningdek ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarni;
- O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillatirish kontseptsiyasi”da belgilangan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarining mohiyati va ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati, uning yaqin istiqboldagi vazifalari va strategik yo'nalishlarini retrospektiv va perspektiv baholash;
- O'zbekistonda bevosita soliqlarni soliq tushumlaridagi salmog'i va qiyosiy tahlili, o'zgarish tendentsiyalarini ishlab chiqish.
- Respublikada soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda amalda qo'llash samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;
- Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarga taqdim etilgan interaktiv xizmatlardan amalda foydalanish;
- iqtisodiyot sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini qo'llash;

- davlat soliq xizmati organlarida foydalanilayotgan dasturiy mahsullardan foydalanish hamda ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;
- mamlakat soliq tizimiga oid yangiliklar, dolzarb masalalarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- soliq to'lovchilarni segmentlash va nazorat qilishni ***bilishi kerak.***

Tinglovchi:

- ta'lim-tarbiya jarayonlari maqsadiga erishishda davlat soliq xizmati organlari faoliyatini bilishi;
- soliq ma'murchiligini rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni;
- davlat soliq xizmati organlari qabul qilingan qarorlarning natijasini baholash va prognoz qilishni;
- soliq xizmati organlari faoliyati sifatini nazorat qila olishni;
- soliq xizmati organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni tadbiq etishning samarali usullaridan foydalanishni;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish;
- elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishi hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- xorijiy tildagi manbalardan pedagogik faoliyatda foydalana olish;
- O'zbekiston Respublikasi byudjet va soliq tizimlaridagi xalqaro integratsiya va uni amaliyotga tadbiq qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish.
- byudjet daromadlarini prognozlashtirish va tushumlarni nazorat qilish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonuni, shuningdek ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlaridan o'quv jarayonida samarali foydalana olish;
- mutaxassislik fanlaridan innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- byudjet soliq siyosatining dolzarb masalari va soliqqa tortish amaliyoti mutaxassislik fanlarini o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish;
- soliq sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim jarayonini loyihalash;
- soliqlarni hisoblash va soliq hisobotlarini tuzishda axborot texnologiyalaridan foydalana olish hamda o'quv jarayoniga tadbiq etish;
- soliq solishning milliy va xalqaro tajribalarini qiyosiy tahlil qila olish hamda ta'lim jarayonida qo'llash;
- soliq organlarida soliqlar hisobini yuritishda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid ***malakalariga ega bo'lishi zarur.***

Tinglovchi:

- xalqaro soliqqa tortish jarayonlarini chuqur tahlil etish va olingan xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib bera olishi hamda soliq sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;

- makroiqtisodiy va soliq ko'rsatkichlarni tizimli ravishda taxlil qilish va ularni keng jamoatchilikka tushuntira olishi;

- soliqlarni hisoblash va soliq hisoboti ma'lumotlari asosida byudjet tushumlari istiqbolini belgilovchi optimal boshqaruv qarorlarini qabul qila olish;

- soliq solish amaliyotini tashkil qilish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi tartib va qoidalarni amaliyotga joriy qila olish;

- soliqlarni hisoblash va undirish amaliyoti mexanizmlarini takomillashtirishda faol qatnashish *kompetentsiyasiga ega bo'lishi zarur.*

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Byudjet soliq siyosatining dolzarb masalalari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

O'quv modul mazmuni o'quv rejadagi uchinchi va beshinchi blok hamda mutaxassislik o'quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'рни

Hozirgi globallashtirish sharoitida byudjet va soliq siyosati va undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda mamlakatimiz soliqqa tortish tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari yoritib berilgan. Soliqqa tortish sohasida zamonaviy pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda O'quv modulning roli yuqoridir.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		Ko'chma mashg'ulot		
1	2021 yil byudjet soliq siyosatidagi o'zgarishlarning natijadorligi va 2022 yil soliq siyosatidagi o'zgarishlarning mohiyati	6	2	4	
2	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliq ma'murchiligi ahamiyatini oshirish masalalari	10	2	6	2
3	Mamlakat tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining ahamiyatini oshirish masalalari.	8	2	4	2
Jami:		24	6	14	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: 2021 yil byudjet soliq siyosatidagi o'zgarishlarning natijadorligi va 2022 yil soliq siyosatidagi o'zgarishlarning mohiyati

O'zbekiston Respublikasining soliq ma'murchiligini takomillashtirish kontseptsiyasi yo'nalishlari bo'yicha 2020 yildan soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarning davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirishdagi o'rni va ahamiyati. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirini kengaytirish yuzasidan soliq ma'murchiligiga joriy etilgan tadbirlarni mohiyati. Karonavirus pandemiyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida soliq imtiyozlarini tadbiq etilishi va ayrim soliq imtiyozlarini bekor qilinishining byudjet tushumlariga ta'siri. 2022 yil byudjet soliq siyosatiga kiritilgan o'zgartirishlarning mohiyati.

2-mavzu. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliq ma'murchiligi ahamiyatini oshirish masalalari.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish borasida belgilangan me'yoriy huquqiy hujjatlarning ahamiyati. Chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi sub'ektlar tomonidan

foydalaniladigan avtomatlashtirilgan dasturiy hisob yuritish komplekslarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, tovarlarni (xizmatlarni) etkazib berish bo'yicha shartnomalarni hamda tovar-moddiy tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni majburiy elektron ro'yxatdan o'tkazish. Transfert narx shakllanishi masalalari bo'yicha norezidentlarning soliq nazorati va ma'muriyatchiligi sohasida soliq qonunchiligini takomillashtirish.

3-mavzu. Mamlakat tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining ahamiyatini oshirish masalalari.

Byudjet soliq siyosatini mamlakatimiz tabiiy resurslari va xo'jalik sub'ektlarining mol-mulklaridan samarali foydalanishni tartibga solishdagi o'rni. 2020 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarning resurs va mol-mulk soliqlari bo'yicha byudjet tushumlari salmog'iga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmonning mohiyati. 2022 yil byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari doirasida tabiiy resurslarni soliq tortish borasida amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarning ahamiyati.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot:

2021 yil byudjet soliq siyosatidagi o'zgarishlarning natijadorligi va 2022 yil soliq siyosatidagi o'zgarishlarning mohiyati

2022 yildan O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarning davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirishdagi tahlili. Shu jumladan, qo'shilgan qiymat va aktsiz soliqlari bo'yicha soliq to'lovchilar soni va soliq tushumi ko'rsatkichlari tahlili. Foyda solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlari o'sishining soliq tushumlariga ta'siri. Karonavirus pandemiyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida berilgan soliq imtiyozlarining soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. Ayrim soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari bekor qilinishining byudjet tushumlariga ta'siri. 2022 yil byudjet soliq siyosatiga kiritilgan o'zgartirishlarning soliq tushumlariga ta'siri.

2- amaliy mashg'ulot:

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliq ma'murchiligi ahamiyatini oshirish masalalari.

Yashirin iqtisodiyotni riojlangan va rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotiga ta'siri. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va uning darajasini pasaytirish borsasida amalga oshirilgan tadbirlar. Jumladan, chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan avtomatlashtirilgan dasturiy hisob yuritish komplekslarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilishning ahamiyati. «E-ombor» tovarlarni hisobga olishning elektron tizimini joriy etishning va import qilingan tovarlar hisobotlarining

elektron tarzda shakllanishini ta'minlash orqali import operatsiyalarini monitoring qilish tizimining yashirin iqtisodiyotni legallashtirishdagi o'rni. Transfert narx shakllanishi masalalari bo'yicha soliq qonunchiligini takomillashtirishning ahamiyati

3- amaliy mashg'ulot:

Mamlakat tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining ahamiyatini oshirish masalalari.

Byudjet soliq siyosatini mamlakatimiz tabiiy resurslari va xo'jalik sub'ektlarining mol-mulklaridan samarali foydalanishni tartibga solishdagi o'rni. 2022 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarning resurs va mol-mulk soliqlari bo'yicha byudjet tushumlari salmog'iga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmonning mohiyati. 2022 yil byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari doirasida tabiiy resurslarni soliq tortish borasida amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarning ahamiyati.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

Press-konferentsiya. Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish. Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.


II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuvi.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so'zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo'shgan hissasi to'g'risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo'roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o'qib-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


• **To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (20 kishidan ortiq bo'lmagan) bitta muammoni hal etadi.

• **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo'lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.


- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Venn diagrammasi




“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар

«Kuchlar tahlili» grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o'qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxonalar rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to'siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta'siri hamda jiddiylikiga mos kelishi lozim bo'ladi.

So'ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o'tish vositalari strelka ko'rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafigning o'ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo'lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo'laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

«Keys-stadi» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

«Keys metodi» ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rilash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslahatimiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. 2021 yil byudjet soliq siyosatidagi o'zgarishlarning natijadorligi va 2022 yil soliq siyosatidagi o'zgarishlarning mohiyati. (2 soat)

R E J A

1. 2022 yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

3. 2022 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning mohiyati.

1.2022 yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston solik ma'muriyatchiligini takomillashtirish, solik yukini kamaytirish va solikka tortish tizimini soddalashtirish bilan bog'liq asosiy chora-tadbirlar mamlakatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi"da belgilandi. Unga muvofiq, mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishda quyidagilar ustuvor yo'nalishlar qilib belgilandi.

- solik konunchiligini maksimal darajada soddalashtirish, qonun hujjatlardagi karama-qarshiliklar va to'qnashuvlarni bartaraf etish, halol soliq to'lovchilar hukuqlari va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksining me'yoriy hujjatlarining bevosita ta'sirini belgilash, soliqqa tortish masalalarini belgilovchi barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, shuningdek solik qonunchiligidagi har kandy o'zgarishning faqat keyingi yildan boshlab kuchga kirishi ko'zda tutilgan normalarni belgilash;

- tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yukini kamaytirish, yirik va kichik biznes o'rtasida soliq yuki darajasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish;

- kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini ularning faoliyati kengaytirilishiga to'sqinlik qiluvchi, biznesining parchalanishi va ishchilarining haqiqiy sonini yashirishga olib keluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida tubdan isloh qilish;

- huquqiy kafolatlarini kuchaytirish va alohida soliq va bojxona imtiyozlarining qat'iy taqiklanishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy qilish, qulay raqobat muhitini ta'minlash;

- o'xshash soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan soliklarni birlashtirish va birhillashtirish orqali soliqlar hajmlarini optimallashtirish, shuningdek solik hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion harajatlarni minimallashtirish;

- solik to'lovchilar tomonidan soliklar va boshka majburiy to'lovlarni ixtiyoriy ravishda to'lashni rahbatlantiruvchi mexanizmlarni yaratish va joriy qilish va shu orkali hufiyona oborotini kiskartirish. soliq va boshka majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish kabi omillarni oldini olish;

- soliq nazorati shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy ahborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq kamrab oladigan, va eng avvalo, davlat organlari o'rtasida o'zaro ta'sir va ma'lumot almashishni kuchaytirish, yirik ma'lumotlarni ishlash texnologiyalarini takomillashtirish hisobiga amalga oshirish;

- soliqqa tortish masalalari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolarning savodxonligini oshirish, keng tushuntirish ishlarini olib borish va qonunchilikni targ'ibot qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- o'rta muddatli soliq rejalashtirishga o'tish, solik qonunchiligi barkarorligi kafolatlarini kuchaytirish va respublikamizning invsstitcion jozibadorligini yuksaltirish.

Ta'kidlash joizki, kontseptsiyada belgilangan ham bir tabdir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ijrosini ta'minlash ta'minlash yuzasidan soliq qonunchiligiga kiritaladigan har bir o'zgartirish tub ma'noda mamlakatimiz soliq siyosatidagi islohotlar mazmunini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi va «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonunlari O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatimizning 2022 yilgi asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Unga muvofiq, xalqaro talablarga javob beradigan soliq ma'murchiligining barqaror soliq tizimi joriy etildi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin faoliyatini kafolatlovchi huquqiy me'yorlar belgilandi, solik qonunchiligini maksimal darajada soddalashtirildi, soliq yukini kamaytirildi, soliqlar hajmi optimallashtirildi, solik hisobotlari qisqartirib, maksimal darajadi soddalashtirilib, operatsion harajatlar minimallashtirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RBQ-589-sonli Qonuni bilan 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solinib, joriy (2020) yilda byudjet jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi byudjet vakolatlari taqsimlandi.

Mazkur qonunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larni tasdiqlash;

Respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlarini tasdiqlash va respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tegishli ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari, Toshkent shahri shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarining prognozini ma'qullash va tumanlar va shaharlar byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar qabul qilish:

O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunining muhim jihatlaridan yana biri 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti parametrlari hamda 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2021-2022 yillarga maqsadli mo'ljallari qonun bilan belgilandi.

Unga muvofiq, 2020 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2019 yilga nisbatan 5,5 foizni tashkil etishi.

O'znavbatida, keyingi 2022 yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2020 yilga nisbatan 5,8 foizni va 2022 yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2021 yilga nisbatan 6,2 foizni tashkil etishi belgilangan.

2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari tahlilqilinganda joriy yil uchun Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 158 960,1 mlrd. so'mni, xarajatlari esa 162 385,0 mlrd.so'mni tashkil etadi va Konsolidatsiyalashgan byudjet defitsiti 3 424,9 mlrd.so'mni tashkil etishi belgilangan.

Lekin 2020 yilda butun dunyoni larzaga keltirgan tojdor virus infeksiyasining tarqalishi barcha mamlakatlar iqtisodiy ijtimoiy hayotini inqiroz holatiga keltirib qo'ydi. Xususan, yirik iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishiga, xalqaro moliya bozorlarida xom ashyo tovarlar narxlarining keskin pasayishi va kon'yunkturaning yomonlashuviga sabab bo'ldi

Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar, ko'rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning keskin tushib ketishi oldi olindi. 2020 yilda Respublikamiz iqtisodiyoti 2019 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sib, YaIM xajmi 580,2 trln. so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining Oliy Majlis Senatining ettinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2020 yilda Davlat byudjeti daromadlari 132,9 trln. so'mni tashkil etib, belgilangan 128,7 trln. so'm prognoz 103,3 foizga yoki 4 192 mlrd so'mga oshirib bajarilib, daromadlar 2019 yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 20,8 trln. so'mga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmoniga asosan tashkil etilgan Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi xarajatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 sentyabrdagi PQ-4836-sonli qaroriga asosan, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz oqibatlarini inobatga olgan holda qayta hisob-kitob qilinib, jamg'arma xarajatlari 13,4 trln. so'm miqdorida belgilangan va 2020 yilda jamg'arma mablag'lari hisobidan jami 12 827 mlrd. so'm moliyalashtirish ishlari amalga oshirilgan. shundan:

I. Koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga - 3 962 mlrd. so'm ajratilib, ushbu mablag'lar dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan ta'minlash hamda karantinda saqlash, tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralarini amalga oshirish xarajatlariga yo'naltirilgan.

II. Karantin zonalarini va koronavirusni davolash bilan bog'liq sog'liqni saklash ob'ektlarini qurish, jihozlash va zarur infratuzilmani yaratish bilan bog'liq xarajatlar uchun 1 022,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi.

III. Ijtimoiy va infratuzilma ob'ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash uchun 3 422,7 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Jumladan,

IV. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga 1 33,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi.

V. Korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2 484,9 mlrd. so'm, shundan byudjet ssudalari – 1 464 mlrd. so'm:

VI. Mahalliy byudjetlar va Pensiya jamg'armasi yo'qotishlarini qoplash hamda mahalliy byudjetlarga ssudalar uchun 595,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi. Jumladan,

- Soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlar natijasida mahalliy byudjetlarning yo'qotishlarini qoplash uchun 478,4 mlrd. so'm;

- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 117 mlrd. so'm yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrdagi **“O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risida”**gi O'RQ-599-sonli Qonuni bilan joriy yildan soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarda Soliq qonunchiligi ustuvorligini ta'milash, ma'murchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqlarni hisoblash va to'lash qoidalarini soddalashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalishlar xalqaro me'yorlardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqildi.

Davlat soliq xizmati organlarining hamda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari ham qayta ko'rib chiqilib, barcha huquq va majburiyatlar bitta qonun hujjatida mujassamlashtirildi va soliq organlarining insofli soliq to'lovchilar oldidagi majburiyatlari oshirildi.

2. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar.

2020 yildan boshlab soliq tizimiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, amaldagi **13 ta** soliq va boshqa majburiy to'lovlar qayta ko'rib chiqilib, 2020 yildan **9 ta** soliqning amal qilishi belgilandi va yagona ijtimoiy to'lov o'rniga - **ijtimoiy soliq**, yagona soliq to'lovi o'rniga – **aylanmadan soliq**, qat'iy belgilangan soliq o'rniga - **jismoniy shaxslarning daromadlariga, qat'iy belgilangan miqdorda soliq** joriy etildi.

Shuningdek, Soliq kodeksidan **yagona er solig'i, davlat boji, bojxona to'lovlari** va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq chiqarildi.

Quyidagilar uchun maxsus soliq rejimlari bekor qilindi:

a) bozorlar uchun, ularni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazgan holda. 2020 yil 1 yanvardan boshlab bozorlar avvalgi soliq to'lash tartibi (daromadning 50 foizi) o'rniga quyidagilarni to'laydi:

umumdavlat soliqlarini (agar realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 milliard so'mdan oshgan bo'lsa) - yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va 20 foizli oshirilgan stavkada foyda solig'ini;

aylanmadan soliqni (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan kam bo'lganda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni;

b) kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun, ularga jismoniy shaxslardan daromad solig'ini to'lashni kiritgan holda.

Kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar uchun aylanmadan soliq (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan kam bo'lganda) yoki umumbelgilangan tartibda to'lanadigan soliqlar (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan oshganda) kiritiladi.

Shu bilan birga, ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun olinadigan davlat bojining miqdori deyarli 4 baravar kamaytirildi;

v) qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun, ularni umumbelgilangan soliq to'lashga yoki aylanmadan soliq to'lashga o'tkazish bilan. Shu bilan birga, ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'ining nol stavkasi belgilandi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun ishlatiladigan mol-mulk qismi bo'yicha mol-mulk solig'idan va tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan erlar uchun er solig'idan imtiyozlar saqlab qolindi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashni yoki 2020 yildan boshlab o'rtacha 25 foizgacha pasaytiriladigan qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni tanlash huquqi berildi.

Davlat soliq xizmati organlarining ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarni o'z vaqtida qaytarish bo'yicha javobgarligini oshirish maqsadida, ortiqcha undirilgan soliqlar yoki moliyaviy sanksiyalar summalarini, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda qaytarish bilan bir qatorda, soliq summalarini qaytarishda har bir kechiktirilgan kun uchun soliq organi tomonidan **soliq to'lovchiga foiz to'lash** tartibi joriy etildi.

Unga muvofiq, soliq to'lovchi ortiqcha to'lagan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to'g'risidagi arizasini, ko'rsatilgan ortiqcha to'langan summa to'langan kundan e'tiboran **besh yil ichida** berilishi mumkinligi, ortiqcha to'langan soliq summasi, soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e'tiboran **o'n besh kun ichida** qaytarilishi belgilandi.

Agar ortiqcha to'langan soliq summasini soliq to'lovchiga belgilangan **o'n besh kunlik muddatda** amalga oshirilmasa, belgilangan muddatda qaytarilmagan summa

uchun soliq to'lovchiga qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun foizlar hisoblangan holda qaytariladi. Hisoblangan foizlar tegishli byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi. Foiz stavkasi qaytarish muddati buzilgan kunlarda amal qilgan Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

*Masalan soliq to'lovchi ortiqcha to'langan 100,0 mln.so'mni qaytarish uchun 10 mart kuni ariza taqdim etdi. Soliq organi soliq to'lovchining arizasini o'rganib chiqib, ortiqcha to'langan soliq summasini 1 aprel kuni qaytarib berdi va natijada qaytarish uchun belgilangan muddat taxminan 6 kunga kechikdi. Mazkur holat bo'yicha, 2020 yil 1 mart holatiga Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga 16 foiz bo'lgan. Demak, kunlik stavka 0,044% (16/365) kechiktirilgan kunlar uchun penya miqdori 264,0 (100.0*0.044%*6) ming,so'mni tashkil etadi.*

Ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to'lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o'ziga ma'lum bo'lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran **o'ttiz kun ichida** murojaat etgan taqdirda hisoblanadi. Bunda, foizlar soliq undirilgan kundan keyingi kundan e'tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi va hisoblangan foizlar tegishli byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi. Foiz stavkasi Markaziy bankining shu kunlardagi amal qilayotgan qayta moliyalashtirish stavkasiga teng miqdorda qabul qilinadi.

Bir korxonaning soliq majburiyatini boshqa bir soliq to'lovchi hisobidan bajarish tartibi bekor qilish maqsadida, **soliq qarzini debitorlar hisobidan undirish tartibi 2020 yildan bekor qilindi.**

Soliq to'lovchilarning soliq kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini kengaytirish maqsadida, endilikda respublika byudjetiga to'lanadigan soliqlarni to'lashni **kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash** imkoniyati Davlat soliq qo'mitasi, bojxona organlarining taklifi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahalliy byudjetlar bo'yicha esa mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan taqdim etilishi belgilandi.

Bunda, soliqlarni bir vaqtning o'zida to'lash natijasida iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomatlarini yuzaga kelishi xavfi bo'lgan, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish mavsumiy bo'lgan hollarda soliqlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati, qarzdorlik summasiga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida foiz hisoblangan holda taqdim etilishi joriy qilindi.

Shuningdek, soliq majburiyati bajarilishi ta'minotining **mol-mulk garovi, bank kafolati va kafillik** ko'rinishidagi yangi shakllari kiritildi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi bilan soliq nazorati shakllari qayta ko'rib chiqilib, soliq organlariga tahlkali-tahlil asosida **kameral soliq tekshiruvlari, sayyor soliq tekshiruvlarini va soliq auditini** tayinlash huquqini beradigan soliq nazoratini amalga oshirishning yangi tartibi belgilandi.

Endilikda soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun nomzodlar inson omilisiz, dastlab kamida 42 ta mezonlar asosida tahluka-tahlil (Risk-analiz) dasturi yordamida tanlanadi.

Tahluka-tahlil asosida xo'jalik sub'ektlarini xavflilik darajasiga qarab 3 ta segmentga (*yashil, sariq va qizil yo'laklarga*) ajratadi hamda kamchiliklar aniqlangan

taqdirda, soliq nazoratining yangi kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv va soliq auditi o'tkazilishi belgilanadi.

Xavflilik darajasi past bo'lgan (*yashil yo'lakcha*) korxonalariga nisbatan hech qachon soliq tekshiruvlari amalga oshirilmaydi va ushbu korxonalariga yuqori darajadagi soliq xizmatlari ko'rsatiladi.

Bu guruhdagi korxonalar toifasiga qaysilar kiradi degan savol tug'ilishi tabiiy albatta?

Bular soliq hisobotlarida haqiqiy daromadlarini ko'rsatgan holda majburiyatlarini o'z muddatlarida bajarayotgan sub'ektlardir.

Xavflilik darajasi o'rtacha bo'lgan (*sariq yo'lakcha*) korxonalariga nisbatan faqat kameral soliq tekshiruvi amalga oshiriladi va ushbu korxonalariga xato kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha hisobotini tuzatish imkoni beriladi.

Bu toifadagi korxonalariga soliq hisobini yuritishda xatoliklarga yo'l qo'yayotgan va soliq maslahatiga ehtiyoji bo'lganlar kiradi.

Xususan: - **kameral soliq tekshiruvi**, soliq to'lovchining hisobotini soliq organida mavjud ma'lumotlar bilan taqqoslash natijasida aniqlangan tafovutlarga soliq to'lovchi soliq hisobotiga tuzatishlar kiritishi yoki asoslantirilgan sabablarni ko'rsatishi, bunda, kameral soliq tekshiruvi doirasida soliq organining mansabdor shaxsiga soliq to'lovchidan ma'lum bir soliqni hisoblashning to'g'riligini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni talab qilish huquqi berildi.

Lekin kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha penya hisoblanishi hamdamoliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi.

- **sayyor soliq tekshiruv**ida soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash hamda boshqa majburiyatlar bajarilishi masalalarida ma'lumot to'plash uchun soliq to'lovchining ayrim ko'rsatkichlarini joyiga chiqqan holda o'rganilinadi va uning maqsadi faktlarni qayd etishdan iborat bo'ladi.

Sayyor soliq tekshiruv natijalari bo'yicha qo'shimcha soliqlar hisoblanmaydi.

- **soliq auditi** soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash xavfi yuqori darajada bo'lgan soliq to'lovchilarda risk omillarini tahlil qilish asosida tanlangan soliq to'lovchilarda o'tkaziladi va soliq auditi natijalariga ko'ra qo'shimcha soliqlar hisoblanib, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilinadi.

Shu bilan birga, 2022 yil 1 yanvarga qadar davlat soliq xizmati organlari soliq auditi tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilishlari lozim bo'ladi.

2020 yil 1 yanvardan boshlab **soliq imtiyozlarini** faqat Soliq kodeksi bilan taqdim etilishi belgilanib, bunda, ayrim soliqlar bo'yicha jumladan, QQS, aktsiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aktsiz solig'i va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilishi belgilandi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2020 yilda iuyidagi natijalarga erishildi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni, jami 138 221 taga o'sdi.

Shundan: yuridik shaxslar soni 95629 taga;

yakka tartibdagi tadbirkorlar 45592 taga.

soliq to'lovchi jismoniy shaxslar 262 647 taga o'sdi.

O'z navbatida respublika byudjetiga soliqlar tushumi belgilangan prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 104,0 foizga bajarilib prognozdagi 99598, mlrd.so'm o'rniga, byudjetga 103566,4 mlrd. So'm mablag'lar undirildi.

Respublika bo'yicha soliq to'lovchilar soni to'g'risida MA'LUMOT

№	Ko'rsatkichlar nomi	2021 yil 1 yanvar	2020 yil 1 yanvar	O'tgan yilning mos davriga nisbatan	
				(+,-)	(%)
I	1. Davlat ro'yxatidan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni, jami	1 185 596	1 047 375	138 221	113,2
	Yuridik shaxslar:	827 165	731 536	95 629	113,1
	faoliyat yuritayotgan sub'ektlar	493 763	440 393	53 370	112,1
	<i>ulushi (%)</i>	<i>59,7</i>	<i>60,2</i>		
	faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sub'ektlar	333 402	291 143	42 259	114,5
	<i>ulushi (%)</i>	<i>40,3</i>	<i>39,8</i>		
	yil boshidan yangi tashkil etilgan sub'ektlar	3 598	4 361	-763	82,5
	<i>umumbelgilangan soliq to'lovchilari</i>	49 429	7 575	41 854	652,5
	<i>yagona soliq to'lovchilari</i>	177 701	164 465	13 236	108,0
	<i>yagona er soliq to'lovchilari</i>	82 356	144 214	-61 858	57,1
	<i>davlat tashkilotlari</i>	25 982	26 695	-713	97,3
	<i>soliq majburiyatiga ega emas</i>	69 716	69 218	498	100,7
	Yakka tartibdagi tadbirkorlar:	358 431	315 839	42 592	113,5
	faoliyat yuritayotganlar	219 105	230 749	-11 644	95,0
	<i>ulushi (%)</i>	<i>61,1</i>	<i>67,4</i>		
	faoliyatini vaqtincha to'xtatganlar	139 326	85 090	54 236	163,7
	<i>ulushi (%)</i>	<i>38,9</i>	<i>26,9</i>		
yil boshidan yangi ro'yxatdan o'tganlar	102 749	109 819	-7 070	93,6	

2. Asosiy soliq turlari bo'yicha to'lovchilar soni	890 210	520 344	369 866	58
Foyda solig'i	115 572	53 051	62 521	217,9
Qo'shilgan qiymat solig'i	115 572	84 507	31 065	136,8
Aktsiz solig'i, jami	3 775	3 612	163	104,5
Aylanmadan soliq	298 439	187 147	111 292	159,5
Er qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq	1 772	1 456	316	121,7
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	141 201	50 898	90 303	277,4
Yuridik shaxslar mol-mulk soligi	58 856	64 966	-6 110	90,6
Yuridik shaxslar er soligi	155 023	74 707	80 316	207,5
3. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar	18 070 194	17 807 547	262 647	101
Daromad solig'i	4 481 081	4 702 440	-221 359	95,3
Mol-mulk solig'i	7 255 539	6 978 872	276 667	104,0
Er solig'i	6 333 574	6 126 235	207 339	103,4

2021 yil va yanvar-dekabr oylari prognoz ko'rsatkichlari ijro to'g'risida soliq turlari kesimida ma'lumot (mlrd.so'mda)				
Soliq turlari nomi	2020 yillik			
	Prognoz	Tushum	(%)	farqi (+, -)
Viloyat bo'yicha jami	99 598,0	103 566,4	104	3 968,4
<i>shu jumladan:</i>				
Mahalliy soliqlar	3 331,2	3 453,6	104	122,4
YaTTlar qat'iy belgilangan solig'i	219,6	286,3	130	66,8
Jismoniy shaxslar er solig'i	975,7	1 079,9	111	104,2
Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i	822,6	733,4	89	-89,2
Aylanmadan soliq	1 313,4	1 353,9	103	40,6
Yirik soliq turlari daromadlari	90 556,1	94 292,5	104	3 736,5
Qo'shilgan qiymat solig'i	21 061,2	20 485,6	97	-575,5
Aktsiz solig'i, jami	10 651,5	10 838,8	102	187,3
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	14 442,6	14 854,5	103	411,9

Yuridik shaxslar foyda solig'i	25 474,2	28 670,0	113	3 195,8
Er qa'ridan foyd. uchun soliq (Nedra)	16 126,9	15 782,1	98	-344,9
Quril. mater. b-cha Noruda u-n soliq	277,4	635,1	229	357,7
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	1 090,1	1 240,8	114	150,7
Yuridik shaxslar er solig'i	1 086,4	1 306,8	120	220,4
Suv resursidan foyd. uchun soliq	345,8	478,8	138	133,1
Soliqsiz tushumlar	5 710,8	5 820,3	102	109,5
Davlat boji, jami	1 039,7	1 225,5	118	185,8
Jarimalar, jami	685,0	807,9	118	122,9
Yig'imlar	1 176,8	1 215,5	103	38,7
SRP	0,0	397,0	0	397,0
Boshqa tushumlar	0,0	547,0	0	547,0
Dividend daromadlari, jami	2 809,2	1 627,3	58	-1 181,9
DUKlar sof foydasidan ajratma	0,0	410,6	0	0,0
AJ va MChJlar dividendi	0,0	1 216,8	0	1 216,8

1-Jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar kesimida										
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Jami byudjet daromadlari	22	21,9	21,5	22	21,9	21,3	20,6	19,9	19,4	21,9	22,5
Shu jumladan:											
bevosita soliqlar	5,1	5,8	5,4	5,3	5,1	5,1	4,9	4,6	3,8	6,1	7,7
bilvosita soliqlar	11,3	11,4	11,7	11,3	11,6	11,2	10,6	10,5	10,1	9,2	7,9
resurs to'lovlari va mulk solig'i	3,4	3,4	2,9	3,3	3	2,8	2,7	2,8	3,1	3,8	3,6
boshqa daromadlar	2,2	1,3	1,5	2,1	2,2	2,2	2,4	2,1	2,4	2,8	3,3

O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarining YaIMdagi ulushining o'zgarish dinamikasi, foiz hisobida¹

2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada oshirish va byudjetga soliqlarning to'liq tushishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib mazkur yo'nalishlar bo'yicha mamlakatimizda soliqqa oid munosabatlarni tartibga solish maqsadida quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda «2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi **O'RQ-657-sonli** Qonuni;

Mazkur Qonun bilan 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023 yillarga byudjet mo'ljallari hamda 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2022-2023 yillarga maqsadli mo'ljallari tasdiqlandi.

2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2022-2023 yillarga maqsadli mo'ljallar

T/r	Ko'rsatkichlar	2021 yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2022 yil	2023 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so'm	688 936	843 191	985 377
2.	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	5,1	5,8	5,4
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yil dekabriga nisbatan, foizda	9,0-10,0	10,0-11,0	7,0-8,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	5,8	7,6	6,0
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	3,5	3,5	3,6
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	5,9	7,9	9,8

2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2022-2023 yillarga byudjet mo'ljallari

mlrd
so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Byudjet mo'ljallari:
-----	----------------	----------------------

¹Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Давлат статистика қўмитаси расмий веб-сайтида эълон қилинган маълумотлар асосида муаллиф ҳисоб-китоби.

		2021 yil uchun prognoz	2022 yil	2023 yil
I.	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	178 712,4	208 371,3	238 954,0
1.	Davlat byudjeti daromadlari	147 202,3	173 550,2	200 708,6
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari*	26 173,9	28 251,7	30 544,5
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	5 336,2	6 569,4	7 700,8
II.	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	216 246,6	231 338,9	258 096,0
1.	Davlat byudjeti xarajatlari *	149 950,5	163 780,4	183 675,0
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	40 772,5	46 709,1	51 720,2
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	13 423,6	6 569,4	7 700,8
4.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	12 100,0	14 280,0	15 000,0
III.	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	15 928,9	17 930,2	21 097,2
IV.	Konsolidatsiyalashgan byudjet saldos (profitsit +, defitsit -)	-37 534,2	-22 967,6	-19 142,1
V.	Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari saldos (profitsit +, defitsit-)	-17 346,8	-8 687,6	-4 142,1
VI.	Davlat qarzarini so'ndirish	7 767,7	10 316,8	12 478,2

Shuningdek mazkur qonun bilan, 2021 yil uchun, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig'implarning cheklangan stavkalari, avtotransport yig'implarning stavkalari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi **O'RQ-659-sonli** Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda «Byudjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi **O'RQ-660-sonli** Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi **PQ-4938-sonli** qarori.

O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni bilan joriy yildan boshlab, aktsiz solig'i, er solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'tkazildi

Soliq kodeksining 75-moddasiga kiritilgan qo'shimchalar bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan er uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va er solig'ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to'lashdan ozod qilish huquqiga ega ekanligini belgilandi.

Soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash bo'yicha Soliq kodeksiga kiritilgan asosiy o'zgarishlar:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha, tushum hajmidan qat'iy nazar alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shahobchalari hamda bozor va savdo komplekslari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar toifasiga o'tkazildi.

Soliq kodeksining 246-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), shu paytgacha agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan edi. Endilikda qarzlari hisobidan tovarlarni (xizmatlarni) olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi konunda nazarda tutilgan bo'lsa, soliq imtiyozidan foydalanilishi mumkinligi belgilandi.

Kodeksning 259-moddasiga kiritilgan qo'shimcha bilan, endilikda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi oyiga bir milliard so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri chorak hisoblanadigan bo'ldi.

2. Aktsiz solig'i bo'yicha, Kodeksning 283-moddasiga kiritilgan o'zgartirish bilan endilikda aktsiz solig'i stavkalari Soliq kodeksida belgilandi va unga muvofiq, mazkur modda uchta qo'shimcha moddalar bilan to'ldirildi:

289-1-modda Tamaki mahsulotlariga soliq stavkalari

289-2-modda alkogol mahsulotlariga soliq stavkala;

289-3-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aktsiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari.

Kodeksning 284-moddaga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo'nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashkari) mahsulotlari aktsiz solig'i ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

3. Foyda solig'i bo'yicha, 2021 yil 1 yanvardan boshlab Soliq kodeksi 306-moddasi bo'yicha, amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga

olmagan boshlang'ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Foyda solig'i bo'yicha 2022 yilda quyidagi o'zgarishlar bo'lgan, Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasini:

- binolar uchun 3 foizdan 5 foizgacha;
- inshootlar uchun 5 foizdan 10 foizgacha;
- uzatish qurilmalari;
- kuch mashinalari va asbob uskunalari uchun 8 foizdan 15 foizgacha;
- faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va asbob-uskunalar uchun 15 foizdan 20 foizgacha;
- kompyuter, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari uchun 20 foizdan 40 foizgacha oshirilmoqda.

Shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholashi amalga oshirilganda, amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun bunday qayta baholash natijasi hisobga olinmaydigan bo'ldi.

Shu munosabat bilan 306-moddaning to'rtinchi qismiga amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang'ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Unga muvofiq, amortizatsiyalanadigan aktivlarning boshlang'ich qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to'lovchi tomonidan kapital ko'yilmalar amalga oshirilgan taqdirda o'zgarishi;

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan soliq to'lovchida mavjud bo'lgan, ilgari o'tkazilgan qayta baholashni hisobga olgan holda amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymati soliq solish maksadida boshlang'ich qiymat hisoblanishi.

2020 yil 1 yanvardan boshlab soliq to'lovchi tomonidan keyingi xisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholash amalga oshirilganda, bunday qayta baholash natijasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun hisobga olinmasligi belgilandi.

Masalan, korxonada 2014 yilda mebellar to'plamini 1 150 000 so'mga xarid qilgan edi. Mazkur mebellar to'plamining 2020 yil 1 yanvar holatiga jamlangan eskirish summasi 862 500 so'mni tashkil qilgan. 2020 yil 1 yanvar holatiga mazkur mebellar to'plami qayta baholanib, uning tiklanish qiymati 1 476 261 so'mni tashkil etgan va o'z navbatida 2020 yil davomida 1 107 196 so'mga eskirish hisoblanib, 2021 yil yanvar holatiga mazkur mebellar to'plamining qoldiq bahosi 369 065 so'mni tashkil etadi va ushbu mebellar to'plami 2021 yil 1 yanvar holatiga qayta baholanmaydi.

Shuningdek, soliq organlari tomonidan oldingi hisobot davri asosida bo'nak to'lovlarini hisoblanishi saqlanib qolgan holda soliq to'lovchi kelgusi chorakning birinchi oyi **10 sanasiga qadar** joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo'nak to'lovlari summasi to'g'risida soliq organlariga ma'lumotnoma taqdim etish huquqi berildi.

Shu bilan birga, kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib kursatilgan takdirda soliq organlari soliq tulovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq buyicha bo'nak tulovlari summasi tugrisidagi ma'lumotnomaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga egaligi ham belgilandi.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha, Kodeksning 365-moddasiga kiritilgan o'zgartirish bilan soliqni qat'iy belgilangan miqdorda to'lash xoxishini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish ob'ekti bo'lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar hisoblanishi nazarda tutildi. O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" Qonunida nazarda tutilgan, qat'iy belgilangan soliq stavkalari qo'llanilishi bilan bog'liq alohida normalar Soliq kodeksning **383-moddasi** kuyidagi taxrirda bayon etildi:

tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalarda va binoda amalga oshirgan taqdirda, yashash joyidagi soliq organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishga majbur;

I yoki II gurux nogironligi bo'lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, oyiga qat'iy belgilangan miqdordagi soliqning **50 foizini**, biroq bazaviy hisoblash miqdorining **50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda** to'laydi;

Hunarmand» uyushmasi a'zosi bo'lgan va xunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya kilishni amalga oshirganida qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etiladi;

bolalar o'yin avtomatlari bilan bog'lik xizmatlarni ko'rsatsa, har bir jixozlangan joy (birlik) uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'laydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga **12 foiz** miqdorida soliq solinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaxarlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligi qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqi berildi.

Kodeksning 385-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslarga alohida toifadagi soliqni to'lash bekor qilinib, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mexnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan xisoblab chiqariladi va to'lov manbaida ushlab qolish tartibi belgilandi.

5. Ijtimoiy soliq bo'yicha, Kodeksning 408-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va

to'lashning o'ziga xos xususiyatlari qayta ko'rib chiqildi va unga muvofiq, ushbu tifoifadagi ijtimoiy soliqni to'lovchilar quyidagi ikki guruhga ajratildi:

- kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar ijtimoiy soliqni to'lovchilar;

- mexnat staji xisoblanishi uchun o'zini o'zi band qilgan ijtimoiy soliqni to'lovchilar.

Kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar ijtimoiy soliqni to'lovchilar bo'lar yakka tartibdagi tadbirkorlar, ular bilan mexnat munosabatlarida bulgan jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan utgan oila a'zosi va uning oila a'zolari, kishlok tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandlar hisoblanadilar va ular ijtimoiy soliqni quyidagi miqdorlarda to'laydilar:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining bir baravaridan kam bulmagan miqdorda;**

yakka tartibdagi tadbirkor bilan mexnat munosabatlarida bulgan jismoniy shaxslar tomonidan (yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari) **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;**

faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan xolda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan utgan oila a'zosi tomonidan - **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining bir baravaridan kam bulmagan miqdorda;**

oilaning boshka a'zolari tomonidan (bundan un sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) - **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;**

kishlok tumanlarida ro'yxatdan utgan va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a'zosi bulgan xunarmandchilik faoliyati sub'ektlari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida oyiga bazaviy xisoblash miqdorining **50 foizi miqdorida** majburiy tartibda to'lanadi.

Ikkinchi guruh ijtimoiy soliqni to'lovchilar bo'lib ya'ni mexnat staji xisoblanishi uchun o'zini o'zi band qilgan shaxslar quyidagilar hisoblanadilar va ular soliqni quyidagi miqdorlarda to'laydilar, mexnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshka tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yiliga bazaviy xisoblash miqdorining kamida **bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda**, kuyidagi soliq to'lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to'lanadi:

«Usta-shogird» maktablari ukuvchilari - ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrda;

dehqon xo'jaliklari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dexqon xo'jaligida, tomorqa er uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dexqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshka a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda tulaydi;

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, xar oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning **o'n beshinchi kundan kechiktirmay**;

mexnat staji hisoblanishi uchun o'zini-o'zi band qilgan shaxslar tomonidan hisobot yilining 1 dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to'lov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan xolda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar: yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni belgilangan soliq stavkalari buyicha jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiyada ko'rsatilgan mexnatga haq to'lash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib, biroq eng kam miqdoridan kam bo'lmagan xolda, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida to'lash huquqi berildi.

6. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha:

Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi saqlab qolindi.

Shu bilan birga, Kodeksning 461-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliq tatbiq etilmaydigan to'lovchilar tarkibi alkohol maxsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shohobchalari hamda bozor va savdo komplekslari hisobiga kengydi, ya'ni ular uchun majburiy tartibda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etildi.

Shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha asosiy soliq stavkalari saqlab qolingan holda, rieltorlik xizmatini ko'rsatuvchi shaxslarga soliq stavkasi **25 fizdan 13 foizga kamaytirildi** va joylashagan joyidan qat'iy nazar, chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar **tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan** tovar aylanmasi bo'yicha **4 foiz** miqdorida soliq to'lashga o'tkazildi.

7. Yer solig'i bo'yicha, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonlari uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan erlar bo'yicha, shuningdek dehqon xo'jaliklari uchun soliqni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'ining bazaviy stavkasi va er uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib hisoblash tartibi bekor qilindi va ularga qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatidan kelib chiqib to'lashga o'tkazildi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

2021 yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va**

oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa – Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida **0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda, belgilangan er solig'i stavkasiga tuman deputatlar Kengashlari tomonidan **soliq yukuni keskin oshishini oldini olish maqsadida 0,7 dan 1,3 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini birinchi yillarda qo'llash maqsadga muvofiq. **Alohida joylar** va respublikaning **turistik zonalaridagi** alohida er uchastkalarini, shu jumladan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan **1 gektardan ortiq** er uchastkalariga **nisbatan 3,0 gacha** oshiruvchi koeffitsient qo'llanilishi mumkin (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyuldagi PF- 6027- sonli Farmoni*).

Shuningdek, **jismoniy shaxslarning** er maydonlari uchun olinadigan **er solig'i** (yakka tartibdagi tadbirkorlar va turistik zonalarda joylashgan er uchastkalaridan tashqari) **summasi** 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3 baravaridan oshmasligi** belgilangan.

Bundan tashqari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari alohida er uchastkalariga, shuningdek turistik zonalarda joylashgan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan 1 gektardan ortiq er uchastkasiga er solig'ini 3 baravargacha miqdorda oshiruvchi stavkasini belgilash huquqiga ega.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalarini joylashgan joydagi **soliq organlariga** soliq stavkalarini joriy soliq davrining **31 dekabriga qadar** taqdim etadilar.

Soliq kodeksida **yuridik shaxslar** bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan erlari uchun **bazaviy** soliq stavkasi, **respublika hududlari kesimida 1 gektar** uchun mutlaq miqdori quyidagicha belgilandi:

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so'mda
Toshkent shahri:	
1 zona	220
2 zona	175
3 zona	135
4 zona	90

5 zona	45
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	28
Andijon viloyati	35
Buxoro viloyati	29
Jizzax viloyati	29
Qashqadaryo viloyati	29
Navoiy viloyati	29
Namangan viloyati	35
Samarqand viloyati	35
Surxondaryo viloyati	25
Sirdaryo viloyati	22
Toshkent viloyati	30
Farg‘ona viloyati	29
Xorazm viloyati	29

Soliq kodeksida **jismoniy shaxslar** bo‘yicha **respublika hududlari kesimida** bazaviy soliq stavkalari **mutloq miqdorda 1 kv.m.** uchun, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan erlardan tashqari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Respublika hududlari	1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda
Toshkent shahri:	
1 zona	1280
2 zona	1085
3 zona	890
4 zona	700
5 zona	500
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	260
Andijon viloyati	320
Buxoro viloyati	260
Jizzax viloyati	260
Qashqadaryo viloyati	260
Navoiy viloyati	260
Namangan viloyati	320
Samarqand viloyati	320
Surxondaryo viloyati	234
Sirdaryo viloyati	205

Toshkent viloyati	270
Farg‘ona viloyati	260
Xorazm viloyati	260

Yuridik shaxslar uchun quyidagilar egallagan er qismi bo‘yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi:

turistik zonalarda joylashgan, sanatoriy-kurort ob‘ektlari;

onalar va bolalarning dam olish hamda sog‘lomlashtirish joylari, dam olish uylari.

Bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga turistik zonalarda alohida sanatoriy-kurort ob‘ektlari egallagan erlar uchun er solig‘ining kamaytirilgan stavkalarini qo‘llash yoki er solig‘ini to‘lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha berilgan soliq imtiyozlari boshqa turdagi suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarni kiritish hisobiga kengaytirilmoqda. 2021 yilning 1 yanvarigacha faqatgina tomchilatib sug‘orish tizimidan foydalanayotgan soliq to‘lovchilar soliq imtiyozidan foydalanishi mumkin edi.

2021 yilning 1 yanvaridan boshlab boshqa turdagi suvni tejaydigan sug‘orish (yomg‘irlatib, diskret va boshqa (shu jumladan tomchilatib) texnologiyalarini joriy etilgan erlar – suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan e‘tiboran besh yil muddatga er solig‘ini to‘lashdan ozod etilmoqda. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste‘moli sohasidagi vakolatli organining xulosasi asosida beriladi.

Agarda, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan yoki demontaj qilingan bo‘lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi.

Qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali ta‘sir ko‘rsatish choralari nazarda tutilishi mumkin bo‘lgan va soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan ob‘ektlar jumlasiga samarali foydalanilmayotgan, baliq ko‘paytirish (etishtirish) uchun mo‘ljallangan sun‘iy suv havzalarini kiritish bilan er uchastkalarini ro‘yxati kengaytirilmoqda. Bu er uchastkalariga er solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari qo‘llanilmaydi.

8. Mol mulk solig‘i bo‘yicha, Soliq kodeksining 415-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan ob‘ektlarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkasini 0,2 dan 0,4 foizga oshirildi.

Jismoniy shaxslar uchun 2021 yilda amalda bo‘lgan soliq stavkalari 1,15 baravariga indeksatsiya qilindi. Bunda, 2022 yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq summasi, 2020 yilda hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko‘p oshirilmaligi belgilandi.

Turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob‘ektlari bo‘yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki ushbu soliqlarni to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Ko'p kvartirali uylariga bevosita uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ektiga kiritildi. Bunday ob'ekt soliq bazasiga nisbatan 0,25 foiz miqdoridagi soliq stavkasida soliqqa tortilishi belgilandi

9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha, Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda.

Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	1 kub metr uchun soliq stavkasi, so'mda:	
		yer usti resurslari manbalari	suv yer osti resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (bundan 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	240	290
2.	Sanoat korxonalari	520	620
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	80	100
4.	Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni o'stirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2 190	2 190
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	27 700	27 700

Qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish va baliq etishtirish (o'stirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklarida suv o'lchash uskunalari mavjud bo'lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsientni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Soliq kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari soliq solish ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklarida suvdan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o'zgartirilmoqda. Xususan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili:

joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun;

dehqon xo'jaliklari bo'yicha soliqni hisoblash uchun - soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to'g'risida ma'lumot taqdim etishi belgilandi.

Sun'iy suv havzalarida baliq etishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv ob'ektlaridan olingan va ushbu suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv xajmi mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq solish ob'ekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari shart va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lash tartibi kiritilmoqda.

10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Quyidagi foydali qazilmalar uchun 5 foiz miqdorida, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda yagona soliq stavkasi belgilanmoqda:

qurilish qumlari (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 8 500 so'm bo'lgan);

qum-shag'al aralashmasi (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'm bo'lgan);

qumtoshlar (5 foiz), qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan);

qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan).

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda	
	2020 yilda	2021 yilda
Qurilish qumlari	5%, biroq 8 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan

Qum-shag'al aralashmasi	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qumtoshlar	5 foiz	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirittlar va slanets jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan

*Masalan: Toshkent viloyati Chinoz tumanida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonasi tomonidan 2020 yilda 40 154 kub.metr **“Qurilish qumlari”** qazib olgan va 8 500 so'm soliq stavkasida 341,3 mln.so'm soliq to'lagan bo'lsa, 2021 yilda ham shu miqdorda **“Qurilish qumlari”** qazib olganda, soliq stavkalarini unifikatsiya qilinishi natijasida (soliq stavkasi 7 500 so'm) 301,2 mln.so'm soliq to'laydi yoki 40,1 mln.so'm kam soliq to'laydi.*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin, kumush, palladiy va mis bo'yicha soliq stavkasi 15 foiz miqdorda belgilandi.

Boshqa foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkalari 2020 yil darajasida saqlab qolindi.

3. 2021 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning mohiyati.

Prezidentimizning 2021 yi iyanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlimai va Senatining qo'shma yig'ilishida qilgan murojaatnomasida 2021 yilni “Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” e'lon qildi.

Prezidentimizning 2021 yil 3 fevraldagi «2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-6155-son farmoni bilan tasdiqlangan DAVLAT DASTURI'ning 3.3. bo'limi **“Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish, soliq yukini**

kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish” deb nomlanib unda quyidagi tadbirlar belgilandi

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;

Sotiladigan tovarlarning yagona elektron tasniflagich tizimini ishlab chiqish va onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisobvaraqa-fakturalari, markirovkalash tizimlariga integratsiyalash;

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash ma'murchiligini takomillashtirish;

Teng raqobat sharoitini yaratish va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar huquqlarini kafolatlash bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;

Soliq xizmatlarini ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish va xalqaro standartlarga moslashtirish, soliq organlarini «xizmat ko'rsatuvchi» yuqori texnologiyali tashkilotga transformatsiya qilishni davom ettirish;

Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish va soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish hamda soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish bo'yicha belgilangan ushbu yo'nalishlar doirasida 11 ta normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tadbirlari belgilangan.

Prezidentimizning aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishsizlikni oldini olish, bu borada yoshlar va xotin-qizlarni, ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash yuzasidan yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlarni rag'batlantirish bo'yicha joriy yilning aprel oyida qabul qilgan farmon va qarorlari davlat dasturida belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6208-sonli farmoni bilan 2021 yil 1 maydan 2023 yil 1 yanvarga qadar, ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini davlat byudjetidan to'liq qaytarib berish tartibining joriy qilinishi birinchidan yoshlarni ish bilan ta'minlanishida qulay imkoniyat bo'lsa, ikkinchidan ularni ishga qabul qiluvchilarni yoshlarni ishga jalb qilishdan manfaatdorligini oshirdi.

Masalan, xo'jalik sub'ekti ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonaga 25 yoshga to'lmagan yosh mutaxassisni ishga qabul qilib, unga o'rtacha 3000,0 ming so'mdan oylik ish haqi belgiladi, amaldagi qonunchilikka muvofiq, xodimga to'langan oylik ish haqi fondidan oyida 12 foiz ya'ni 360,0 ming so'm miqdorida ijtimoiy soliq to'laydi. Joriy etilgan imtiyozga muvofiq endilikda xo'jalik sub'ekti tomonidan yosh xodimga to'langan ijtimoiy soliq summasi tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin soliq to'lovchiga qaytarib beriladi.

Qayd etish joizki, mazkur imtiyozni qo'lash uchun ishga olingan yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirgan bo'lishi kerak va bunda ijtimoiy soliqni qaytarish ettinchi oydan boshlab amalga oshiriladi. O'z navbatida, mazkur imtiyoz byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga tadbiriq etilmaydi.

Shuningdek, farmon bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq joylarda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlat mulklarini ijaraga olishda, farmonda tasdiqlangan jadval bo'yicha ijara to'lovlarini imtiyozli miqdorlarda to'lash belgilandi.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishchilar soni	Davlat mulki ob'ektining imtiyoz qo'llaniladigan eng ko'p maydoni			
	Toshkent shahar (kv. m)	Nukus shahar va viloyat markazlari (kv. m)	Tuman markazlari (kv. m)	Boshqa hududlar (kv. m)
I. «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilganda umumiy ijara maydoniga nisbatan ijara to'lovlarini 50 foiz miqdorida to'laydigan tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha				
5 ta	60	80	100	120
6 dan — 9 gacha	100	120	140	160
10 dan — 19 gacha	200	240	280	300
20 va undan ortiq	250	280	300	320
II. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizi «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar bo'lgan, davlat mulki ob'ektlari uchun ijara haqi to'lovidan 5 yilga ozod etiladigan tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha				
10 gacha	100	120	140	160
10 dan — 19 gacha	140	160	180	200
20 dan — 29 gacha	180	200	220	240
30 va undan ortiq	220	240	260	280

Ushbu jadvalning I qismi bo'yicha «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlar ishga qabul qilinganda umumiy ijara maydoniga nisbatan ijara to'lovlarini 50 foiz miqdorida to'laydigan tadbirkorlik sub'ektlari uchun imtiyozli maydon belgilandi.

Masalan, Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ekti agar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 5 nafar ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan bo'lsa, mazkur tadbirkorlik sub'ekti 60, m² gacha bo'lgan ijara maydoni uchun ijara to'lovini 50 foiz kamaytirilgan stavkada to'laydi. Demak tadbirkorlik sub'ekti agar ijara shartnomasi bo'yicha 100 m² davlat mulkini ijaraga olgan bo'lsa va 5 ta nafar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan bo'lsa 60 m² uchun, agarda 6 nafardan 9 nafargacha xodimni ishga olgan bo'lsa 100 m² uchun ijara to'lovining 50 foizini to'lashdan ozod qilinadi.

Qayd etish lozimki mazkur jadvalda keltirilgan shartlar bo'yicha respublikamiz hududlari bo'yicha ham «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga olgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun ijara to'lovining imtiyozli maydon hajmlari belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur jadvalning II qismida esa ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizi «Yoshlar

daftari»ga kiritilgan yoshlar bo'lganida, davlat mulki ob'ektlari uchun ijara to'lovidan 5 yilga ozod etiladigan tadbirkorlik sub'ektlari ishga olinishi lozim bo'lgan xodimlar soni va imtiyozli maydon hajmlari belgilangan.

Masalan, jadvalning II qismiga muvofiq, masalan Toshkent shahrida ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektining jami xodimlar soni 15 kishi bo'lib, ushbu korxonada 150 m² maydonga ega davlat mulkini ijaraga olgan bo'lsa va korxonada ishlovchi xodimlarning 11 tasini (70 foizi) «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar tashkil qilsa, mazkur holatda ushbu korxonada ijaraga olgan davlat mulkining 100 m² uchun ijara haqi to'lovidan 5 yil muddatgacha ozod etiladi.

Shuningdek farmonda, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va o'zini o'zi band qilishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilandi.

Masalan, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yosh yigit yoki qiz tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun 20,0 million so'm mablag' lozim bo'lsa, shundan bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari ya'ni 9 800 000 so'mni ($254000 \cdot 40$) «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilangan.

Shuningdek farmonda, 2021 yil 1 iyundan boshlab «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yosh tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun bino va inshootlarni ijaraga olganda, bir yillik ijara xarajatlarining 30 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha bo'lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan kompensatsiya qilinishi belgilandi.

Masalan, yosh tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun boshqa bir tadbirkordan 50 m² maydonga ega bo'lgan binoni bir yillik muddatga yillik 20.0 mln.so'mga ijaraga oldi. Iritilayotgan o'zgartirish bo'yicha ushbu tadbirkorni qo'llab-quvvatlash maqadida, ijara to'lovining 30 foizini ya'ni 6,0 mln.so'mni ($20,0 \cdot 30\%$) biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha ya'ni 6125000 so'mgacha ($25 \cdot 245000$) bo'lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan kompensatsiya qilinadi.

O'z navbatida farmonda, professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni ishlab-chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliyot o'tash uchun yuborilgan vaqtida, biroq olti oydan ko'p bo'lmagan muddatda professional ta'lim tashkilotlari tomonidan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida oylik subsidiya ajratilishi belgilandi.

Masalan Toshkent qurilish texnikumi mazkur texnikumda tahsil olayotgan va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan o'quvchini qurilish korxonasiga amaliyot o'tash uchun olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga, aytaylik besh oy muddatga yuborgan bo'lsa, bunda texnikum hisobidan oyiga 900 so'm ($245000 \cdot 2$) jamibesh oy uchun 4500.0 ($900 \cdot 5$) ming so'm subsidiya ajratiladi.

Bundan tashqari farmonda 2021 yil 1 iyundan boshlab «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib sertifikat olgan yoshlarga

kompyuterlar (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan) xarid qilishlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda iste'mol kreditlari ajratilishi belgilanib, mazkur iste'mol kreditlarini ajratish AT «Xalq banki», AT «Aloqa bank» va «Mikrokreditbank» ATB tomonidan amalga oshirilishi va iste'mol kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi;

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining 50 foizi, biroq umumiy hisobda bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha bo'lgan miqdori hamda ular bo'yicha milliy sertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini Yoshlar ishlari agentligiga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi;

«Mehribonlik» uylari tarbiyalanuvchilari hamda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlari bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari miqdorigacha va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badali Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanishi;

xususiy korxonalar va tashkilotlarga ishga qabul qilingan hamda faoliyat boshlaganiga olti oydan oshmagan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni qayta tayyorlov kurslarida o'qitish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha bo'lgan qismi mazkur xususiy korxonalar va tashkilotlarga Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi belgilandi.

Shuningdek, 2021 yil 1 maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi.

Bunda, ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari, qolgan hududlarda — bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravaridan oshmasligi lozim;

ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi birinchi navbatda ehtiyojmand oilalar farzandlariga, o'rnak ko'rsatgan va faol talabalar uchun qoplab beriladi;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijara huquqi asosida yashaydigan boshqa talabalarga ham oylik ijara to'lovining bir qismi qoplab berilishi belgilandi.

Farmon bilan, Yoshlar ishlari agentligida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan «Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» tashkil etilib, Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, agentlik va uning hududiy bo'linmalari huzuridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ixtiyorida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qoladigan sof foydaning bir qismi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar jamg'arma daromadlarining manbalari etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 aprel, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son qarorida, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash masalalarida qo'shimcha tadbirlarni belgilashni nazarda tutildi.

Qarorga muvofiq, 2021 yil 1 iyundan boshlab tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari belgilandi:

uch yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko'rsatayotgan hamda hisoblangan soliqlarni muddatida to'lab kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra soliq qarzini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash;

uch yildan ortiq vaqtdan buyon tovarlarni import qilish bilan shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarib kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra to'lovlarni belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lash huquqi beriladi.

Bunda, ushbu tartib bo'yicha garovsiz bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasi tadbirkorlik sub'ekti tomonidan oxirgi uch yil davomida to'langan soliq yoki bojxona to'lovlari summasining 50 foizidan oshmagan miqdorida bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasiga beriladi.

Masala, tadbirkorlik sub'ekti tomonidan oxirgi uch yilda to'langan soliq yoki to'lovlar summasi taxminan uch mlrd bo'lib, lekin kechiktirib to'lanadigan soliq va to'lovlar summasi 5 mlrd.so'm bo'lsa, bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasi 1,5 mlrd.so'm (3,0mlrd.so'm : 2) miqdorida belgilanadi.

Shuningdek, 2021 yil 1 maydan boshlab chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar va «erkin muomalaga chiqarish» bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishni o'z vaqtida ta'minlamagan import qiluvchilar uchun qonunchilikda belgilangan jarima miqdorlari ikki baravarga kamaytirildi.

2021 yil 1 may holatiga shakllangan tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga jarimalar qo'llash to'xtatildi va debitor qarzdorlik vujudga kelish muddatlari 2021 yil 1 maydan boshlab yangidan hisoblanadigan bo'ldi.

2021 yil 1 maydan boshlab, "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" tomonidan Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan miqdordagi foiz stavkasi bilan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya, uning belgilangan miqdorlarini saqlab qolgan holda, taqdim etilishi belgilandi.

Masalan, 2021 yil 1 may holatiga Markaziy bank asosiy stavkasi 14 foiz bo'lsa, uning 1,75 barobari 24,5 foizni ($14 \cdot 1,75$) tashkil etadi. Agar tadbirkorlik sub'ekti

bankdan 5,0mlrd.so'm kreditni yillik 28,0% stavkada olgan bo'lsa, tadbirkorlik sub'ektiga ushbu kredit fozining 24,5 foizlik xarjatlar qismi qoplab beriladi.

Shuningdek, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorda tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik beriladi;

Masalan, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» kiritilgan tadbirkorlik sub'ekti kredit rasmiylashtirgan vaqtda 36750,0 (150*245000) ming so'mgacha jamg'arma tomonidan kafillik berilishi belgilandi.

Asosiysi, tadbirkorlik sub'ektlariga bank kreditlari bo'yicha kompensatsiya va kafilliklar kredit shartnomalari sonidan qat'i nazar berilishi va bunda, kompensatsiyalar taqdim etilayotgan kreditlarning umumiy summasi 10 mlrd so'mdan, kafilliklarning umumiy summasi esa 8 mlrd so'mdan, biroq umumiy kredit summasining 50 foizidan oshmasligi belgilab qo'yildi.

Qarorda, Eksportni rag'batlantirish agentligiga, eksport qiluvchilar tomonidan tovarlar ular bo'yicha to'lovlarni kechiktirib to'lash sharti bilan eksport qilinganda, ularning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun revolver kreditlarni moliyalashtirish maqsadlarida tijorat banklariga moliyaviy resurslar taqdim etish, ushbu resurslar hisobidan kreditlar to'lovlar kechiktirilgan muddatga va eksport qilinayotgan mahsulotlar qiymati miqdorida, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'lmagan miqdorda, yillik 4 foizli stavka (shundan, 2 foizi bank marjasi) bilan ajratilishi belgilandi.

Masalan, tadbirkorlik sub'ekti ishlab chiqargan tovarlarini eksport qilganda, ushbu eksport uchun to'lovlar kechiktirib to'lanishi shartnomada belgilangan bo'lsa, bunday sharoitda ushbu tadbirkorlik sub'ektining aylanmalar mablag'larini to'ldirish uchun Eksportni rag'batlantirish agentligi tijorat banklariga moliyaviy resurslar hisobidan kredit to'lovlari qancha muddatga kechiktirilgan bo'lsa, masalan agar to'lovlar uch oygacha kechiktirilgan bo'lsa demak uch oygacha eksport qilingan mahsulotlar qiymati miqdorida agar eksport miqdori 1,0 mlrd so'mga bo'lsa, shu bir mlrd.so'mga, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'lmagan miqdorda, yillik 4 foizli stavkada kredit ajratishi belgilandi.

O'z navbatida, yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi"ning kafillik va kompensatsiyalaridan foydalanish huquqiga egaligi farmonda belgilab qo'yildi..

Shuningdek, farmonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizi kichik biznes loyihalariga, 30 foizi ustuvor ravishda o'zini o'zi band qilishga yo'naltirilishi, ajratiladigan mablag'larning kamida 15 foizi joylarda, ayniqsa shaharlarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilishi belgilandi.

Farmonning yana bir muhim jihati, 2021 yil 1 iyundan boshlab infratuzilmaga yaqin joylarda, shu jumladan respublika ahamiyatidagi yo'llarga tutash bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha unumdorligi past, foydalanishda bo'lmagan qishloq xo'jaligi erlarini sanoat va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini barpo etish

uchun loyiha asosida investorlarga «E-IJRO AUKSION» savdo maydonchasida elektron onlayn-auksion orqali ajratilishiga ruxsat etildi.

Shu bilan birga, joylarda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan er uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini auktsionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga er uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini auktsionga qo'yishda boshlang'ich narxga chegirma belgilanadigan olis va chekka hududlar chegaralarini belgilash vakolatlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-son qarori bilan aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik sub'ektlari rag'batlantirish tadbirlari belgilandi.

Mazkur qaror bilan, 2021 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi va unda 2021 yilda 457 127 ta doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari va 2021 yilda mehnat organlari tomonidan 513 575 nafar fuqaro bandligiga ko'maklashish va ish beruvchilarni rag'batlantirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Shu bilan birga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2021 yilda aholi bandligiga ko'maklashishga:

subsidiyalar ajratish uchun — 92,3 mlrd so'm;

ishsizlik nafaqalari to'lab berish uchun — 65,1 mlrd so'm;

kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish xarajatlarini qoplash uchun — 40,6 mlrd so'm;

yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga ajratiladigan resurslar uchun — 125 mlrd so'm mablag'lar ajratilishi belgilandi.

Qarorning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksining Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish va unda:

mehnat staji uchun ijtimoiy soliq to'lagan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakuni bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar;

tashkil etilgan ish o'rnida band bo'lgan jismoniy shaxslardan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan) olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq hamda norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan yashirin ish o'rinlarini rasmiylashtirish, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakuniga qadar;

yuridik shaxslar tomonidan yangi tashkil etilgan va qisqartirilgan ish o'rinlari soni to'g'risidagi oylik, choraklik, yillik ma'lumotlar (kichik korxonalar va mikrofirmalardan tashqari) hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar aks ettirilishini ta'minlash belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga o'ratish va ularni mehnat bozorida bandligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirish yuzasidan yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan yangi rag'batlantirish normalarining amaliyotga joriy etilishi, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirishda, tadbirkorlarni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash muhim uslubiy va iqtisodiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

2-mavzu. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliq ma'murchiligi ahamiyatini oshirish masalalari

Reja:

- 1. Yashirin iqtisodiyoti haqida tushuncha, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri.**
- 2. Dunyo miqyosida yashirin iqtisodiyotning ulushi va O'zbekiston iqtisodiyotiga yashirin iqtisodiyotning ta'siri.**
- 3. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.**
- 4. Soliq sohasida yashirin iqtisodiyotning oldini olish yo'llari.**

1. Yashirin iqtisodiyoti haqida tushuncha, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri.

Mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda, avvalo iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun unga tahdid soluvchi kuchlarni bartaraf etish lozim bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikka bo'layotgan tahdidlar orasida ko'proq ahamiyat egallagani iqtisodiy munosabatlarning jinoiylashuvi, jinoiy tizimning davlat iqtisodiy siyosatini o'z manfaatlariga bo'ysindirish tendentsiyasi hisoblanadi.

Aynan shuning uchun ham jinoiy xufiyona (yashirin) iqtisodiyotni aniqlash, shakllanishining oldini olish va uning ulushini pasaytirish hozirgi zamon iqtisodiy siyosatining o'ta dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni zudlik bilan hal etish uchun kompleks choratadbirlarni kechiktirmay amalga oshirish lozimligini bugungi vaziyatning o'zi talab qilmoqda.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari bo'lib, unda oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari - iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yaratadi.

Boshqacha aytganda, **yashirin iqtisodiyot** nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqealik, balki davlat hisobi hamda nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan ham rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatidir. Yashirin

iqtisodiyotga berilgan bunday ta'rifning o'ziyoq uning mamlakat taraqqiyotiga to'sqinlik, byudjet daromadlariga esa salbiy ta'sir qilishini, shu bois, unga qarshi kurashish o'ta dolzarbligini ko'rsatadi.

Yashirin (xufyona) iqtisodiyotning mezonlar bo'yicha turlari

Mezonlari	«Oq yoqali» xufyona iqtisodiyot	«Kulrang» xufyona iqtisodiyot	«Qora» xufyona iqtisodiyot
Sub'ektlari	Iqtisodiyotning rasmiy sektori ishtirokchilari (menejerlari)	Norasmiy bandlar	Professional jinoyatchilar
Ob'ektlari	Daromadlarni ishlab chiqarishsiz taqsimlanishi	Odatiy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish	Ta'qiqlangan yoki defitsit tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish
“Toza” rasmiy iqtisodiyot bilan aloqasi	“Toza” iqtisodiyotdan ajralmagan holda	Nisbatan mustaqil	Mustaqil (avtonom)

Yashirin iqtisodiyot murakb ko'p bosqichli hodisa, uning tur va shakllari xilma-xil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1) **jinoiy iqtisodiy faoliyat.** Bu mutlaqo ma'n etilgan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish, (narkobiznes, pornobiznes, qurol biznesi va h. k.);

2) **g'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish,** (o'g'irlik, bosqinchilik, reket,poraxo'rlik);

3) **ikkilamchi iqtisodiyot** – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1-2 va 5-10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmati ko'rsatish, q. x., qurilish, savdo, kiyimkechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan;

4) **rasman ruxsat etilgan faoliyat** bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish;

5) **mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xattiharakatlar.** Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin;

6) **qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat,** bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar Yashirin iqtisodiyot dagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat'iyan taqiqlanadi, hamma choralar bilan unga qarshi kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo'lsada kishilar talabehtiyolarini qondiradi) oshkoralikka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Yashirin iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib ular:

- bozorga kirishning oson va qulayligi;
- ish beruvchi va ishchi munosabatlarining takomillashmaganligi;
- malaka va ko'nikmalarning standartlashmagani;
- operatsiyalar miqyosining kichikligi;
- xufyona narxlarning shakllanishiga sharoitning yaratilishi.


Xufyona narxlar deb bozorda yuz beradigan uzilishlar sharoitida belgilangan bozor narxlariga to'g'ri kelmaydigan, lekin ijtimoiy xarajatlar yoki ijtimoiy daromadni o'zida aks ettirgan hisob narxlariga aytiladi va xufyona narxlar doimo bozor narxlariga nisbatan tafovutda bo'ladi.

Xufyona narxlar va bozor narxlari o'rtasidagi tafovutni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Bozor	Xufyona narxlar (P_S) va bozor narxlari (P_M) o'rtasidagi tafovut	Tafovut sababi
Mexnat	$P_S < P_M$ (ishsizlik darajasi yuqori xollarda)	Ishga yollanishda muqobil ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan yo'qotishlar bo'lmaydi
Kapital	$P_S > P_M$ (kapital bozorida mablag'lar tanqisligi mavjud xollarda)	Firmaning kutilayotgan foyda normasi mavjud foiz stavkasidan baland bo'ladi
Mahsulot	$P_S < P_M$ (salbiy tashqi ta'sir sharoitida)	Naqd pul bilan naqdsiz pul o'rtasida tafovut bo'lganda hamda bankdan tashqari pul aylanmasi oshganda

Demak, mehnat bozorida xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan doimo past bo'ladi, kapital bozorida esa xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan yuqori bo'ladi va o'z navbatida mahsulot realizatsiyasi davrida xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan past bo'ladi.

Daromadlar tabaqalanishi tengsizligini grafikda tasvirlash Lorents egri chizig'i yordamida amalga oshiriladi. Lorents egri chizig'i kvadrat diaganaliga suyangan yoydan iborat bo'ladi. Ya'ni quyidagicha



Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud emas. Balki, aholining ma'lum guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishni Lorents egri chizig'i deb nomlanuvchi OF egri chizig'i orqali kuzatish mumkin.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorents egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorents egri chizig'i OE chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi.

Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo'lsa, bunda Lorents egri chizig'i va bissektrisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Yashirin iqtisodiyot o'zining salbiy va ijobiy ta'sir kuchiga ham ega bo'ladi.

Yashirish iqtisodiyotning salbi ta'siri quyidagilardan iborat:

- qtisodiy o'sishga teskari ta'sir etadi;
- norasmiy tadbirkorlikni rag'batlantiradi; -ishchilarni ekspluatatsiya qilishga sharoit yaratadi, ularni malakali ishchi bo'lishlariga to'sqinlik qiladi;

- byudjet daromadlariga tushumlarni kamaytiradi;

- davlatning fiskal siyosat dastaklaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

O'z navbatida yashirin iqtisodiyot:

- kam ta'minlangan hamda malakasiz axolining asosiy daromad manbai hisoblanadi;

- ijtimoiy ta'minot xarajatlarini pasaytirishga xizmat qiladi;

- bozordagi narxlarning pasayishiga olib keladi.

O'z vaqtida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov – "Jamiyatda jinoiy "xufiyona iqtisodiyot" ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat xokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'inlari va darajalari vakillari ham uning yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korruptsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalaniladi. Bu esa jinoyatchilik va korruptsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlari tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir" deb ta'kidlaganligi ushbu masalani hal etish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiy etishidagi ahamiyati nechog'li yuqori ekanligini anglatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazorat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo'lmas va norasmiy qismi yoki yashirin iqtisodiyot mavjud qonun va jamiyat qoidalarini chetlab o'tuvchi jamiyatdagi fuqarolarning iqtisodiy aloqalari demakdir.

Xo'sh, yashirin iqtisodiyot qaerdan paydo bo'ladi va qachon rivojlanadi? U avvalo, jamiyatda iqtisodiy faoliyatni keng jamoatchilikdan yashirish uchun qulay bo'lgan taqdirda va bunga sharoit mavjudligida paydo bo'ladi va uning rivojlanishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan turli xil litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalarni olinishida ko'zda tutilmagan xarajatlarning mavjudligi;

- xom ashyo mahsulotlarini etkazib berilishida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar.

-mamlakatda soliq yuki darjasining yuqoriligi;

shuningdek, yashirin iqtisodiyotda valyuta qora bozorining o'rni juda katta hisoblanadi. Bizning mamlakatda ham eng yirik naqd pul aylanmalari xorijiy valyuta bo'lmish AQSh dollarida amalga oshiriladi (noqonuniy yirik bitimlar, uy-joy, avtomobil oldi-sotdisi va boshqa ko'plab tovarlar oldi-sotdisi yig'indisi).

Bankdan tashqari aylanayotgan ushbu xorijiy valyutaning milliy valyutamiz so'mga nisbatan etkazayotgan bevosita zarari oxir-oqibat milliy valyutamizning qadrsizlanishiga o'zining bilvosita ta'sirini ko'rsatadi. Aksariyat mahsulotlarning chetdan naqd pulga sotib olib keltirilishi yoki xufiyona bitimlar tufayli mahsulotlarning mamlakatimizga olib kirib sotilishi ko'p jihatdan soliqdan yashirgan holda foyda ko'rib ishlayotgan tadbirkorlar va ularni qo'llab-quvvatlab turgan boshqa shaxslarga qo'l keladi

Asosiysi, o'z tadbirkorligi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga, raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqilishiga misli ko'rilmagan darajada ziyon etadi.

Yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazorat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo'lmas va norasmiy qismidir.

Mamlakatdagi xufiyona iqtisodiyotning ko'lami kengayib borishi, o'z navbatida, hududda yaratilgan milliy boylikni taqsimlash va qayta taqsimlanishida tengsizlikni keltirib chiqaradi. Aholi daromadlarining to'g'ri taqsimlanmasligi, jamiyatda ijtimoiy muxitning yomonlashuvi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlarining kuchsizlanishiga olib keladi. Jamiyatda jinoiy xarakterdagi faoliyatning hamda uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga sharoit yaratib beradi. Mamlakatning investitsion muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman aytganda, "xufiyona iqtisodiyot"ning kengayishi aholining siyosiy xokimiyatga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga to'sqinlik qiladi. Xufiyona iqtisodiyot zamonaviy jinoiy tizimlarning shakllanishiga moddiy asos bo'ladi, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, inqirozdan chiqish, bozor munosabatlariga asoslangan davlatga aylanishga to'sqinlik qiladi.

Xufiyona iqtisodiyot, o'z navbatida, korrupsiyani vujudga keltiradi, korrupsiya esa "xufiyona iqtisodiyot"ning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi.

Ya'ni, - bir tomondan, "xufiyona iqtisodiyot" davlat xokimiyati va boshqaruvining barcha tizimi sezilarli darajada korrupsiyalashgan shart-sharoitda rivojlanadi;

ikkinchi tomondan, "xufiyona iqtisodiyot" siyosat va iqtisodiyotning o'zaro xotirjam holatda mavjud bo'lishini ta'minlovchi sohalar bilan korrupsiyali munosobatlarni shakllantiradi;

uchinchidan, korrupsiya "xufiyona iqtisodiyot"ni ko'ziga ko'rinmasdan, noqonuniy ravishda tijoratni olib borishga majbur etadi;

to'rtinchidan, korruptsiya "xufiyona iqtisodiyot"ning yangi ko'rinishi va sohalar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bois korruptsiyaga qarshi kurashish "xufiyona iqtisodiyot"ga qarshi kurash bilan birga olib borilmasa, kerakli samarani bermaydi. "Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, "xufiyona iqtisodiyot" vakillari tomonidan topiladigan foydaning kamida 40 foizi bevosita noqonuniy xarakterdagi munosabatlarni saqlab turishga yo'naltiriladi.

Muxtassar qilib aytganda, mamlakatda "xufiyona iqtisodiyot" darajasining yuqoriligi poraxo'rlik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi keladi. Umuman, xufiyona iqtisodiyotning ma'lum bir davlat misolida qanchalik darajada rivojlanganligini aniq belgilab bo'lmaydi. Ushbu hodisaning mavjudligi natijasida yuzaga keluvchi bir qator omillar uning taxminiy darajasini mutaxassislar ishtirokida jahon mamlakatlarida mavjud bo'lgan "xufiyona iqtisodiyot"ning ulushini aniqlaydi.

2. Dunyo miqyosida yashirin iqtisodiyotning ulushi va O'zbekiston iqtisodiyotiga yashirin iqtisodiyotning ta'siri.

Umuman olganda, yashirin (xufiyona) iqtisodiyot tushinchasi jaxon amaliyotiga XX-asrning 30-yillaridan o'rganila boshladi va 1970-yillardan unga jiddiy e'tibor qaratildi.

Yashirin iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya'ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo'lganidan uning aniq hisob-kitobi bo'lmaydi. Buning o'rniga uni taxminan baholash usuli qo'llaniladi.

Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida er yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo'lgan. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda turlicha bir-biridan farqlanadi.

Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. 1999 yil Misr va Nigeriyada u yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo'ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo'lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1—2%), G'arbiy Evropada Shveytsariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida Yashirin iqtisodiyot darajasi o'rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan AQSh va Italiyada Yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997). Ayrim rivojlangan davlatlarda yillik yalpi ichki mahsulotning 14-15 foizi miqdorida yashirin iqtisod optimal hajm deb hisoblanadi.

Hozirgi davrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi oqibatida Yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib xalqaro darajaga ko'tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi Yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko'chirilishida, nojo'ya biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo'lishida ko'rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g'ayri qonuniy yo'llar bilan topilgan pulni «halollab» olish kabilarni ko'rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib


«halollab» olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot - Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan.

Rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning ijobiy taraflari ham kuzatilgan. Masalan, Evropa mamlakatlarida turg'unlik, krizis paytida ish o'rinlari qisqargan sharoitda xodimlar norasmiy sektorlarda vaqtincha ishlab turganlar. Bu esa ushbu ishsiz qolgan xodimlarni och qolish va qiyinchiliklarga duch kelishdan saqlab qolgan.

G'arb ekspertlarining ta'kidlashicha, mamlakat YaIM ning 40-50 %ini "xufiyona iqtisodiyot" tashkil etgan holat xavfli "bo'sag'a" hisoblanadi². Milliy iqtisodiy tizimi ushbu ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan mamlakatlar o'zini juda og'ir holatga tushgan, deb hisoblanadi. Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning hajmi va dinamikasini quyidagi omillar belgilaydi: - soliq solishning og'irligi; - olinadigan daromad miqdori; - ish vaqtining uzunligi; - ishsizlik miqyosi; - davlat sektorining roli. Mutaxassislarning fikricha, soliq va ijtimoiy to'lovlarning YaIMga bo'lgan nisbati 33% bo'lsa, bu yashirin iqtisodiyot ko'payishining keskin nuqtasi hisoblanadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda xufiyona iqtisodiyotning o'rtacha darajasi 17,2 foizni tashkil qiladi. Ammo bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda farq qiladi. Masalan, eng past ko'rsatkich AQShda 7,4 foiz, Xitoyda 10,1 foiz, Rossiyada 39,3 foiz bo'lib, bu borada eng yuqori ko'rsatkich Ozarbayjonda 56,7 foizni tashkil etadi.

Quyidagi 1-rasm ma'lumotlari orqali dunyoning ayrim mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyot ko'lamining qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.




1-rasm. Dunyoning ayrim mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyotning YaIMga nisbatan ulushi o'zgarish dinamikasi² (foizda).

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xufiyona iqtisodiyot ulushi eng past ko'rsatkich AQShga to'g'ri kelmoqda, ya'ni hozirgi vaqtda 7,42 foizni

² www.accaglobal.com Future shadow economy - ACCA Global. pi-shadow-economy.pdf


tashkil qilmoqda. Ushbu holatni AQShda qonun ustuvorligi ta'minlanganligi, soliq to'lovchilarning madaniyati yaxshi rivojlanganligi hamda barcha soliq to'lovchilar umumdeklaratsiya asosida daromadlari va xarajatlarini oshkorlashtirish mexanizmi ta'minlanganligi bilan asoslash mumkin. Eng yuqori ko'rsatkich Ozarbayjon davlatiga to'g'ri kelmoqda, ya'ni YaIMga nisbatan 56,72 foizni, ushbu ko'rsatkich kelgusida yanada ortib borishini nazarda tutilgan. Ushbu holat Ozarbayjonda xufiyona iqtisodiyotga ta'sir etuvchi salbiy omillar rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (PROON)ning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi dunyo bo'yicha o'rtacha 17,2% tashkil etgan bir paytda, mazkur ko'rsatkich MDH davlatlari Ukrainada 44,8 %, Tojikistonda 43 %, Qozog'istonda 38,9%, Rossiyada 38,4 %, Qirg'izistonda 37,9 % tashkil etadi.



Har ikkala manba ma'lumotlari bo'yicha taqqoslaganda ham O'zbekiston yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichi 48,7 foizni tashkil etadi.

Sohalar kesimida ko'rib chiqilsa, mazkur ko'rsatkich savdo va transport vositalarini ta'mirlash sohasida 75%, qurilish sohasida 50%, ishlab chiqarish sohasida 45%, baliqchilik, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida 40%, transportda tashish va saqlash 21% va xizmatlar sohasida 30 %ni tashkil etadi.



Xufiyona iqtisodiyotning tarmoqlar kesimida ulushi, %da

Mazkur sohalarning nazoratini kuchaytirish, ularga nisbatan ta'sirchan choralarini ko'rish, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida nazorat organlarining, shu jumladan, davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi hamda ularning vakolatlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

3. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Butun dunyo tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, jahondagi barcha mamlakatlarda ma'lum darajada korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot mavjud. Dunyo tajribasi bu illatni kamaytirish mumkinligini, biroq uni butunlay yo'q qila olmasligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramay, ayrim davlatlar xufiyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishda ijobiy natijalarga erishgan.

Bunda ular, asosan, naqd pul muomalasidan maksimal darajada voz kechish, iqtisodiyotda elektron yoki naqd pulsiz to'lovlar tizimini joriy etish orqali ijobiy natijalarga erishganlar. Ko'plab mamlakatlarda elektron to'lovlarni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator choralar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi va ta'sirini minimal darajada kamaytirishga erishilgan. Bu esa oddiy aholi turmush darajasi yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratgan.

Avvalo, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni asta-sekinlik bilan qonuniy belgilangan tartibda qonuniy ishlashga o'rgatish lozim bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullangan va o'z daromadlarini yashirgan barcha tadbirkorlik sub'ektlariga amnistiya qo'llash, ya'ni belgilangan amnistiya muddati ichida tadbirkorlar o'z daromadlarini hech qanday to'siqsiz va ortiqcha tekshiruvlarsiz qayd etib, legallashtirishlari hamda faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qonuniy choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli qarori bilan:

2020 yil 1 iyuldan o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 63 ta faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlandi;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilandi;

2020 yil 1 iyuldan boshlab, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish xabar berish tartibida o'zini o'zi band qilgan sifatida ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) bergan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi hamda vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish tartibi bekor qilindi;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar 2020 yil uchun ijtimoiy soliqni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtdan qat'i nazar bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to'lash va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o'rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanishi;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun nazarda tutilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi, ishtirokchilari soni kamida uch nafar bo'lgan oilaviy korxonalar aylanmadan soliqni belgilangan miqdordan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to'lash belgilandi.

O'zbekistonda valyuta qora bozorini yo'q qilish uchun noqonuniy valyuta qora bozorlarini qonuniylashtirgan holda belgilangan intervallar doirasida bozor narxlarida savdo qiluvchi valyuta ayirboshlash shoxobchalarini tashkil qilish lozim. Naqd xorijiy valyutani bemalol rasmiy soliq to'lab faoliyat yuritadigan xususiy shoxobchalarda almashtirish imkonini berish kerak.

Davlat tomonidan naqd pulsiz savdo qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz preferentsiyalar berish orqali qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligini yanada ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, rivojlangan davlatlarda bugungi kunga kelib naqd pul muomalasi maksimal darajada qisqartirilgan, barcha pul aylanishi bank orqali amalga oshirilishi davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelishi hech kimga sir emas.

Keyingi yillarda biznesga qo'shimcha qulayliklar yaratish, xususan, valyuta bozori erkinlashtirildi, yangi soliq tizimi joriy etildi, 100 ga yaqin ruxsat berish va litsenziyalash qoidalari qisqartirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 avgustdagi **“Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi farmoni bilan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish hamda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2021 yil 1 yanvardan boshlab 45 ta faoliyat bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning bekor qilindi;

26 faoliyat turlari birlashtirish yo'li bilan bekor qilindi;

23 ta faoliyat turlari xabardor qilish tartibi joriy etilishi yo'li bilan bekor qilindi;

14 ta litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning ayrim turlarini rasmiylashtirish muddatlari qisqartirildi.

47 ta litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish belgilandi.

Shuningdek 2021 yil 1 yanvardan boshlab, turizm faoliyatini litsenziyalashda turoperatorlar xizmatlarini sertifikatlash ixtiyoriy etib belgilandi;

kredit byurolari faoliyatini litsenziyalashda kamida 10 ta tijorat banki bilan kredit almashinuvini amalga oshirishga roziligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi talabi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashda ushbu faoliyat uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ularning xuddi shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi filiallari tashkil etilganda har bir filial manzilini asosiy litsenziyada ko'rsatish amaliyotini joriy qilish orqali filiallarga alohida litsenziya rasmiylashtirish amaliyoti;

er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya olishda talabgordan mahalliy davlat hokimiyati organlarining kafolat xatlarini olishni talab qilish tartibi bekor qilindi.

Qayd etish jilzki, mamlakatimizda keyingi ikki yil davomida yashirin iqtisodiyotning ta'sirini kamaytirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda "**Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi O'RQ-419-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 23 ta moddadan iborat bo'lib, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, qonunda korruptsiyaga oid tushunchalarga izoh berilib:

korruptsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik — korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushunilishi qayd etilgan.

Qonunning 4-moddasida, qorruptsiyaga qarshi kurashishning asosiyrintsiplari belgilangan bo'lib ular qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi printsiplaridan iborat.

Qonunda, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilangan:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi printsipini ta'minlash.

Qonuning 26-moddasida, davlat organlari xodimlarining korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati belgilangan bo'lib, unga ko'ra Davlat organlarining xodimlari ularni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

Ushbu majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shuningdek Qonunda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari ham belgilanib, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin. Yuridik shaxslar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O'z navbatida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi (28-modda). Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Shuningdek 2018 yil 7 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konventsiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi va unda O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konventsiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shilishi belgilandi

Bundan tashqari, korruptsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "Korruptsiyaga qarshi kurash va sud huquq masalalari qo'mitasi" tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari etib, barcha qonun va qonunosti hujjatlarida korruptsiya alomatlari mavjud bo'lgan normalarni aniqlash va bartaraf etish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan 2017 - 2021 yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro'yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanishi;

o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik printsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunishi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdorligi;

Agentlik direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi direktor tomonidan boshqarilishi belgilandi.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplaens-nazorat») hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralari ko'rilishini ta'minlash;

davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaktsinasi») va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaning holati, tendentsiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "Yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unda "Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorda belgilangan tadbirlarda quyidagi ustuvor vazifalarni hayotga joriy etilishi nazarda tutildi:

-iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

-iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markirovkalash;

-iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish;

-bank xizmatlarining ommabopligini oshirish;

-«yashirin iqtisodiyot» sub'ektlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish;

-tashqi savdoda «yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo'yicha samarali tizimni joriy etish;

-«yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo'yicha keng targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid **davlat dasturida**, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organini tashkil etish, faoliyatining huquqiy asoslarini, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organining vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilash;

Shuningdek, Yashirin iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va ushbu loyihalarda:

xorijiy mutaxassislar ishtirokida «yashirin iqtisodiyot»ning vujudga kelish omillarini tahlil qilish va unga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqish;

yakka tartibdagi tadbirkorlar noqonuniy faoliyatini qisqartirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

internet-savdo (elektron tijorat) sohasidagi sub'ektlarni aniqlash tartibini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashni hisobga olgan holda soliqqa tortish mexanizmini ishlab chiqish;

«E-ombor» tovarlarni hisobga olishning elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etish, import qilinadigan tovarlar bo'yicha elektron shaklda hisobotlarni tayyorlashni ta'minlash;

import qilingan oziq-ovqatlar, ma'danli va gazlangan suvlar, tarkibida alkogol bo'lmagan boshqa ichimliklarni majburiy markirovka qilishni bosqichma-bosqich joriy etish;

coliq organlarida markirovka qilish majburiy bo'lgan tovarlarni hisobga olishning elektron bazasini yaratish;

o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning faoliyatini tartibga solishni yanada takomillashtirish, ularni soliqqa tortish, ish stajini hisobga olish va faoliyat yuritish tartibini soddalashtirish;

savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sub'ektlari tomonidan ishlatilayotgan turli dasturiy mahsulotlarni Davlat soliq qo'mitasining Ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga integratsiya qilish;

bankomatlar orqali naqd pul mablag'ini bank plastik kartalari yoki bank hisob raqamlariga o'tkazish imkoniyatini yaratish;

mazkur karta va hisob-raqamlar egalariga amalga oshirilgan operatsiya qiymatining ma'lum miqdorida bonuslar taqdim etish tartibini joriy etish nazarda tutilishi belgilandi.

4. Soliq sohasida yashirin iqtisodiyotning oldini olish yo'llari.

Ma'lumki, soliq sohasida huquqbuzarlik sodir etishga qasd - real xo'jalik faoliyatiga taqlid qilib, buzilgan, sun'iy, yolg'on shartnomaviy munosabatlarni tuzishga qaratilgan harakatlar majmui hisoblandi. Soliq huquqbuzarligi, uni sodir etgan shaxs o'z harakatlarining noqonuniy xususiyatidan xabardor bo'lgan, bunday

harakatlar (harakatsizlik)ning zararli oqibatlarini sodir etilishini bilgan yoki ataylab yo'l qo'ygan bo'lsa, qasddan sodir etilgan hisoblanadi.

Bunday holatlarning qasdan sodir etilganligini aniqlash uchun bevosita dalillar bo'lishi lozim va bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- guvohlarning ko'rsatmasi;

- shaxsning haqiqiy niyatlarini ochib beruvchi musodara qilingan hujjatlarning mavjudligi va ularni amalga oshirish ("qora buxgalteriya hisobi" ning yozuvlari, hujjatlari yoki fayllari);

- video va audio yozuvlar;

- telefon va boshqa suhbatlarni tinglash natijalari.

Lekin bunday niyatni bevosita dalillarsiz isbotlash juda qiyin.

1. Soxta operatsiyalar (soliqlarni optimallashtirish sxemalari orqali bir kunlik firmalarni aniqlash).

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning klassik sxemasi – sotib olingan tovarlar yoki xizmatlar qiymatini oshirish maqsadida - xarajatlar qismini oshirib ko'rsatish yoki daromad qismini yashirish maqsadida, ya'ni tovarlar past narxlarda sotilishini kamrab olish va uning kontragentlari noqonuniy soliq engilliklarni, ya'ni soliqlarni kam to'lagan holda o'z manfaati uchun ko'proq daromad olishga qaratilgan soxta hujjat oqimini yaratganligini isbotlashi kerak.

Buning uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlashda soliq organlari **soxta bitimlarni** isbotlashlari lozim. Bunda:

a) koxona raxbarlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ijrosi va qabul qilish uchun mas'ul shaxslarni, shuningdek soliq to'lovchi tashkilotning buxgalterlari va uning pudratchilarini shubhali shartnoma tuzish va ijro holatlarni haqida surishtirish;

b) shubhali moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni, shu jumladan ixtiyoriy hujjatlarni (yozishmalar, arizalar, yig'ilish bayonnomalari, ombor daftarlari, kirish va chiqish jurnallari, o'tish qaydnomalari va boshqalarni) tahlil qilish.

v) hujjatlarni tahlil qilish va nomuvofiqliklarni topish uchun ma'lumotlarni taqqoslash, masalan: shartnomada (yoki uning ilovalarida) tovarlar donabay miqdor birligida berilib, hisobvaraqa-faktura va fakturalarda esa-tonnada ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek, zarur bo'lsa, qo'l yozuvini ekspertizasini amalga oshirishni tayinlashi mumkin, asosiy buxgalteriya hujjatlar haqiqiylikini tekshirish;

g) soliq to'lovchining kontragentlari orasida xavf guruhiga mansub tashkilotlar (bir kunlik firmalar, affillangan tashkilotlar) aniqlansa, ular ushbu tashkilotlarni soliq to'lovchining mansabdor shaxslari bilan bog'lashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

d) xorijiy hamkorlar mansubligi isbot qilingan taqdirda, O'zbekistonda xorijiy kompaniyalar manfaatlarini ifodalovchi shaxslar haqida ma'lumotlarni tekshirish, soxta yoki yo'q nomzod direktorlar borligini aniqlash va bankdan xorijiy hamkorlar

operatsiyalari haqida ma'lumotni talab qilishlari lozim. Barcha sxema yakuniy benefitsiar va bitimlarning haqiqiy maqsadini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

e) bir kunlik firmalarning muhrlari, affillangan tashkilotlar blankalari, fleshdisklar, serverlar, jetonlar, rotokin va boshqalarni qidirishda binolarni (ofislarni) ko'zdan kechirishni amalga oshirish;

j) bir kontragentning (bitta xodim) o'z shartnomani bajarish mumkin emasligini hisobga olib tovarlar xarakatini o'rganish (tovarlar etkazib berish uchun) va mahsulot ishlab chiqaruvchini, haqiqiy provayder yoki xizmat ko'rsatuvchi pudratchini aniqlash, ombor bor yo'qligini aniqlash, va tovarlar harakatini ham haqiqiy holatini va ham buxgalteriya hisobotini tahlil qilish;

z) mahsulot ishlab chiqaruvchilarning etkazib berish hajmi va haqiqiy ishlab chiqarish quvvatini tahlil qilish lozim bo'ladi.

2. Maxsus rejimni qo'llash maqsadida biznesni ajratish (droblenie).

Yuqori moliyaviy natijalarga erishi uchun qonun tadbirkorlar tomonidan biznesni ajratishni, bo'linishini taqiqlamaydi – lekin, soliq organlari biznesni bo'lishda, ajratishda biror bir g'ayirli niyat borligini isbotlashlari lozim.

Buning uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash kerak:

- korxonalar alohida-alohida bo'lgandan so'ng bir xil turdagi faoliyatni amalga oshiradi, bir xil yuridik manzilda joylashgan, bir xil binolardan, xodimlardan foydalanadi, yagona moddiy-texnik bazaga ega, bir xil mijozlar, yagona ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan yagona kompleksdan iborat bo'lishi;

- bir kishi tomonidan soliq va buxgalteriya hisobotlarini yuritish, bir mijozga xizmat ko'rsatish;

- tashkilotlar xodimlari o'z ish vazifalariga muvofiq bir xil ishni bajarish, xodimlar bir xil logotipli kiyimlarda bo'lishi mumkin;

- korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq buxgalteriya hujjatlari va hujjatlarini birgalikda saqlaydilar va yagona IP-manzildan foydalanadilar;

- bir xil banklarda bir xil shaxslar tomonidan ochilgan kompaniyalarning joriy hisobvaraqlari;

- inventarizatsiyani boshqarish uchun yagona ta'minot menejeri javobgarligi;

- o'zaro bog'liq shaxslar guruhi korxonalaridan birida olingan daromad "soddalashtirilgan" chegaraga yaqinlashsa, mijozlar bilan shartnomalar bekor qilinadi yoki shu shartlar asosida boshqa bir-biriga bog'liq korxonalar bilan qo'shimcha shartnomalar tuziladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning bunday sxemasini aniqlash uchun soliq organlari kompaniyaga tekshirish bilan kelishlari kifoya.

3. Imtiyozli soliq stavkalarini qo'llash.

Soliq to'lovchi daromadlarni soliq to'lashdan yashirish uchun bino va uskunalarni 0% miqdorida daromad solig'i to'laydigan maxsus iqtisodiy zona (MIZ)ning rezident-kompaniyasiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, soliq to'lovchi MIZ rezidentidan xuddi shu

aktivlarni ijaraga oladi. Natijada, soliq to'lovchi daromad solig'ini kamaytiradigan xarajatlarga ega va rezident-benefitsiar soliq to'lamaydigan daromadga ega.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash uchun soliq organlari ijara narxini tahlil qilib, yuqoriligi aniqlansa, bilingki bu erda daromadlarni yashirish holati hosil bo'ladi. Qolaversa, kompaniyalarning o'zaro bog'liqligi va harakatlar izchilligini isbotlash mumkin bo'ladi.

4. Shartnomalarni almashtirish.

Amaliyotda ko'pincha oldi-sotdi shartnomasining o'rnini almashtirish mavjud bo'lib, u sharoitga qarab komission bitim sifatida, lizing shartnomasi sifatida yoki ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish shartnomasi sifatida taqdim etiladi. Avans bo'yicha QQSni oldini olish maqsadida kompaniyalar kredit shartnomasini tuzadilar, tovarlar jo'natilgandan so'ng esa qarz mablag'lari to'lov hisobiga olinadi. Yoki kontragent bilan komissiya shartnomalarini tuzadilar, garchi ular aslida tovarlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirsalar ham.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemasi belgilari:

Komissiya shartnomasi. Kommitent komissiya agenti tomonidan tovarning yakuniy sotilishiga qadar QQS va daromad solig'ini to'lamaydi. Bu vaziyatda soliq, birlamchi hujjatlar va bitim shartlari tahlil: komissiya agenti (agent) hisoboti, pul o'tkazish sanasi, shartnoma shartlarini o'zgartirish, muayyan muddatdan kechiktirmay to'lash haqida sharti, qat'i nazar, uning amalga oshirish qismlarida tovarlar uchun to'lov o'tkazish sharti. Vositachilik shartnomalari bo'yicha komissiya agenti hisoboti (yoki agentning Agentlik shartnomasi bo'yicha hisoboti) tuzilishi kerak.

Komissiya shartnomasi Kommitentning zimmasida bajarilishi kerak. Agar joriy hisob-kitoblar bo'yicha pul oqimlarini tahlil qilish chog'ida soliq organlari mol-mulkni sotishdan oldin pul mablag'larining o'tkazmasini topsalar, ular shartnoma vositachilik munosabatlarining huquqiy xususiyatiga zid bo'lgan komissiya agenti hisobiga bajariladi, degan xulosaga keladilar. Tovar to'lash shartining shartnomada ma'lum muddatdan kechiktirmay bo'lishi ham vositachilik bitimi tushunchasiga zid keladi.

Lizing shartnomasi. Moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo'yicha lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan belgilangan mol-mulkka egalik huquqini o'zi belgilagan sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga bu mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Oldi-sotdi shartnomalari lizing shartnomalari bilan almashtirilgan hollarda, to'lov aslida uzilishlarda amalga oshiriladi va lizing to'lovlari sifatida belgilanadi.

Lizing shartnomasining asosiy foydasi shundan iboratki, uning qo'llanilishi soliq to'lovchiga tezashtirilgan amortizatsiyadan foydalanish imkonini beradi, ya'ni asosiy vositalar qiymati daromad solig'i xarajatlari sifatida uch barobar tezroq hisobdan chiqariladi.

Ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish bo'yicha kelishuv. Ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish QQS bilan bog'liq emas. Shuning uchun, QQS to'lash oldini olish

uchun, soliq to'lovchilar ba'zan ustav kapitalida bir ulushini sotish kabi ko'chmas mulk yoki uskunalar sotish ro'yxatdan. Masalan, "sotuvchi" xaridor bilan mol sotishga rozi bo'ladi. Buning uchun, minimal ustav kapitali bilan MChJ yaratadi, va keyin kredit shartnomasi orqali uning ustav kapitaliga katta hissa qo'shadi. Bu qarz puli bilan yangi tashkil etilgan MChJ nazorat ostida soliq to'lovchi – "sotuvchi"dan ko'chmas mulk ob'ektini sotib oladi. Shundan so'ng xaridor ushbu MChJda ulushga ega bo'ladi. Bunday holda ulushni sotib olish bo'yicha bitim ko'chmas mulkni sotib olish va sotish bo'yicha bitimni qamrab oladi.

3-mavzu. Mamlakat tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining ahamiyatini oshirish masalalari.

R E J A

1. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

2. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni tartibga solishdagi asosiy o'zgarishlar.

3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosati bo'yicha resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

1. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va tabiiy resurslarning cheklanganligi, ular ko'pchiligining qayta tiklanmasligi mavjud tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish evaziga jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga erishish zaruratini taqozo etadi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni to'liqroq qondirishda va respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biri shubhasiz, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida tabiiy resurslardan, jumladan er, suv, er osti boyliklaridan samarali va oqilona foydalanishning naqadar ahamiyatli ekanligi ko'p bora ta'kidlab o'tilishi, respublikamizda tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishning zarurligi davlat siyosati darajasi sifatida qaralishining yorqin ifodasidir. "Afsuski, keyingi paytlargacha bizda er osti boyliklari, er, suv va qayta tiklanmaydigan boshqa tabiiy resurslardan soliq undirish tamomila tan olinmay kelinardi. Bunda korxonalariga tabiatdan foydalanish va atrof muhitni ekologik jihatdan muhofaza qilish qonunlari bilan hisoblashmasdan bebaho, o'rni to'ldirilmaydigan tabiiy boyliklardan vahshiyona foydalanish imkoni berilar ediki, bu bilan biz o'zimizning haqimizga ham, avlodlarimizning haqiga ham xiyonat qilib kelardik"³.

Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda amalga oshirilgan soliq tizimidagi islohotlarda resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim iqtisodiy mexanizmi bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar joriy

³ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 360-361-бетлар.

etilishiga qaratildi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning muhim ko'rinishi, ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy etilgan soliqlardir. Bunday soliqlar mohiyatiga ko'ra tabiiy resurs soliqlari sifatida e'tirof etilib, mamlakatimiz soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirishda ularga katta e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi muhim ustuvor vazifalardan biri shubhasiz, soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. «Bu o'rinda asosiy yuk tabiiy, mineral xom-ashyo, er-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishi lozim»⁴. Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga keng e'tibor berilishining naqadar aqamiyatli ekanligini mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yuqorida qayd etilgan fikrlaridan ham ko'rish mumkin.

Shu ma'noda respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish, ularning ahamiyatini oshirish masalalariga doir xulosalarni asoslash, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ilmiy jihatdan asoslash o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatning tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq siyosati ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar joriy etish;
- imtiyozli soliqqa tortish va soliqdan ozod qilish.

Mamlakatimiz soliq tizimida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga: er solig'i, er osti boylıklaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi.

Joriy etilgan maxsus soliqlar orqali tabiiy resurslardan foydalanish muayyan darajada tartibga solinsa, imtiyozli soliqqa tortish orqali esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiatni muhofaza qilish tadbirlari rag'batlantiriladi. Shuningdek, ayrim tabiiy resurslardan me'yorida ortiq foydalanganlik uchun iqtisodiy jazo choralari ham belgilangan.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq soliqlarning joriy etilishi fiskal ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda, resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda tabiiy resurslarga boy o'lkamizda ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus to'lovlarning maqbul tizimining joriy etilishi, bir tomondan tabiiy resurslarni davrlar bo'yicha teng taqsimlagan holda ulardan samarali va oqilona foydalanish zarurati bilan

⁴ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Президент Ислом Каримовнинг Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. //Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.

ifodalansa, ikkinchi tomondan esa, tabiiy resurslarni qayta tiklash va sifat holatini yaxshilash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning umumiy mohiyati bevosita soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi moliyaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat byudjetiga resurslar jalb etish, yuridik va jismoniy shaxslar iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Soliqlar yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Ularning manbai milliy daromad hisoblanib, ishlab chiqarish omillari, ya'ni mehnat, kapital va tabiiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etish jarayonida yangidan yaratilgan qiymatdan undiriladi. Soliqlar davlat tomonidan o'zlashtirilib, uning mulkiga aylanadi va davlat tomonidan o'z funktsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladi.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashda mamlakat soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ko'plab mamlakatlar tajribasi o'zining muayyan ekologik samaradorligini ko'rsatayotganligini hisobga olgan holda, tabiiy resurs soliqlari bajaradigan vazifalar borasida ham turli fikrlar mavjudligini e'tirof etish lozim. Xususan, tabiiy resurs soliqlari ekologik soliqlar sifatida, amal qilish jarayonida ikki vazifani:

birinchidan, tabiiy resurslar bahosiga ta'sir etish orqali, ulardan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish;

ikkinchidan, jamiyatga etkazilgan ekologik zararlar butun jamiyat hisobidan emas, balki jamiyatga zarar etkazuvchilar tomonidan kompensatsiya qilinishi lozimligi ta'kidlanadi⁵.

Ushbu fikrlardan ko'rishimiz mumkinki, bu erda tabiiy resurs soliqlari bajarishi lozim bo'lgan vazifalarga odilona, bozor qonun-qoidalari asosida yondashilib, ularning tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish vazifasi va fiskal vazifasi e'tirof etilgan.

Qayd etganimizdek, tabiiy resurs soliqlarini joriy etishdan asosiy maqsad, ulardan samarali va oqilona foydalanishni tartibga solish va rag'batlantirishdan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishda davlat tomonidan belgilanadigan iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliq mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan soliqlarning joriy etilishi natijasida tovar bahosiga, ya'ni uning taklifiga ta'sir ko'rsatilib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iloji boricha tabiiy resurslardan intensiv tarzda, samarali va

⁵ Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. Учебное пособие. –М.: ТЕИС, 1997. 206 стр.

oqilona foydalanish evaziga o'zi ishlab chiqargan tovarga talab va taklif muvozanatini saqlashga bo'lgan moyilligini kuchaytiradi.

Shu o'rinda quyidagi fikrlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: "Resurslar cheklanganligidan jamiyat o'z ehtiyojini qondirish uchun mehnat unumdorligini oshirish yo'lidan boradi. Resurslar kamyob bo'lar ekan, ularni tobora ko'proq ishlatish orqali ehtiyojlarni to'la qondirib bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat resurslarni tejab ishlatish yo'liga o'tadi, resurs birligidan ko'proq mahsulot oladi, bunda ham moddiy ham mehnat resurslaridan tejaladi"⁶.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ham ko'rishimiz mumkinki, jamiyatda resurslar cheklangan ekan, cheksiz ehtiyojlarni qondirishning birdan-bir vositasi ulardan intensiv tarzda, tejamkorlik bilan foydalanishni talab etadi.

Soliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim. Aks holda soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat manfaatlarining uyg'unlashishiga emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omilga aylanishi mumkin.

Shuningdek, bu esa o'z navbatida davlatning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini to'liq bajarishiga imkon bermaydi. Natijada har ikki tomon manfaatlari ham qanoatlanmaydi. Shuning uchun boshqa tizimlar kabi soliq tizimi ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mutanosib holda takomillashib borishi va bu jarayonda uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-son farmoni er uchastkalari va mol-mulknini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, er va suv resurslari, er qa'ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish maqsadida qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2021 yil 1 yanvardan boshlab:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilash;

⁶ Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. –Т.: Меҳнат, 1995. 44-45 бетлар.

tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi beriladigan bo'ldi.

Shuningdek, 2021 yilda soliq yukining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida:

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi belgilandi.

Bundan tashqari, farmon bilan, 2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari ma'qullandi:

dehqon xo'jaliklari va meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalariga er solig'ini hisoblashda er solig'i stavkasini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar uchun o'rnatilganidek belgilagan holda, joylashgan joy va etishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekin turlari koeffitsientlari hamda qishloq xo'jaligi ekinzorlari normativ qiymatidan kelib chiqib hisoblash tartibini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan erlarga soliq solish tartibini birxillashtirish;

barcha turdagi chiqindilarni saqlash va ularni utilizatsiya qilish uchun ajratilgan er uchastkalarini yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i uchun soliq solish ob'ektidan chiqarish;

tegishli suvni hisoblash hisoblagichlari mavjud bo'lganda, ishlab chiqarish jarayonida agregatlarni (turbinalarni) sovutish uchun suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliqqa tortish bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib tashlangan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib hisoblash;

kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 2020 yil darajasida saqlab qolish, qishloq xo'jalik erlarini sug'orish va baliqlarni ko'paytirish (etishtirish) uchun foydalanilgan suv hajmi qismida esa, shu jumladan dehqon xo'jaliklariga 1 kub metr uchun 40 so'm miqdorida yagona soliq stavkasini belgilash;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda turli maqsadlarda foydalaniladigan suv resurslari hajmining hisobini alohida-alohida yuritish tartibini kiritish;

er qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan soliq organlariga foydali qazilmalar zaxirasi harakati to'g'risidagi hisobotni er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha yillik soliq hisobotini taqdim etish bilan bir vaqtda, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda taqdim etish tartibini belgilash.

Soliq yukini kamaytirish maqsadida, 2021 yil 1 yanvardan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududlaridan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan «Xavfsiz daryo» davlat unitar korxonasi daryo o'zanlarini tozalash natijasida olingan qum-shag'al materiallarining har bir kub metri uchun to'lov miqdori shartnoma tuzilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizidan 0,1 foiziga tushirilishi;

noruda foydali qazilmalari konlarini o'zlashtirish va ularning samarali qazib olinishini ta'minlash maqsadida noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan er qa'ri uchastkalaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish belgilandi.

Bulardan tashqari, farmon bilan foydali qazilmalarni haqiqiy qazib olishga nisbatan qo'llaniladigan va foydali qazilmalarni me'yordan ortiq yo'qotish to'g'risidagi geologik-marksheyderlik ma'lumotlarining haqqoniyligini nazorat qilish uchun Davlat soliq qo'mitasiga zarur uskunalarni xarid qilgan holda viloyatlar soliq boshqarmalarining shtat birliklari doirasida 3 shtat birligigacha marksheyderlarni jalb qilish;

davlat soliq xizmati organlariga vakolatli organ va sudlarga er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan soliq qonunchiligi muntazam ravishda buzilgan va (yoki) foydali qazilmalar zaxirasi harakati to'g'risidagi hisobot taqdim etilmagan taqdirda litsenziyani chaqirib olish yoki to'xtatib turish masalasi bo'yicha tashabbus bilan chiqish vakolati berildi.

Farmonda belgilangan muhim yangiliklardan yana biri, mol-mulk va er soliqlarini ko'chmas mulk (bino, inshoot va er uchastkalari) ob'ektlarining bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etilishining belgilanganligidir.

Unga muvofiq, ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk va er soliqlarini hisoblash tizimi quyidagi ikki bosqichda joriy etish:

birinchi bosqichda (2021 — 2023 yillar) — ko'chmas mulk bo'lgan turar-joy fondi ob'ektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu ob'ektlar egallagan er uchastkalariga nisbatan;

ikkinchi bosqichda (2022 — 2024 yillar) — yashash uchun mo'ljallanmagan alohida ko'chmas mulk ob'ektlari, shuningdek, ushbu ob'ektlar egallagan er uchastkalariga nisbatan.

Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamas, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitaga, zarurat tug'ilganda xorijiy ekspertlarning xizmatiga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan haq to'lagan holda ularni jalb qilish orqali;

- ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish va kadastr tizimini modernizatsiya qilish uchun Jahon bankidan imtiyozli kreditlar jalb qilishni;

-2021 yil 1 aprelga qadar xalqaro moliya institutlari ekspertlari bilan birgalikda ko'chmas mulk ob'ektlariga soliq solishni yanada takomillashtirish bo'yicha er solig'i va mol-mulk solig'ini o'rniga ko'chmas mulk solig'ini kiritishni nazarda tutuvchi «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- ko'chmas mulk ob'ektining (bino, inshoot va er uchastkalari) yuridik yoki jismoniy shaxs egaligida bo'lishi emas, balki ularning kadastr qiymatidan va ob'ektning foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda soliq solish tartibi bixillashtirilishi va er solig'i bo'yicha advalor stavkalarni kiritishni;

shu bilan birga belgilangan tartibda quyidagi loyihalar kiritilishini:

2021 yil 1 avgustga qadar - kadastr qiymatini maksimal darajada bozor bahosiga yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratgan holda, turar joy fondi ko'chmas mulki ob'ektlarining kadastr qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurish va uy-joyga xizmat ko'rsatish ob'ektlari bilan band bo'lgan er uchastkalarining kadastr (bozor) qiymatini aniqlash tartibini kiritish bo'yicha;

2021 yil 1 noyabrga qadar — yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari va ushbu ob'ektlar bilan band bo'lgan er uchastkalarining bozor bahosiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan kadastr qiymatini aniqlash mexanizmini kiritish to'g'risida hukumat qarori loyihalarini tayyorlash;

2021 yil 1 dekabrga qadar - foydalanishga ruxsat etilgan er uchastkalari turlari klassifikatorlari va ularga bo'lgan huquqlarni tugatish uchun asoslarni nazarda tutuvchi Er kodeksining yangi tahriri loyihasini;

-2021-2022 yillarda respublikaning quyidagi «tajriba-sinov» hududlarida er uchastkalaridan foydalanilishiga va kapital qurilish ob'ektlarining belgilangan maqsadiga qarab ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor qiymatiga asoslangan kadastr qiymatini aniqlash bo'yicha eksperiment o'tkazilishini:

turar va noturar (tijoriy) joylarga mo'ljallangan ko'chmas mulk ob'ektlari — Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani;

sanoat ob'ektlari — Navoiy viloyati Navoiy shahri;

rekreatsion zonalar va alohida qo'riqlanadigan hududlar ob'ektlari — Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ob'ektlar — Buxoro viloyati Romitan tumani ta'minlash belgilandi.

Buning uchun, 2021 — 2024 yillar davomida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulklarni baholashni o'tkazish uchun Davlat soliq

qo'mitasining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra Davlat byudjetidan mablag' ajratib borish Moliya vazirligiga yuklatildi.

Shu bilan birga Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga 2022 yil 1 yanvarga qadar ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatini ularning bozor bahosiga asoslangan holda aniqlash, har bir egalik qiluvchiga (foydalanuvchiga) tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratish uchun axborot tizimini takomillashtirish, ko'chmas mulk ob'ektlarini ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda sifatli baholashdan o'tkazish metodikasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, farmonda, byudjet daromadlarini barqarorlashtirish maqsadida, 2021 yil 1 iyuliga qadar ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda o'rmon xo'jaliklari, baliq ovlash xo'jaliklari, ovchilik xo'jaliklari, shuningdek, istirohat bog'larini soliqqa tortish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga yuklatildi.

Prezidentimizning mazkur farmoni bilan ayrim me'yoriy hujjatlarga jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 avgustdagi «Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4816-son qaroriga o'zgartirish kiritilib, unda baliqchilik xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan foydalanilgan suvning haqiqatda iste'mol qilingan hajmini aniqlash imkoni bo'lmaganda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi belgilangan suvni iste'mol qilish normativlarining 50 foizi miqdorida belgilashni 2020 yildan qo'llash huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi "er hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pf-6061-son farmoni bilan, er maydonlarining hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish tadbirlari belgilandi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining qishloq xo'jaligi erlari va ekinlarini monitoring qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, qishloq xo'jaligi erlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish, tuproq bonitirovkasini o'tkazish, qishloq xo'jaligi erlarining me'yoriy qiymatini aniqlash, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishga doir vazifalari, funktsiyalari hamda vakolatlari Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlarning tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida ularning monitoringini o'tkazish O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi doirasida amalga oshirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etilib, Kadastr agentligining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida:

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

davlat er kadastr, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga va er uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali er nazoratini amalga oshirish;

- geodeziya va kartografiya sohasida:

geodeziya va kartografiya sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

aerokosmik suratga olish, topografiya-geodeziya, kartografiyaga oid izlanishlar hamda tadqiqotlarni, erlarni masofadan zondlash, geodinamik tadqiqotlar ma'lumotlari va materiallaridan foydalangan holda kartografik monitoringni amalga oshirish;

davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritish;

davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;

- davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

davlat kadastrlarini yuritish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish, hududlar davlat kadastrining samarali yuritilishini ta'minlash;

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini ta'minlashga qaratilgan samarali kadastr nazoratini amalga oshirish;

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash.

Shu bilan birga, farmon bilan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning, shu jumladan er uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish va ijaraga

olish huquqining vujudga kelishi, o'zgarishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi faqat davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin kuchga kirishi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat etmaslikda aybdor shaxslarga ma'muriy javobgarlik belgilanishi;

ko'chmas mulkning turi, tavsifi, hajmi, qiymati va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida uning kadastr yig'majildi tayyorlanishi belgilandi.

Bundan tashqari Farmon bilan, zaxirada turgan va yangi ajratilayotgan er uchastkalariga kadastr yig'majildi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarda - tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limining;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlarda - tuman (shahar) qurilish bo'limining murojaatiga muvofiq tuman (shahar) hokimligining buyurtmasiga asosan tayyorlanishi hamda ushbu xarajatlar er uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida mazkur er uchastkasiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qoplanishi;

er uchastkalariga bo'lgan huquqlar mazkur Farmon kuchga kirgunga qadar vujudga kelgan, biroq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan bo'lsa, ularga kadastr yig'majildini tayyorlash hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish huquq egalarining buyurtmalariga asosan ularning mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

davlat organlari va tashkilotlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, shu jumladan o'rmon xo'jaliklari, suv xo'jaligi tashkilotlari, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, ijtimoiy muassasalarga berilgan er uchastkalariga kadastr yig'majildini tayyorlash hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish balansda saqlovchilarning buyurtmalariga asosan va ularning mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

kadastr yig'majildi Kadastr agentligi tomonidan shahodatlangan kadastr muhandislari hamda Kadastr agentligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan shartnoma asosida tayyorlanishi;

2020 yil 1 oktyabrdan boshlab, er uchastkalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi, o'zgarishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kirishi;

davlat er kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali to'plangan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi tartiblari belgilandi.

Shuningdek, Farmonda 2021 yil 1 yanvardan boshlab:

er turi, konturi, chegarasi va huquq egalari haqidagi barcha ma'lumotlar Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritilishi va onlayn geoportal Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinishi;

er balansi va uning hisoboti, tuman (shahar) er kadastrı daftari faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geoaxborot tizimida shakllantirilishi;

tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga faqat telekommunikatsiya tarmoqlari orqali to'g'ridan-to'g'ri taqdim etib borilishi belgilandi.

Bundan tashqari farmonda, er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik, er uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish hamda davlat kadastrlarini yuritish tartibini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar faqat Kadastr agentligi organlari tomonidan ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini;

ko'chmas mulk ob'ektlarining davlat kadastrı sohasida davlat xizmatlari narxlarini qayta ko'rib chiqish, shu jumladan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'imni kamaytirish bo'yicha hukumat qarori loyihasini vazirlar Mahkamasiga kiritish Kadastr agentligiga yuklatildi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab, qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymatini aniqlash va qayta baholash, tuproq bonitirovkasi va tuproq xaritalarining korrektirovkasini o'tkazish, sug'oriladigan erlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar tuzish, tuproq (er) monitoringini o'tkazish uchun Qishloq xo'jaligi vazirligiga yuklatildi.

Iqtisodiy sohadagi keng ko'lamli o'zgarishlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimini yanada takomillashtirishni ularni ajratish, ularning hisobini yuritish, nazoratini amalga oshirishning qulay imkoniyatlarini yaratadi.

3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosati bo'yicha resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda gi «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida' gi **O'RQ-659-sonli Qonuni** resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi.

1. Yer solig'i bo'yicha, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan erlar bo'yicha, shuningdek dehqon xo'jaliklari uchun soliqni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'ining bazaviy stavkasi va er uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti) ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib hisoblash tartibi

bekor qilindi va ularga qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatidan kelib chiqib to'lashga o'tkazildi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

2021 yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa – Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida **0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda, belgilangan er solig'i stavkasiga tuman deputatlar Kengashlari tomonidan **soliq yukuni keskin oshishini oldini olish maqsadida 0,7 dan 1,3 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini birinchi yillarda qo'llash maqsadga muvofiq. **Alohida joylar** va respublikaning **turistik zonalaridagi** alohida er uchastkalari, shu jumladan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan **1 gektardan ortiq** er uchastkalariga **nisbatan 3,0 gacha** oshiruvchi koeffitsient qo'llanilishi mumkin (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyuldagi PF- 6027- sonli Farmoni*).

Shuningdek, **jismoniy shaxslarning** er maydonlari uchun olinadigan **er solig'i** (yakka tartibdagi tadbirkorlar va turistik zonalarda joylashgan er uchastkalaridan tashqari) **summasi** 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3 baravaridan oshmasligi** belgilangan.

Bundan tashqari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari alohida er uchastkalariga, shuningdek turistik zonalarda joylashgan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan 1 gektardan ortiq er uchastkasiga er solig'ini 3 baravargacha miqdorda oshiruvchi stavkasini belgilash huquqiga ega.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalari joylashgan joydagi **soliq organlariga** soliq stavkalarini joriy soliq davrining **31 dekabriga qadar** taqdim etadilar.

Soliq kodeksida **yuridik shaxslar** bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan erlari uchun **bazaviy** soliq stavkasi, **respublika hududlari kesimida 1 gektar** uchun mutlaq miqdori quyidagicha belgilandi:

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so'mda
Toshkent shahri:	
1 zona	208,2
2 zona	166,5
3 zona	124,9
4 zona	83,3
5 zona	41,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,2
Andijon viloyati	33,0
Buxoro viloyati	26,7
Jizzax viloyati	26,7
Qashqadaryo viloyati	26,7
Navoiy viloyati	26,7
Namangan viloyati	33,0
Samarqand viloyati	33,0
Surxondaryo viloyati	23,5
Sirdaryo viloyati	20,8
Toshkent viloyati	27,6
Farg'ona viloyati	26,7
Xorazm viloyati	26,7

Soliq kodeksida **jismoniy shaxslar** bo'yicha **respublika hududlari kesimida** bazaviy soliq stavkalari **mutloq miqdorda 1 kv.m.** uchun, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan erlardan tashqari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Respublika hududlari	1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi, so'mda
-----------------------------	---

Toshkent shahri:	
1 zona	1193,6
2 zona	1013,2
3 zona	832,6
4 zona	652,3
5 zona	471,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	245,0
Andijon viloyati	297,6
Buxoro viloyati	245,0
Jizzax viloyati	245,0
Qashqadaryo viloyati	245,0
Navoiy viloyati	245,0
Namangan viloyati	297,6
Samarqand viloyati	297,6
Surxondaryo viloyati	221,6
Sirdaryo viloyati	191,8
Toshkent viloyati	252,2
Farg'ona viloyati	245,0
Xorazm viloyati	245,0

Yuridik shaxslar uchun quyidagilar egallagan er qismi bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi:

turistik zonalarda joylashgan, sanatoriy-kurort ob'ektlari;

onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga turistik zonalarda alohida sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun er solig'ining kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki er solig'ini to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni joriy etish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni kiritish hisobiga kengaytirilmoqda. 2021 yilning 1 yanvarigacha faqatgina tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanayotgan soliq to'lovchilar soliq imtiyozidan foydalanishi mumkin edi.

2021 yilning 1 yanvaridan boshlab boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish (yomg'irlatib, diskret va boshqa (shu jumladan tomchilatib) texnologiyalarini joriy etilgan erlar – suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan e'tiboran besh yil muddatga er solig'ini to'lashdan ozod etilmoqda. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organining xulosasi asosida beriladi.

Agarda, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi.

Qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali ta'sir ko'rsatish choralari nazarda tutilishi mumkin bo'lgan va soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan ob'ektlar jumlasiga samarali foydalanilmayotgan, baliq ko'paytirish (etishtirish) uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzalarini kiritish bilan er uchastkalarini ro'yxati kengaytirilmoqda. Bu er uchastkalariga er solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilmaydi.

2. Mol mulk solig'i bo'yicha, Soliq kodeksining 415-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan ob'ektlarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkasini 0,2 dan 0,4 foizga oshirildi.

Jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari 1,15 baravariga indeksatsiya qilindi. Bunda, 2021 yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq summasi, 2020 yilda hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko'p oshirilmasligi belgilandi.

Turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki ushbu soliqlarni to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Ko'p kvartirali uylariga bevosita uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarining mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ektiga kiritildi. Bunday ob'ekt soliq bazasiga nisbatan 0,23 foiz miqdoridagi soliq stavkasida soliqqa tortilishi belgilandi

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha, Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda.

Bunda, soliq stavkalari kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun 2020 yil darajasida saqlab qolindi. qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub.m. uchun 40 so'm miqdorida belgilandi.

Belgilangan limitlar doirasida er usti va er osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	1 kub metr uchun soliq stavkasi, so'mda:	
		er usti suv resurslari manbalari	er osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2–6-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2.	Sanoat korxonalarini	472	564
3.	Elektr stantsiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	70	90
4.	qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5.	avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1 990	1 990
6.	pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	25 185	25 185

Qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish va baliq etishtirish (o'stirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklarida suv o'lchash uskunalari mavjud bo'lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsientni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Soliq kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari soliq solish ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklarida suvdan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o'zgartirilmoqda. Xususan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili:

joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun;

dehqon xo'jaliklari bo'yicha soliqni hisoblash uchun - soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to'g'risida ma'lumot taqdim etishi belgilandi.

Sun'iy suv havzalarida baliq etishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv ob'ektlaridan olingan va ushbu suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv xajmi mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq solish ob'ekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari shart va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lash tartibi kiritilmoqda.

4. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Quyidagi foydali qazilmalar uchun 5 foiz miqdorida, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda yagona soliq stavkasi belgilanmoqda:

qurilish qumlari (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 8 500 so'm bo'lgan);

qum-shag'al aralashmasi (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'm bo'lgan);

qumtoshlar (5 foiz), qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan);

qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan).

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda	
	2020 yilda	2021 yilda
Qurilish qumlari	5%, biroq 8 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qum-shag'al aralashmasi	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qumtoshlar	5 foiz	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan

*Masalan: Toshkent viloyati Chinoz tumanida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonasi tomonidan 2020 yilda 40 154 kub.metr **“Qurilish qumlari”** qazib olgan va 8 500 so'm soliq stavkasida 341,3 mln.so'm soliq to'lagan bo'lsa, 2021 yilda ham shu miqdorda **“Qurilish qumlari”** qazib olganda, soliq stavkalarini unifikatsiya qilinishi natijasida (soliq stavkasi 7 500 so'm) 301,2 mln.so'm soliq to'laydi yoki 40,1 mln.so'm kam soliq to'laydi.*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin, kumush, palladiy va mis bo'yicha soliq stavkasi 15 foiz miqdorda belgilandi.

Boshqa foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkalari 2020 yil darajasida saqlab qolindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi «2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-6155-

son farmoni bilan tasdiqlangan DAVLAT DASTURI'ning 3.3. bo'limi "**Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish**" deb nomlanib unda resurs solqlari ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar belgilandi

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash ma'murchiligini takomillashtirish;

Mazkur yo'nalishda, mahsulotlarni noqonuniy olib kirish, ishlab chiqarish va sotish holatlarining oldini olish;

alohida turdagi mahsulotlarning qonuniy aylanmasini ta'minlash mexanizmini tubdan takomillashtirish;

ishlab chiqarish hajmini, omborlardagi qoldiqlarni va mahsulot real vaqt rejimida jo'natilishini nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish;

tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha yagona tasniflash tizimini joriy etish.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxonalar va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to'g'risida amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

1-amaliy mashg'ulot:

2020 yil byudjet soliq siyosatidagi o'zgarishlarning natijadorligi va 2021 yil soliq siyosatidagi o'zgarishlarning mohiyati

Reja

1. 2021 yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.
3. 2021 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning mohiyati.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, investitsiya faoliyati, soliq imtiyozlari, soliq siyosatini huquqiy asoslari, davlat soliq siyosati, iqtisodiy samaradorlik, davlat byudjeti, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, davlat byudjeti daromadlari, Davlat byudjeti xarajatlari

1. 2021 yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston solik ma'muriyatchiligini takomillashtirish, solik yukini kamaytirish va solikka tortish tizimini soddalashtirish bilan bog'liq asosiy chora-tadbirlar mamlakatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi"da belgilandi. Unga muvofiq, mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishda quyidagilar ustuvor yo'nalishlar qilib belgilandi.

- solik konunchiligini maksimal darajada soddalashtirish, qonun hujjatlardagi karama-qarshiliklar va to'qnashuvlarni bartaraf etish, halol soliq to'lovchilar hukuqlari va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksining me'yoriy hujjatlarining bevosita ta'sirini belgilash, soliqqa tortish masalalarini belgilovchi barcha me'yoriy-huquqiy

hujjatlarni bekor qilish, shuningdek solik qonunchiligidagi har kandy o'zgarishning faqat keyingi yildan boshlab kuchga kirishi ko'zda tutilgan normalarni belgilash;

- tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yukini kamaytirish, yirik va kichik biznes o'rtasida soliq yuki darajasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish;

- kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini ularning faoliyati kengaytirilishiga to'sqinlik qiluvchi, biznesining parchalanishi va ishchilarining haqiqiy sonini yashirishga olib keluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida tubdan isloh qilish;

- huquqiy kafolatlarini kuchaytirish va alohida soliq va bojxona imtiyozlarining qat'iy taqiklanishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy qilish, qulay raqobat muhitini ta'minlash;

- o'xshash soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan soliklarni birlashtirish va birhallashtirish orqali soliqlar hajmlarini optimallashtirish, shuningdek solik hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion harajatlarni minimallashtirish;

- solik to'lovchilar tomonidan soliklar va boshka majburiy to'lovlarni ihtiyoriy ravishda to'lashni rahbatlantiruvchi mexanizmlarni yaratish va joriy qilish va shu orkali hufiyona oborotini kiskartirish. soliq va boshka majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish kabi omillarni oldini olish;

- soliq nazorati shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy ahborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq kamrab oladigan, va eng avvalo, davlat organlari o'rtasida o'zaro ta'sir va ma'lumot almashishni kuchaytirish, yirik ma'lumotlarni ishlash texnologiyalarini takomillashtirish hisobiga amalga oshirish;

- soliqqa tortish masalalari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolarning savodxonligini oshirish, keng tushuntirish ishlarini olib borish va qonunchilikni targ'ibot qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- o'rta muddatli soliq rejalashtirishga o'tish, solik qonunchiligi barkarorligi kafolatlarini kuchaytirish va respublikamizning invsstitcion jozibadorligini yuksaltirish.

Ta'kidlash joizki, kontseptsiyada belgilangan ham bir tabdir o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ijrosini ta'minlash ta'minlash yuzasidan soliq qonunchiligiga kiritiladigan har bir o'zgartirish tub ma'noda mamlakatimiz soliq siyosatidagi islohotlar mazmunini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi va «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonunlari O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatimizning 2020 yilgi asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Unga muvofiq, xalqaro talablarga javob beradigan soliq ma'murchiligining barqaror soliq tizimi joriy etildi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin faoliyatini kafolatlovchi huquqiy me'yorlar belgilandi, solik konunchiligini maksimal darajada soddalashtirildi, soliq yukini kamaytirildi, soliqlar hajmi optimallashtirildi, solik hisobotlari qisqartirib, maksimal darajadi soddalashtirilib, operatsion harajatlar minimallashtirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-sonli Qonuni bilan 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solinib, joriy (2020) yilda byudjet jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi byudjet vakolatlari taqsimlandi.

Mazkur qonunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larni tasdiqlash;

respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlarini tasdiqlash va respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tegishli ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari, Toshkent shahri shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarining prognozini ma'qullash va tumanlar va shaharlar byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar qabul qilish:

O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunining muhim jihatlaridan yana biri 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti parametrlaridamda 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2021-2022 yillarga maqsadli mo'ljallari qonun bilan belgilandi.

Unga muvofiq, 2020 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2019 yilga nisbatan 5,5 foizni tashkil etishi.

O'z navbatida, keyingi 2021 yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2020 yilga nisbatan 5,8 foizni va 2022 yil uchun yalpi ichki mahsulot hajmi 653 546 mlrd.so'm qilib belgilanib, uning o'sish surati 2021 yilga nisbatan 6,2 foizni tashkil etishi belgilangan.

2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari tahlilqilinganda joriy yil uchun Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 158 960,1 mlrd. so'mni, xarajatlari esa 162 385,0 mlrd.so'mni tashkil etadi va Konsolidatsiyalashgan byudjet defitsiti 3 424,9 mlrd.so'mni tashkil etishi belgilangan.

Lekin 2020 yilda butun dunyoni larzaga keltirgan tojdor virus infeksiyasining tarqalishi barcha mamlakatlar iqtisodiy ijtimoiy hayotini inqiroz holatiga keltirib qo'ydi. Xususan, yirik iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishiga, xalqaro moliya bozorlarida xom ashyo tovarlar narxlarining keskin pasayishi va kon'yunkturaning yomonlashuviga sabab bo'ldi

Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar, ko'rilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning keskin tushib ketishi oldi olindi. 2020 yilda Respublikamiz iqtisodiyoti 2019 yilga nisbatan 1,6 foizga o'sib, YaIM xajmi 580,2 trln. so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining Oliy Majlis Senatining ettinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2020 yilda Davlat byudjeti daromadlari 132,9 trln. so'mni tashkil etib, belgilangan 128,7 trln. so'm prognoz 103,3 foizga yoki 4 192 mlrd so'mga oshirib bajarilib, daromadlar 2019 yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda 20,8 trln. so'mga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmoniga asosan tashkil etilgan Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 sentyabrdagi PQ-4836-sonli qaroriga asosan, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz oqibatlarini inobatga olgan holda qayta hisob-kitob qilinib, jamg'arma xarajatlari 13,4 trln. so'm miqdorida belgilangan va 2020 yilda jamg'arma mablag'lari hisobidan jami 12 827 mlrd. so'm moliyalashtirish ishlari amalga oshirilgan. shundan:

I. Koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga - 3 962 mlrd. so'm ajratilib, ushbu mablag'lar dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan ta'minlash hamda karantinda saqlash, tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralarini amalga oshirish xarajatlariga yo'naltirilgan.

II. Karantin zonalarini va koronavirusni davolash bilan bog'liq sog'liqni saklash ob'ektlarini qurish, jihozlash va zarur infratuzilmani yaratish bilan bog'liq xarajatlar uchun 1 022,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi.

III. Ijtimoiy va infratuzilma ob'ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash uchun 3 422,7 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Jumladan,

IV. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga 1 33,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi.

V. Korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2 484,9 mlrd. so'm, shundan byudjet ssudalari – 1 464 mlrd. so'm:

VI. Mahalliy byudjetlar va Pensiya jamg'armasi yo'qotishlarini qoplash hamda mahalliy byudjetlarga ssudalar uchun 595,4 mlrd. so'm mablag' moliyalashtirildi. Jumladan,

- Soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlar natijasida mahalliy byudjetlarning yo'qotishlarini qoplash uchun 478,4 mlrd. so'm;
- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga 117 mlrd. so'm yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-sonli Qonuni bilan joriy yildan soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlarda Soliq qonunchiligi ustuvorligini ta'milash, ma'murchiligini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqlarni hisoblash va to'lash qoidalarini soddalashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalishlar xalqaro me'yorlardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqildi.

Davlat soliq xizmati organlarining hamda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari ham qayta ko'rib chiqilib, barcha huquq va majburiyatlar bitta qonun hujjatida mujassamlashtirildi va soliq organlarining insofli soliq to'lovchilar oldidagi majburiyatlari oshirildi.

2. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar.

2020 yildan boshlab soliq tizimiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, amaldagi **13 ta** soliq va boshqa majburiy to'lovlar qayta ko'rib chiqilib, 2020 yildan **9 ta** soliqning amal qilishi belgilandi va yagona ijtimoiy to'lov o'rniga - **ijtimoiy soliq**, yagona soliq to'lovi o'rniga – **aylanmadan soliq**, qat'iy belgilangan soliq o'rniga - **jismoniy shaxslarning daromadlariga, qat'iy belgilangan miqdorda soliq** joriy etildi.

Shuningdek, Soliq kodeksidan **yagona er solig'i, davlat boji, bojxona to'lovlari** va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq chiqarildi.

Quyidagilar uchun maxsus soliq rejimlari bekor qilindi:

a) bozorlar uchun, ularni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazgan holda. 2020 yil 1 yanvardan boshlab bozorlar avvalgi soliq to'lash tartibi (daromadning 50 foizi) o'rniga quyidagilarni to'laydi:

umumdavlat soliqlarini (agar realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 milliard so'mdan oshgan bo'lsa) - yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va 20 foizli oshirilgan stavkada foyda solig'ini;

aylanmadan soliqni (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan kam bo'lganda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni;

b) kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun, ularga jismoniy shaxslardan daromad solig'ini to'lashni kiritgan holda.

Kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar uchun aylanmadan soliq (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan kam bo'lganda) yoki umumbelgilangan tartibda to'lanadigan soliqlar (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 mlrd. so'mdan oshganda) kiritiladi.

Shu bilan birga, ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun olinadigan davlat bojining miqdori deyarli 4 baravar kamaytirildi;

v) qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun, ularni umumbelgilangan soliq to'lashga yoki aylanmadan soliq to'lashga o'tkazish bilan. Shu bilan birga, ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'ining nol stavkasi belgilandi, qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun ishlatiladigan mol-mulk qismi bo'yicha mol-mulk solig'idan va tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan erlar uchun er solig'idan imtiyozlar saqlab qolindi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashni yoki 2020 yildan boshlab o'rtacha 25 foizgacha pasaytiriladigan qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni tanlash huquqi berildi.

Davlat soliq xizmati organlarining ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarni o'z vaqtida qaytarish bo'yicha javobgarligini oshirish maqsadida, ortiqcha undirilgan soliqlar yoki moliyaviy sanksiyalar summalarini, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda qaytarish bilan bir qatorda, soliq summalarini qaytarishda har bir kechiktirilgan kun uchun soliq organi tomonidan **soliq to'lovchiga foiz to'lash** tartibi joriy etildi.

Unga muvofiq, soliq to'lovchi ortiqcha to'lagan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to'g'risidagi arizasini, ko'rsatilgan ortiqcha to'langan summa to'langan kundan e'tiboran **besh yil ichida** berilishi mumkinligi, ortiqcha to'langan soliq summasi, soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e'tiboran **o'n besh kun ichida** qaytarilishi belgilandi.

Agar ortiqcha to'langan soliq summasini soliq to'lovchiga belgilangan **o'n besh kunlik muddatda** amalga oshirilmasa, belgilangan muddatda qaytarilmagan summa uchun soliq to'lovchiga qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun foizlar hisoblangan holda qaytariladi. Hisoblangan foizlar tegishli byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi. Foiz stavkasi qaytarish muddati buzilgan kunlarda amal qilgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

*Masalan soliq to'lovchi ortiqcha to'langan 100,0 mln.so'mni qaytarish uchun 10 mart kuni ariza taqdim etdi. Soliq organi soliq to'lovchining arizasini o'rganib chiqib, ortiqcha to'langan soliq summasini 1 aprel kuni qaytarib berdi va natijada qaytarish uchun belgilangan muddat taxminan 6 kunga kechikdi. Mazkur holat bo'yicha, 2020 yil 1 mart holatiga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasiga 16 foiz bo'lgan. Demak, kunlik stavka 0,044% (16/365) kechiktirilgan kunlar uchun penya miqdori 264,0 (100.0*0.044%*6) ming,so'mni tashkil etadi.*

Ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to'lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o'ziga ma'lum bo'lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran **o'ttiz kun ichida** murojaat etgan taqdirda hisoblanadi. Bunda, foizlar soliq undirilgan kundan keyingi kundan e'tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi va hisoblangan foizlar tegishli byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi. Foiz stavkasi Markaziy bankning shu kunlardagi amal qilayotgan qayta moliyalashtirish stavkasiga teng miqdorda qabul qilinadi.

Bir korxonaning soliq majburiyatini boshqa bir soliq to'lovchi hisobidan bajarish tartibi bekor qilish maqsadida, **soliq qarzini debitorlar hisobidan undirish tartibi 2020 yildan bekor qilindi.**

Soliq to'lovchilarning soliq kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini kengaytirish maqsadida, endilikda respublika byudjetiga to'lanadigan soliqlarni to'lashni **kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash** imkoniyati Davlat soliq qo'mitasi, bojxona organlarining taklifi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahalliy

byudjetlar bo'yicha esa mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan taqdim etilishi belgilandi.

Bunda, soliqlarni bir vaqtning o'zida to'lash natijasida iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomatlari yuzaga kelishi xavfi bo'lgan, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish mavsumiy bo'lgan hollarda soliqlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati, qarzdorlik summasiga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida foiz hisoblangan holda taqdim etilishi joriy qilindi.

Shuningdek, soliq majburiyati bajarilishi ta'minotining **mol-mulk garovi, bank kafolati va kafillik** ko'rinishidagi yangi shakllari kiritildi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi bilan soliq nazorati shakllari qayta ko'rib chiqilib, soliq organlariga tahlikali-tahlil asosida **kameral soliq tekshiruvlari, sayyor soliq tekshiruvlarini va soliq auditini** tayinlash huquqini beradigan soliq nazoratini amalga oshirishning yangi tartibi belgilandi.

Endilikda soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun nomzodlar inson omilisiz, dastlab kamida 42 ta mezonlar asosida tahlika-tahlil (Risk-analiz) dasturi yordamida tanlanadi.

Tahlika-tahlil asosida xo'jalik sub'ektlarini xavflilik darajasiga qarab 3 ta segmentga (*yashil, sariq va qizil yo'laklarga*) ajratadi hamda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, soliq nazoratining yangi kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv va soliq auditini o'tkazilishi belgilanadi.

Xavflilik darajasi past bo'lgan (*yashil yo'lakcha*) korxonalariga nisbatan hech qachon soliq tekshiruvlari amalga oshirilmaydi va ushbu korxonalariga yuqori darajadagi soliq xizmatlari ko'rsatiladi.

Bu guruhdagi korxonalar toifasiga qaysilar kiradi degan savol tug'ilishi tabiiy albatta?

Bular soliq hisobotlarida haqiqiy daromadlarini ko'rsatgan holda majburiyatlarini o'z muddatlarida bajarayotgan sub'ektlardir.

Xavflilik darajasi o'rtacha bo'lgan (*sariq yo'lakcha*) korxonalariga nisbatan faqat kameral soliq tekshiruvi amalga oshiriladi va ushbu korxonalariga xato kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha hisobotini tuzatish imkoni beriladi.

Bu toifadagi korxonalariga soliq hisobini yuritishda xatoliklarga yo'l qo'yayotgan va soliq maslahatiga ehtiyoji bo'lganlar kiradi.

Xususan: - **kameral soliq tekshiruvi**, soliq to'lovchining hisobotini soliq organida mavjud ma'lumotlar bilan taqqoslash natijasida aniqlangan tafovutlarga soliq to'lovchi soliq hisobotiga tuzatishlar kiritishi yoki asoslantirilgan sabablarni ko'rsatishi, bunda, kameral soliq tekshiruvi doirasida soliq organining mansabdor shaxsiga soliq to'lovchidan ma'lum bir soliqni hisoblashning to'g'riligini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni talab qilish huquqi berildi.

Lekin kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha penya hisoblanishi hamdamoliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi.

- **sayyor soliq tekshiruvida** soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash hamda boshqa majburiyatlar bajarilishi masalalarida ma'lumot to'plash uchun soliq to'lovchining ayrim ko'rsatkichlarini joyiga chiqqan holda o'rganilinadi va uning maqsadi faktlarni qayd etishdan iborat bo'ladi.

Sayyor soliq tekshiruv natijalari bo'yicha qo'shimcha soliqlar hisoblanmaydi.

- **soliq auditi** soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash xavfi yuqori darajada bo'lgan soliq to'lovchilarda risk omillarini tahlil qilish asosida tanlangan soliq to'lovchilarda o'tkaziladi va soliq auditi natijalariga ko'ra qo'shimcha soliqlar hisoblanib, moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha, tushum hajmidan qat'iy nazar alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shahobchalari hamda bozor va savdo komplekslari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar toifasiga o'tkazildi.

Soliq kodeksining 246-moddasiga kiritilgan o'zgartishlar bilan xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), shu paytgacha agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan edi. Endilikda qarzlari hisobidan tovarlarni (xizmatlarni) olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi konunda nazarda tutilgan bo'lsa, soliq imtiyozidan foydalanilishi mumkinligi belgilandi.

Kodeksning 259-moddasiga kiritilgan qo'shimcha bilan, endilikda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasi oyiga bir milliard so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri chorak hisoblanadigan bo'ldi.

2. Aktsiz solig'i bo'yicha, Kodeksning 283-moddasiga kiritilgan o'zgartirish bilan endilikda aktsiz solig'i stavkalari Soliq kodeksida belgilandi va unga muvofiq, mazkur modda uchta qo'shimcha moddalar bilan to'ldirildi:

289-1-modda Tamaki mahsulotlariga soliq stavkalari

289-2-modda alkogol mahsulotlariga soliq stavkala;

289-3-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aktsiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari.

Kodeksning 284-moddaga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo'nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashkari) mahsulotlari aktsiz solig'i ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

3. Foyda solig'i bo'yicha, 2021 yil 1 yanvardan boshlab Soliq kodeksi 306-moddasi bo'yicha, amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang'ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholashi amalga oshirilganda, amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun bunday qayta baholash natijasi hisobga olinmaydigan bo'ldi.

Shu munosabat bilan 306-moddaning to'rtinchi qismiga amortizatsiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang'ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilandi.

Unga muvofiq, amortizatsiyalanadigan aktivlarning boshlang'ich qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to'lovchi tomonidan kapital ko'yilmalar amalga oshirilgan taqdirda o'zgarishi;

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan soliq to'lovchida mavjud bo'lgan, ilgari o'tkazilgan qayta baholashni hisobga olgan holda amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymati soliq solish maksadida boshlang'ich qiymat hisoblanishi.

2020 yil 1 yanvardan boshlab soliq to'lovchi tomonidan keyingi xisobot (soliq) davrlarida amortizatsiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholash amalga oshirilganda, bunday qayta baholash natijasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun hisobga olinmasligi belgilandi.

Masalan, korxonada 2014 yilda mebellar to'plamini 1 150 000 so'mga xarid qilgan edi. Mazkur mebellar to'plamining 2020 yil 1 yanvar holatiga jamlangan eskirish summasi 862 500 so'mni tashkil qilgan. 2020 yil 1 yanvar holatiga mazkur mebellar to'plami qayta baholanib, uning tiklanish qiymati 1 476 261 so'mni tashkil etgan va o'z navbatida 2020 yil davomida 1 107 196 so'mga eskirish hisoblanib, 2021 yil yanvar holatiga mazkur mebellar to'plamining qoldiq bahosi 369 065 so'mni tashkil etadi va ushbu mebellar to'plami 2021 yil 1 yanvar holatiga qayta baholanmaydi.

Shuningdek, soliq organlari tomonidan oldingi hisobot davri asosida bo'nak to'lovlari hisoblanishi saqlanib qolinganda soliq to'lovchi kelgusi chorakning birinchi oyi **10 sanasiga qadar** joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo'nak to'lovlari summasi to'g'risida soliq organlariga ma'lumotnoma taqdim etish huquqi berildi.

Shu bilan birga, kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib kursatilgan takdirda soliq organlari soliq tulovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq buyicha bo'nak tulovlari summasi tugrisidagi ma'lumotnomaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga egaligi ham belgilandi.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha, Kodeksning 365-moddasiga kiritilgan o'zgartirish bilan soliqni qat'iy belgilangan miqdorda to'lash xoxishini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortish ob'ekti bo'lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar hisoblanishi nazarda tutildi. O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" Qonunida nazarda tutilgan, qat'iy belgilangan soliq stavkalari qo'llanilishi bilan bog'liq alohida normalar Soliq kodeksning **383-moddasi** kuyidagi taxrirda bayon etildi:

tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalarda va binoda amalga oshirgan taqdirda, yashash joyidagi soliq organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishga majbur;

I yoki II gurux nogironligi bo'lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, oyiga qat'iy belgilangan miqdordagi soliqning **50 foizini**, biroq bazaviy hisoblash miqdorining **50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda** to'laydi;

Hunarmand» uyushmasi a'zosi bo'lgan va xunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya kilishni amalga oshirganida qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etiladi;

bolalar o'yin avtomatlari bilan bog'lik xizmatlarni ko'rsatsa, har bir jixozlangan joy (birlik) uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'laydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlariga **12 foiz** miqdorida soliq solinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaxarlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyliги qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqi berildi.

Kodeksning 385-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslarga alohida toifadagi soliqni to'lash bekor qilinib, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mexnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan xisoblab chiqariladi va to'lov manbaida ushlab qolish tartibi belgilandi.

5. Ijtimoiy soliq bo'yicha, Kodeksning 408-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari qayta ko'rib chiqildi va unga muvofiq, ushbu toifadagi ijtimoiy soliqni to'lovchilar quyidagi ikki guruhga ajratildi:

- kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar ijtimoiy soliqni to'lovchilar;

- mexnat staji xisoblanishi uchun o'zini o'zi band qilgan ijtimoiy soliqni to'lovchilar.

Kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar ijtimoiy soliqni to'lovchilar bo'lar yakka tartibdagi tadbirkorlar, ular bilan mexnat munosabatlarida bulgan jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan utgan oila a'zosi va uning oila a'zolari, kishlok tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandlar hisoblanadilar va ular ijtimoiy soliqni quyidagi miqdorlarda to'laydilar:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining bir baravaridan kam bulmagan miqdorda;**

yakka tartibdagi tadbirkor bilan mexnat munosabatlarida bulgan jismoniy shaxslar tomonidan (yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari) **oyiga bazaviy xisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;**

faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan xolda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan utgan oila a'zosi tomonidan - oyiga bazaviy xisoblash miqdorining **bir baravaridan kam bulmagan miqdorda;**

oilaning boshka a'zolari tomonidan (bundan un sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) - oyiga bazaviy xisoblash miqdorining **50 foizi miqdorida;**

kishlok tumanlarida ro'yxatdan utgan va faoliyatini amalga oshirayotgan «Hunarmand» uyushmasi a'zosi bulgan xunarmandchilik faoliyati sub'ektlari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida oyiga bazaviy xisoblash miqdorining **50 foizi miqdorida** majburiy tartibda to'lanadi.

Ikkinchi guruh ijtimoiy soliqni to'lovchilar bo'lib ya'ni mexnat staji xisoblanishi uchun o'zini o'zi band qilgan shaxslar quyidagilar hisoblanadilar va ular soliqni quyidagi miqdorlarda to'laydilar, mexnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshka tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yiliga bazaviy xisoblash miqdorining kamida **bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda**, kuyidagi soliq to'lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to'lanadi:

«Usta-shogird» maktablari ukuvchilari - ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrda;

dehqon xo'jaliklari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dexqon xo'jaligida, tomorqa er uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dexqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshka a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda tulaydi;

Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, xar oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning **o'n beshinchi kundan kechiktirmay**;

mexnat staji hisoblanishi uchun o'zini-o'zi band qilgan shaxslar tomonidan hisobot yilining 1 dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to'lov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan xolda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar: yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni belgilangan soliq stavkalari buyicha jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiyada ko'rsatilgan mexnatga haq to'lash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib, biroq eng kam miqdoridan kam bo'lmagan xolda, soliqni ixtiyoriy ravishda to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida to'lash huquqi berildi.

6. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha:

Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi saqlab qolindi.

Shu bilan birga, Kodeksning 461-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliq tatbiq etilmaydigan to'lovchilar tarkibi alkohol maxsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shohobchalari hamda bozor va savdo komplekslari hisobiga kengydi, ya'ni ular uchun majburiy tartibda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etildi.

Shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha asosiy soliq stavkalari saqlab qolinganda, rieltorlik xizmatini ko'rsatuvchi shaxslarga soliq stavkasi **25 fizdan 13 foizga kamaytirildi** va joylashagan joyidan qat'iy nazar, chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar **tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan** tovar aylanmasi bo'yicha **4 foiz** miqdorida soliq to'lashga o'tkazildi.

7. Yer solig'i bo'yicha, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonlari uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan erlar bo'yicha, shuningdek dehqon xo'jaliklari uchun soliqni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi erlari

uchun er solig'ining bazaviy stavkasi va er uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib hisoblash tartibi bekor qilindi va ularga qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatidan kelib chiqib to'lashga o'tkazildi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

2021 yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa – Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida **0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda, belgilangan er solig'i stavkasiga tuman deputatlar Kengashlari tomonidan **soliq yukuni keskin oshishini oldini olish maqsadida 0,7 dan 1,3 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini birinchi yillarda qo'llash maqsadga muvofiq. **Alohida joylar** va respublikaning **turistik zonalaridagi** alohida er uchastkalari, shu jumladan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan **1 gektardan ortiq** er uchastkalariga **nisbatan 3,0 gacha** oshiruvchi koeffitsient qo'llanilishi mumkin (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyuldagi PF- 6027- sonli Farmoni*).

Shuningdek, **jismoniy shaxslarning** er maydonlari uchun olinadigan **er solig'i** (yakka tartibdagi tadbirkorlar va turistik zonalarda joylashgan er uchastkalaridan tashqari) **summasi** 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3 baravaridan oshmasligi** belgilangan.

Bundan tashqari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari alohida er uchastkalariga, shuningdek turistik zonalarda joylashgan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan 1 gektardan ortiq er uchastkasiga er solig'ini 3 baravargacha miqdorda oshiruvchi stavkasini belgilash huquqiga ega.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalari joylashgan joydagi **soliq organlariga** soliq stavkalarini joriy soliq davrining **31 dekabriga qadar** taqdim etadilar.

8. Mol mulk solig'i bo'yicha, Soliq kodeksining 415-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan ob'ektlarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkasini 0,2 dan 0,4 foizga oshirildi.

Jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari 1,15 baravariga indeksatsiya qilindi. Bunda, 2021 yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq summasi, 2020 yilda hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko'p oshirilmaligi belgilandi.

Turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki ushbu soliqlarni to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Ko'p kvartirali uylariga bevosita uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarining mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ektiga kiritildi. Bunday ob'ekt soliq bazasiga nisbatan 0,23 foiz miqdoridagi soliq stavkasida soliqqa tortilishi belgilandi

9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha, Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda.

Bunda, soliq stavkalari kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun 2020 yil darajasida saqlab qolindi. qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub.m. uchun 40 so'm miqdorida belgilandi.

Belgilangan limitlar doirasida er usti va er osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	1 kub metr uchun soliq stavkasi, so'mda:	
		er usti suv resurslari manbalari	er osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-6-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2.	Sanoat korxonalarini	472	564
3.	Elektr stantsiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	70	90
4.	qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5.	avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1 990	1 990
6.	pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	25 185	25 185

Qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish va baliq etishtirish (o'stirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklarida suv o'lchash uskunalari mavjud bo'lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsientni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Soliq kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari soliq solish ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklarida suvdan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o'zgartirilmoqda. Xususan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili:

joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun;

dehqon xo'jaliklari bo'yicha soliqni hisoblash uchun - soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to'g'risida ma'lumot taqdim etishi belgilandi.

Sun'iy suv havzalarida baliq etishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv ob'ektlaridan olingan va ushbu suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv xajmi mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq solish ob'ekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari shart va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lash tartibi kiritilmoqda.

10. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Quyidagi foydali qazilmalar uchun 5 foiz miqdorida, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda yagona soliq stavkasi belgilanmoqda:

qurilish qumlari (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 8 500 so'm bo'lgan);

qum-shag'al aralashmasi (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'm bo'lgan);

qumtoshlar (5 foiz), qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan);

qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan).

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda	
	2020 yilda	2021 yilda
Qurilish qumlari	5%, biroq 8 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qum-shag'al aralashmasi	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qumtoshlar	5 foiz	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan

Masalan: Toshkent viloyati Chinoz tumanida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonasi tomonidan 2020 yilda 40 154 kub.metr “Qurilish qumlari” qazib olgan va 8 500 so'm soliq stavkasida 341,3 mln.so'm soliq to'lagan bo'lsa, 2021 yilda ham shu miqdorda “Qurilish qumlari” qazib olganda, soliq stavkalarini unifikatsiya qilinishi natijasida (soliq stavkasi 7 500 so'm) 301,2 mln.so'm soliq to'laydi yoki 40,1 mln.so'm kam soliq to'laydi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin, kumush, palladiy va mis bo'yicha soliq stavkasi 15 foiz miqdorda belgilandi.

Boshqa foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkalari 2020 yil darajasida saqlab qolindi.

3. 2021 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning mohiyati.

Prezidentimizning 2021 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlimai va Senatining qo'shma yig'ilishida qilgan murojaatnomasida 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" e'lon qildi.

Prezidentimizning 2021 yil 3 fevraldagi «2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-6155-son farmoni bilan tasdiqlangan DAVLAT DASTURI'ning 3.3. bo'limi "**Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish**" deb nomlanib unda quyidagi tadbirlar belgilandi

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;

Sotiladigan tovarlarning yagona elektron tasniflagich tizimini ishlab chiqish va onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisobvaraqa-fakturalari, markirovkalash tizimlariga integratsiyalash;

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash ma'murchiligini takomillashtirish;

Teng raqobat sharoitini yaratish va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar huquqlarini kafolatlash bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish;

Soliq xizmatlarini ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish va xalqaro standartlarga moslashtirish, soliq organlarini «xizmat ko'rsatuvchi» yuqori texnologiyali tashkilotga transformatsiya qilishni davom ettirish;

Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish va soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish hamda soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish bo'yicha belgilangan ushbu yo'nalishlar doirasida 11 ta normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tadbirlari belgilangan.

Prezidentimizning aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishsizlikni oldini olish, bu borada yoshlar va xotin-qizlarni, ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash yuzasidan yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlarni rag'batlantirish bo'yicha joriy yilning aprel oyida qabul qilgan farmon va qarorlari davlat dasturida belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-sonli farmoni bilan 2021 yil 1 maydan 2023 yil 1 yanvargacha qadar, ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan

oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini davlat byudjetidan to'liq qaytarib berish tartibining joriy qilinishi birinchidan yoshlarni ish bilan ta'minlanishida qulay imkoniyat bo'lsa, ikkinchidan ularni ishga qabul qiluvchilarni yoshlarni ishga jalb qilishdan manfaatdorligini oshirdi.

Masalan, xo'jalik sub'ekti ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonada 25 yoshga to'lmagan yosh mutaxassisni ishga qabul qilib, unga o'rtacha 3000,0 ming so'mdan oylik ish haqi belgiladi, amaldagi qonunchilikka muvofiq, xodimga to'langan oylik ish haqi fondidan oyida 12 foiz ya'ni 360,0 ming so'm miqdorida ijtimoiy soliq to'laydi. Joriy etilgan imtiyozga muvofiq endilikda xo'jalik sub'ekti tomonidan yosh xodimga to'langan ijtimoiy soliq summasi tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin soliq to'lovchiga qaytarib beriladi.

Qayd etish joizki, mazkur imtiyozni qo'lash uchun ishga olingan yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirgan bo'lishi kerak va bunda ijtimoiy soliqni qaytarish etinchi oydan boshlab amalga oshiriladi. O'z navbatida, mazkur imtiyoz byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga tadbiiq etilmaydi.

Shuningdek, farmon bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq joylarda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlat mulklarini ijaraga olishda, farmonda tasdiqlangan jadval bo'yicha ijara to'lovlarini imtiyozli miqdorlarda to'lash belgilandi.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishchilar soni	Davlat mulki ob'ektining imtiyoz qo'llaniladigan eng ko'p maydoni			
	Toshkent shahar (kv. m)	Nukus shahar va viloyat markazlari (kv. m)	Tuman markazlari (kv. m)	Boshqa hududlar (kv. m)
I. «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilganda umumiy ijara maydoniga nisbatan ijara to'lovlarini 50 foiz miqdorida to'laydigan tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha				
5 ta	60	80	100	120
6 dan — 9 gacha	100	120	140	160
10 dan — 19 gacha	200	240	280	300
20 va undan ortiq	250	280	300	320
II. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizi «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar bo'lgan, davlat mulki ob'ektlari uchun ijara haqi to'lovidan 5 yilga ozod etiladigan tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha				
10 gacha	100	120	140	160
10 dan — 19 gacha	140	160	180	200
20 dan — 29 gacha	180	200	220	240
30 va undan ortiq	220	240	260	280

Ushbu jadvalning I qismi bo'yicha «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlar ishga qabul qilinganda umumiy ijara maydoniga nisbatan ijara to'lovlarini 50 foiz miqdorida to'laydigan tadbirkorlik sub'ektlari uchun imtiyozli maydon belgilandi.

Masalan, Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ekti agar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 5 nafar ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan bo'lsa,

mazkur tadbirkorlik sub'ekti 60, m² gacha bo'lgan ijara maydoni uchun ijara to'lovini 50 foiz kamaytirilgan stavkada to'laydi. Demak tadbirkorlik sub'ekti agar ijara shartnomasi bo'yicha 100 m² davlat mulkini ijaraga olgan bo'lsa va 5 ta nafar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan bo'lsa 60 m² uchun, agarda 6 nafardan 9 nafargacha xodimni ishga olgan bo'lsa 100 m² uchun ijara to'lovining 50 foizini to'lashdan ozod qilinadi.

Qayd etish lozimki mazkur jadvalda keltirilgan shartlar bo'yicha respublikamiz hududlari bo'yicha ham «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga olgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun ijara to'lovining imtiyozli maydon hajmlari belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur jadvalning II qismida esa ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizi «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar bo'lganida, davlat mulki ob'ektlari uchun ijara to'lovidan 5 yilga ozod etiladigan tadbirkorlik sub'ektlari ishga olinishi lozim bo'lgan xodimlar soni va imtiyozli maydon hajmlari belgilangan.

Masalan, jadvalning II qismiga muvofiq, masalan Toshkent shahrida ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining jami xodimlar soni 15 kishi bo'lib, ushbu korxonada 150 m² maydonga ega davlat mulkini ijaraga olgan bo'lsa va korxonada ishlovchi xodimlarning 11 tasini (70 foizi) «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar tashkil qilsa, mazkur holatda ushbu korxonada ijaraga olgan davlat mulkining 100 m² uchun ijara haqi to'lovidan 5 yil muddatgacha ozod etiladi.

Shuningdek farmonda, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va o'zini o'zi band qilishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilandi.

Masalan, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yosh yigit yoki qiz tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun 20,0 million so'm mablag' lozim bo'lsa, shundan bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari ya'ni 9 800 000 so'mni ($254000 \cdot 40$) «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilangan.

Shuningdek farmonda, 2021 yil 1 iyundan boshlab «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yosh tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun bino va inshootlarni ijaraga olganda, bir yillik ijara xarajatlarining 30 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha bo'lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan kompensatsiya qilinishi belgilandi.

Masalan, yosh tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun boshqa bir tadbirkordan 50 m² maydonga ega bo'lgan binoni bir yillik muddatga yillik 20,0 mln.so'mga ijaraga oldi. Iritilayotgan o'zgartirish bo'yicha ushbu tadbirkorni qo'llab-quvvatlash maqadida, ijara to'lovining 30 foizini ya'ni 6,0 mln.so'mni ($20,0 \cdot 30\%$) biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha ya'ni 6125000 so'mgacha ($25 \cdot 245000$) bo'lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan kompensatsiya qilinadi.

O'z navbatida farmonda, professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni ishlab-chiqarish yoki xizmat ko'rsatish

korxonalarida amaliyot o'tash uchun yuborilgan vaqtida, biroq olti oydan ko'p bo'lmagan muddatda professional ta'lim tashkilotlari tomonidan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida oylik subsidiya ajratilishi belgilandi.

Masalan Toshkent qurilish texnikumi mazkur texnikumda tahsil olayotgan va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan o'quvchini qurilish korxonasiga amaliyot o'tash uchun olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga, aytaylik besh oy muddatga yuborgan bo'lsa, bunda texnikum hisobidan oyiga 900 so'm ($245000 \cdot 2$) jamibesh oy uchun 4500.0 ($900 \cdot 5$) ming so'm subsidiya ajratiladi.

Bundan tashqari farmonda 2021 yil 1 iyundan boshlab «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib sertifikat olgan yoshlarga kompyuterlar (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan) xarid qilishlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda iste'mol kreditlari ajratilishi belgilanib, mazkur iste'mol kreditlarini ajratish AT «Xalq banki», AT «Aloqa bank» va «Mikrokreditbank» ATB tomonidan amalga oshirilishi va iste'mol kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi;

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining 50 foizi, biroq umumiy hisobda bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha bo'lgan miqdori hamda ular bo'yicha milliy sertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini Yoshlar ishlari agentligiga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi;

«Mehribonlik» uylari tarbiyalanuvchilari hamda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlari bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari miqdorigacha va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badali Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanishi;

xususiy korxonalar va tashkilotlarga ishga qabul qilingan hamda faoliyat boshlaganiga olti oydan oshmagan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni qayta tayyorlov kurslarida o'qitish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha bo'lgan qismi mazkur xususiy korxonalar va tashkilotlarga Davlat byudjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinishi belgilandi.

Shuningdek, 2021 yil 1 maydan boshlab yotoqxona bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi belgilandi.

Bunda, ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari, qolgan hududlarda — bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravaridan oshmasligi lozim;

ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi birinchi navbatda ehtiyojmand oila farzandlariga, o'rnak ko'rsatgan va faol talabalar uchun qoplab beriladi;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijara huquqi asosida yashaydigan boshqa talabalarga ham oylik ijara to'lovining bir qismi qoplab berilishi belgilandi.

Farmon bilan, Yoshlar ishlari agentligida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etilib, Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, agentlik va uning hududiy bo'linmalari huzuridagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar ixtiyorida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qoladigan sof foydaning bir qismi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar jamg'arma daromadlarining manbalari etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 aprel, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son qarorida, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash masalalarida qo'shimcha tadbirlarni belgilashni nazarda tutildi.

Qarorga muvofiq, 2021 yil 1 iyundan boshlab tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari belgilandi:

uch yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko'rsatayotgan hamda hisoblangan soliqlarni muddatida to'lab kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra soliq qarzini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash;

uch yildan ortiq vaqtdan buyon tovarlarni import qilish bilan shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarib kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra to'lovlarni belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash huquqi beriladi.

Bunda, ushbu tartib bo'yicha garovsiz bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasi tadbirkorlik sub'ekti tomonidan oxirgi uch yil davomida to'langan soliq yoki bojxona to'lovlari summasining 50 foizidan oshmagan miqdorida bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasiga beriladi.

Masala, tadbirkorlik sub'ekti tomonidan oxirgi uch yilda to'langan soliq yoki to'lovlar summasi taxminan uch mlrd bo'lib, lekin kechiktirib to'lanadigan soliq va to'lovlar summasi 5 mlrd.so'm bo'lsa, bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasi 1,5 mlrd.so'm (3,0mlrd.so'm : 2) miqdorida belgilanadi.

Shuningdek, 2021 yil 1 maydan boshlab chet eldan xorijiy valyutadagi tushum tushishi kechiktirilishiga yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar va «erkin muomalaga chiqarish» bojxona rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish va rasmiylashtirishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishni o'z vaqtida ta'minlamagan import qiluvchilar uchun qonunchilikda belgilangan jarima miqdorlari ikki baravarga kamaytirildi.

2021 yil 1 may holatiga shakllangan tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga jarimalar qo'llash to'xtatildi va debitor qarzdorlik vujudga kelish muddatlari 2021 yil 1 maydan boshlab yangidan hisoblanadigan bo'ldi.

2021 yil 1 maydan boshlab, "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" tomonidan Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan miqdordagi foiz stavkasi bilan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya, uning belgilangan miqdorlarini saqlab qolgan holda, taqdim etilishi belgilandi.

Masalan, 2021 yil 1 may holatiga Markaziy bank asosiy stavkasi 14 foiz bo'lsa, uning 1,75 barabari 24,5 foizni ($14 \cdot 1,75$) tashkil etadi. Agar tadbirkorlik sub'ekti bankdan 5,0 mlrd. so'm kreditni yillik 28,0% stavkada olgan bo'lsa, tadbirkorlik sub'ektiga ushbu kredit fozining 24,5 foizlik xarajatlar qismi qoplab beriladi.

Shuningdek, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorda tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik beriladi;

Masalan, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» kiritilgan tadbirkorlik sub'ekti kredit rasmiylashtirgan vaqtda 36750,0 ($150 \cdot 245000$) ming so'mgacha jamg'arma tomonidan kafillik berilishi belgilandi.

Asosiysi, tadbirkorlik sub'ektlariga bank kreditlari bo'yicha kompensatsiya va kafilliklar kredit shartnomalari sonidan qat'i nazar berilishi va bunda, kompensatsiyalar taqdim etilayotgan kreditlarning umumiy summasi 10 mlrd so'mdan, kafilliklarning umumiy summasi esa 8 mlrd so'mdan, biroq umumiy kredit summasining 50 foizidan oshmasligi belgilab qo'yildi.

Qarorda, Eksportni rag'batlantirish agentligiga, eksport qiluvchilar tomonidan tovarlar ular bo'yicha to'lovlarni kechiktirib to'lash sharti bilan eksport qilinganda, ularning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun revolver kreditlarni moliyalashtirish maqsadlarida tijorat banklariga moliyaviy resurslar taqdim etish, ushbu resurslar hisobidan kreditlar to'lovlar kechiktirilgan muddatga va eksport qilinayotgan mahsulotlar qiymati miqdorida, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'lmagan miqdorda, yillik 4 foizli stavka (shundan, 2 foizi bank marjasi) bilan ajratilishi belgilandi.

Masalan, tadbirkorlik sub'ekti ishlab chiqargan tovarlarini eksport qilganda, ushbu eksport uchun to'lovlar kechiktirib to'lanishi shartnomada belgilangan bo'lsa, bunday sharoitda ushbu tadbirkorlik sub'ektining aylanmalar mablag'larini to'ldirish uchun Eksportni rag'batlantirish agentligi tijorat banklariga moliyaviy resurslar hisobidan kredit to'lovlari qancha muddatga kechiktirilgan bo'lsa, masalan agar to'lovlar uch oygacha kechiktirilgan bo'lsa demak uch oygacha eksport qilingan mahsulotlar qiymati miqdorida agar eksport miqdori 1,0 mlrd so'mga bo'lsa, shu bir mlrd. so'mga, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan ko'p bo'lmagan miqdorda, yillik 4 foizli stavkada kredit ajratilishi belgilandi.

O'z navbatida, yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi"ning kafillik va kompensatsiyalaridan foydalanish huquqiga egaligi farmonda belgilab qo'yildi..

Shuningdek, farmonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizi kichik biznes loyihalariga, 30 foizi ustuvor ravishda o'zini o'zi band qilishga yo'naltirilishi, ajratiladigan mablag'larning kamida 15 foizi joylarda, ayniqsa shaharlarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilishi belgilandi.

Farmonning yana bir muhim jihati, 2021 yil 1 iyundan boshlab infratuzilmaga yaqin joylarda, shu jumladan respublika ahamiyatidagi yo'llarga tutash bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha unumdorligi past, foydalanishda bo'lmagan qishloq xo'jaligi erlarini sanoat va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini barpo etish uchun loyiha asosida investorlarga «E-IJRO AUKSION» savdo maydonchasida elektron onlayn-auksion orqali ajratilishiga ruxsat etildi.

Shu bilan birga, joylarda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan er uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini auktsionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga er uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini auktsionga qo'yishda boshlang'ich narxga chegirma belgilanadigan olis va chekka hududlar chegaralarini belgilash vakolatlari berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-son qarori bilan aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha yangi ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik sub'ektlari rag'batlantirish tadbirlari belgilandi.

Mazkur qaror bilan, 2021 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi va unda 2021 yilda 457 127 ta doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari va 2021 yilda mehnat organlari tomonidan 513 575 nafar fuqaro bandligiga ko'maklashish va ish beruvchilarni rag'batlantirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Shu bilan birga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2021 yilda aholi bandligiga ko'maklashishga:

subsidiyalar ajratish uchun — 92,3 mlrd so'm;

ishsizlik nafaqalari to'lab berish uchun — 65,1 mlrd so'm;

kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish xarajatlarini qoplash uchun — 40,6 mlrd so'm;

yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga ajratiladigan resurslar uchun — 125 mlrd so'm mablag'lar ajratilishi belgilandi.

Qarorning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksining

Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish va unda:

mehnat staji uchun ijtimoiy soliq to'lagan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakuni bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar;

tashkil etilgan ish o'rnida band bo'lgan jismoniy shaxslardan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan) olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq hamda norasmiy faoliyat ko'rsatayotgan yashirin ish o'rinlarini rasmiylashtirish, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakuniga qadar;

yuridik shaxslar tomonidan yangi tashkil etilgan va qisqartirilgan ish o'rinlari soni to'g'risidagi oylik, choraklik, yillik ma'lumotlar (kichik korxonalar va mikrofirmalardan tashqari) hisobot oyidan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar aks ettirilishini ta'minlash belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yoshlarni kasb-hunarga o'ratish va ularni mehnat bozorida bandligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirish yuzasidan yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan yangi rag'batlantirish normalarining amaliyotga joriy etilishi, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirishda, tadbirkorlarni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash muhim uslubiy va iqtisodiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

2-mavzu. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda soliq ma'murchiligi ahamiyatini oshirish masalalari

Reja:

1. Yashirin iqtisodiyoti haqida tushuncha, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri.

2. Dunyo miqyosida yashirin iqtisodiyotning ulushi va O'zbekiston iqtisodiyotiga yashirin iqtisodiyotning ta'siri.

3. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.

4. Soliq sohasida yashirin iqtisodiyotning oldini olish yo'llari.

1. Yashirin iqtisodiyoti haqida tushuncha, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri.

Mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda, avvalo iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun unga tahdid soluvchi kuchlarni bartaraf etish lozim bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikka bo'layotgan tahdidlar orasida ko'proq ahamiyat egallagan iqtisodiy munosabatlarning jinoiylashuvi, jinoiy tizimning davlat iqtisodiy siyosatini o'z manfaatlariga bo'ysindirish tendentsiyasi hisoblanadi.

Aynan shuning uchun ham jinoiy xufiyona (yashirin) iqtisodiyotni aniqlash, shakllanishining oldini olish va uning ulushini pasaytirish hozirgi zamon iqtisodiy siyosatining o'ta dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni zudlik bilan hal etish uchun

kompleks choratadbirlarni kechiktirmay amalga oshirish lozimligini bugungi vaziyatning o'zi talab qilmoqda.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari bo'lib, unda oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari - iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yotadi.

Boshqacha aytganda, **yashirin iqtisodiyot** nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqealik, balki davlat hisobi hamda nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan ham rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatidir. Yashirin iqtisodiyotga berilgan bunday ta'rifning o'ziyoq uning mamlakat taraqqiyotiga to'sqinlik, byudjet daromadlariga esa salbiy ta'sir qilishini, shu bois, unga qarshi kurashish o'ta dolzarbligini ko'rsatadi.

Yashirin (xufiyona) iqtisodiyotning mezonlar bo'yicha turlari

Mezonlari	«Oq yoqali» xufiyona iqtisodiyot	«Kulrang» xufiyona iqtisodiyot	«Qora» xufiyona iqtisodiyot
Sub'ektlari	Iqtisodiyotning rasmiy sektori ishtirokchilari (menejerlari)	Norasmiy bandlar	Professional jinoyatchilar
Ob'ektlari	Daromadlarni ishlab chiqarishsiz taqsimlanishi	Odatiy tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish	Ta'qiqlangan yoki defitsit tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish
“Toza” rasmiy iqtisodiyot bilan aloqasi	“Toza” iqtisodiyotdan ajralmagan holda	Nisbatan mustaqil	Mustaqil (avtonom)

Yashirin iqtisodiyot murakkab ko'p bosqichli hodisa, uning tur va shakllari xilma-xil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1) **jinoiy iqtisodiy faoliyat**. Bu mutlaqo ma'n etilgan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish, (narkobiznes, pornobiznes, qurol biznesi va h. k.);

2) **g'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish**, (o'g'irlik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik);

3) **ikkilamchi iqtisodiyot** – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1-2 va 5-10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmati ko'rsatish, q. x., qurilish, savdo, kiyimkechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan;

4) **rasman ruxsat etilgan faoliyat** bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish;

5) **mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar**. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin;

6) **qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat**, bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar. Yashirin iqtisodiyotdagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat'iy taqiqlanadi, hamma choralar bilan unga qarshi kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo'lsada kishilar talabehtiyolarini qondiradi) oshkorlikka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Yashirin iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib ular:

- bozorga kirishning oson va qulayligi;
- ish beruvchi va ishchi munosabatlarining takomillashmaganligi;
- malaka va ko'nikmalarning standartlashmagani;
- operatsiyalar miqyosining kichikligi;
- xufyona narxlarning shakllanishiga sharoitning yaratilishi.


Xufyona narxlar deb bozorda yuz beradigan uzilishlar sharoitida belgilangan bozor narxlariga to'g'ri kelmaydigan, lekin ijtimoiy xarajatlar yoki ijtimoiy daromadni o'zida aks ettirgan hisob narxlariga aytiladi va xufyona narxlar doimo bozor narxlariga nisbatan tafovutda bo'ladi.

Xufyona narxlar va bozor narxleri o'rtasidagi tafovutni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Bozor	Xufyona narxlar (P_s) va bozor narxleri (P_M) o'rtasidagi tafovut	Tafovut sababi
Mexnat	$P_s < P_M$ (ishsizlik darajasi yuqori xollarda)	Ishga yollanishda muqobil ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan yo'qotishlar bo'lmaydi
Kapital	$P_s > P_M$ (kapital bozorida mablag'lar tanqisligi mavjud xollarda)	Firmaning kutilayotgan foyda normasi mavjud foiz stavkasidan baland bo'ladi
Mahsulot	$P_s < P_M$ (salbiy tashqi ta'sir sharoitida)	Naqd pul bilan naqdsiz pul o'rtasida tafovut bo'lganda hamda bankdan tashqari pul aylanmasi oshganda

Demak, mehnat bozorida xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan doimo past bo'ladi, kapital bozorida esa xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan yuqori bo'ladi va o'z navbatida mahsulot realizatsiyasi davrida xufyona narxlar bozor narxlariga nisbatan past bo'ladi.

Daromadlar tabaqalanishi tengsizligini grafikda tasvirlash Lorents egri chizig'i yordamida amalga oshiriladi. Lorents egri chizig'i kvadrat diagonaliga suyangan yoydan iborat bo'ladi. Ya'ni quyidagicha



Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud emas. Balki, aholining ma'lum guruhlarida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishni Lorents egri chizig'i deb nomlanuvchi OF egri chizig'i orqali kuzatish mumkin.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorents egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorents egri chizig'i OE chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi.

Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo'lsa, bunda Lorents egri chizig'i va bissektisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Yashirin iqtisodiyot o'zining salbiy va ijobiy ta'sir kuchiga ham ega bo'ladi.

Yashirish iqtisodiyotning salbi ta'siri quyidagilardan iborat:

- qtisodiy o'sishga teskari ta'sir etadi;
- norasmiy tadbirkorlikni rag'batlantiradi; ishchilarni ekspluatatsiya qilishga sharoit yaratadi, ularni malakali ishchi bo'lishlariga to'sqinlik qiladi;
- byudjet daromadlariga tushumlarni kamaytiradi;
- davlatning fiskal siyosat dastaklaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

O'z navbatida yashirin iqtisodiyot:

- kam ta'minlangan hamda malakasiz axolining asosiy daromad manbai hisoblanadi;
- ijtimoiy ta'minot xarajatlarini pasaytirishga xizmat qiladi;
- bozordagi narxlarining pasayishiga olib keladi.

O'z vaqtida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov – "Jamiyatda jinoiy "xufiyona iqtisodiyot"ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat xokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'inlari va darajalari vakillari ham uning yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korruptsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalaniladi. Bu esa jinoyatchilik va korruptsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlari tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdididir" deb ta'kidlaganligi ushbu masalani hal etish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiy etishidagi ahamiyati nechog'li yuqori ekanligini anglatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazorat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo'lmas va norasmiy qismi yoki yashirin iqtisodiyot mavjud qonun va jamiyat qoidalarini chetlab o'tuvchi jamiyatdagi fuqarolarning iqtisodiy aloqalari demakdir.

Xo'sh, yashirin iqtisodiyot qaerdan paydo bo'ladi va qachon rivojlanadi? U avvalo, jamiyatda iqtisodiy faoliyatni keng jamoatchilikdan yashirish uchun qulay bo'lgan taqdirda va bunga sharoit mavjudligida paydo bo'ladi va uning rivojlanishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

-ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan turli xil litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalarni olinishida ko'zda tutilmagan xarajatlarning mavjudligi;

- xom ashyo mahsulotlarini etkazib berilishida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar.

-mamlakatda soliq yuki darjasining yuqoriligi;

shuningdek, yashirin iqtisodiyotda valyuta qora bozorining o'rnini juda katta hisoblanadi. Bizning mamlakatda ham eng yirik naqd pul aylanmalari xorijiy valyuta bo'lmish AQSh dollarida amalga oshiriladi (noqonuniy yirik bitimlar, uy-joy, avtomobil oldi-sotdisi va boshqa ko'plab tovarlar oldi-sotdisi yig'indisi).

Bankdan tashqari aylanayotgan ushbu xorijiy valyutaning milliy valyutamiz so'mga nisbatan etkazayotgan bevosita zarari oxir-oqibat milliy valyutamizning qadrsizlanishiga o'zining bilvosita ta'sirini ko'rsatadi. Aksariyat mahsulotlarning chetdan naqd pulga sotib olib keltirilishi yoki xufiyona bitimlar tufayli mahsulotlarning mamlakatimizga olib kirib sotilishi ko'p jihatdan soliqdan yashirgan holda foyda ko'rib ishlayotgan tadbirkorlar va ularni qo'llab-quvvatlab turgan boshqa shaxslarga qo'l keladi

Asosiysi, o'z tadbirkorligi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga, raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqilishiga misli ko'rilmagan darajada ziyon etadi.

Yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazorat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo'lmas va norasmiy qismidir.

Mamlakatdagi xufiyona iqtisodiyotning ko'lami kengayib borishi, o'z navbatida, hududda yaratilgan milliy boylikni taqsimlash va qayta taqsimlanishida tengsizlikni keltirib chiqaradi. Aholi daromadlarining to'g'ri taqsimlanmasligi, jamiyatda ijtimoiy muxitning yomonlashuvi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlarining kuchsizlanishiga olib keladi. Jamiyatda jinoiy xarakterdagi faoliyatning hamda uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga sharoit yaratib beradi. Mamlakatning investitsion muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman aytganda, "xufiyona iqtisodiyot"ning kengayishi aholining siyosiy xokimiyatga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga to'sqinlik qiladi. Xufiyona iqtisodiyot zamonaviy jinoiy tizimlarning shakllanishiga moddiy asos bo'ladi, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, inqirozdan chiqish, bozor munosabatlariga asoslangan davlatga aylanishga to'sqinlik qiladi.

Xufiyona iqtisodiyot, o'z navbatida, korruptsiyani vujudga keltiradi, korruptsiya esa "xufiyona iqtisodiyot"ning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi.

Ya'ni, - bir tomondan, "xufiyona iqtisodiyot" davlat xokimiyati va boshqaruvining barcha tizimi sezilarli darajada korruptsiyalashgan shart-sharoitda rivojlanadi;

ikkinchi tomondan, "xufiyona iqtisodiyot" siyosat va iqtisodiyotning o'zaro xotirjam holatda mavjud bo'lishini ta'minlovchi sohalar bilan korruptsiyali munosobatlarni shakllantiradi;

uchinchidan, korruptsiya "xufiyona iqtisodiyot"ni ko'ziga ko'rinmasdan, noqonuniy ravishda tijoratni olib borishga majbur etadi;

to'rtinchidan, korruptsiya "xufiyona iqtisodiyot"ning yangi ko'rinishi va sohalar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bois korruptsiyaga qarshi kurashish "xufiyona iqtisodiyot"ga qarshi kurash bilan birga olib borilmasa, kerakli samarani bermaydi. "Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, "xufiyona iqtisodiyot" vakillari tomonidan topiladigan foydaning kamida 40 foizi bevosita noqonuniy xarakterdagi munosobatlarni saqlab turishga yo'naltiriladi.

Muxtassar qilib aytganda, mamlakatda "xufiyona iqtisodiyot" darajasining yuqoriligi poraxo'rlik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi keladi. Umuman, xufiyona iqtisodiyotning ma'lum bir davlat misolida qanchalik darajada rivojlanganligini aniq belgilab bo'lmaydi. Ushbu hodisaning mavjudligi natijasida yuzaga keluvchi bir qator omillar uning taxminiy darajasini mutaxassislar ishtirokida jahon mamlakatlarida mavjud bo'lgan "xufiyona iqtisodiyot"ning ulushini aniqlaydi.

2. Dunyo miqyosida yashirin iqtisodiyotning ulushi va O'zbekiston iqtisodiyotiga yashirin iqtisodiyotning ta'siri.

Umuman olganda, yashirin (xufiyona) iqtisodiyot tushinchasi jaxon amaliyotiga XX-asrning 30-yillaridan o'rganila boshladi va 1970-yillardan unga jiddiy e'tibor qaratildi.

Yashirin iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya'ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo'lganidan uning aniq hisob-kitobi bo'lmaydi. Buning o'rniga uni taxminan baholash usuli qo'llaniladi.

Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida er yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo'lgan. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda turlicha bir-biridan farqlanadi.

Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. 1999 yil Misr va Nigeriyada u yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo'ldi. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo'lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1—2%), G'arbiy Evropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida Yashirin iqtisodiyot darajasi o'rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan AQSh va Italiyada Yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 6,4

va 11,4% ni tashkil etdi (1997). Ayrim rivojlangan davlatlarda yillik yalpi ichki mahsulotning 14-15 foizi miqdorida yashirin iqtisod optimal hajm deb hisoblanadi.


Hozirgi davrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi oqibatida Yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib xalqaro darajaga ko'tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi Yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko'chirilishida, nojo'ya biznes ishlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo'lishida ko'rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g'ayri qonuniy yo'llar bilan topilgan pulni «halollab» olish kabilarni ko'rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tugdiradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib «halollab» olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot - Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etgan.

Rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning ijobiy taraflari ham kuzatilgan. Masalan, Evropa mamlakatlarida turg'unlik, krizis paytida ish o'rinlari qisqargan sharoitda xodimlar norasmiy sektorlarda vaqtincha ishlab turganlar. Bu esa ushbu ishsiz qolgan xodimlarni och qolish va qiyinchiliklarga duch kelishdan saqlab qolgan.

G'arb ekspertlarining ta'kidlashicha, mamlakat YaIM ning 40-50 %ini "xufiyona iqtisodiyot" tashkil etgan holat xavfli "bo'sag'a" hisoblanadi". Milliy iqtisodiy tizimi ushbu ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan mamlakatlar o'zini juda og'ir holatga tushgan, deb hisoblanadi. Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning hajmi va dinamikasini quyidagi omillar belgilaydi: - soliq solishning og'irligi; - olinadigan daromad miqdori; - ish vaqtining uzunligi; - ishsizlik miqyosi; - davlat sektorining roli. Mutaxassislarning fikricha, soliq va ijtimoiy to'lovlarning YaIMga bo'lgan nisbati 33% bo'lsa, bu yashirin iqtisodiyot ko'payishining keskin nuqtasi hisoblanadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda xufiyona iqtisodiyotning o'rtacha darajasi 17,2 foizni tashkil qiladi. Ammo bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda farq qiladi. Masalan, eng past ko'rsatkich AQShda 7,4 foiz, Xitoyda 10,1 foiz, Rossiyada 39,3 foiz bo'lib, bu borada eng yuqori ko'rsatkich Ozarbayjonda 56,7 foizni tashkil etadi.

Quyidagi 1-rasm ma'lumotlari orqali dunyoning ayrim mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyot ko'lamining qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.




1-rasm. Dunyoning ayrim mamlakatlarida xufiyona iqtisodiyotning YaIMga nisbatan ulushi o'zgarish dinamikasi⁷ (foizda).

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xufiyona iqtisodiyot ulushi eng past ko'rsatkich AQShga to'g'ri kelmoqda, ya'ni hozirgi vaqtda 7,42 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu holatni AQShda qonun ustuvorligi ta'minlanganligi, soliq to'lovchilarning madaniyati yaxshi rivojlanganligi hamda barcha soliq to'lovchilar umumdeklaratsiya asosida daromadlari va xarajatlarini oshkorlashtirish mexanizmi ta'minlanganligi bilan asoslash mumkin. Eng yuqori ko'rsatkich Ozarbayjon davlatiga to'g'ri kelmoqda, ya'ni YaIMga nisbatan 56,72 foizni, ushbu ko'rsatkich kelgusida yanada ortib borishini nazarda tutilgan. Ushbu holat Ozarbayjonda xufiyona iqtisodiyotga ta'sir etuvchi salbiy omillar rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (PROON)ning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi dunyo bo'yicha o'rtacha 17,2% tashkil etgan bir paytda, mazkur ko'rsatkich MDH davlatlari Ukrainada 44,8 %, Tojikistonda 43 %, Qozog'istonda 38,9%, Rossiyada 38,4 %, Qirg'izistonda 37,9 % tashkil etadi.

⁷ www.accaglobal.com Future shadow economy - ACCA Global. pi-shadow-economy.pdf



Har ikkala manba ma'lumotlari bo'yicha taqqoslaganda ham O'zbekiston yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichi 48,7 foizni tashkil etadi.

Sohalar kesimida ko'rib chiqilsa, mazkur ko'rsatkich savdo va transport vositalarini ta'mirlash sohasida 75%, qurilish sohasida 50%, ishlab chiqarish sohasida 45%, baliqchilik, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida 40%, transportda tashish va saqlash 21% va xizmatlar sohasida 30 %ni tashkil etadi.



Хуфиёна иқтисодийотнинг тармоқлар қисмида улushi, %да

Mazkur sohalarning nazoratini kuchaytirish, ularga nisbatan ta'sirchan choralarni ko'rish, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida nazorat organlarining, shu jumladan, davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi hamda ularning vakolatlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

3. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Butun dunyo tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, jahondagi barcha mamlakatlarda ma'lum darajada korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot mavjud. Dunyo

tajribasi bu illatni kamaytirish mumkinligini, biroq uni butunlay yo'q qila olmasligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramay, ayrim davlatlar xufiyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishda ijobiy natijalarga erishgan.

Bunda ular, asosan, naqd pul muomalasidan maksimal darajada voz kechish, iqtisodiyotda elektron yoki naqd pulsiz to'lovlar tizimini joriy etish orqali ijobiy natijalarga erishganlar. Ko'plab mamlakatlarda elektron to'lovlarni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator choralar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi va ta'sirini minimal darajada kamaytirishga erishilgan. Bu esa oddiy aholi turmush darajasi yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratgan.

Avvalo, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni asta-sekinlik bilan qonuniy belgilangan tartibda qonuniy ishlashga o'rgatish lozim bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan noqonuniy shug'ullangan va o'z daromadlarini yashirgan barcha tadbirkorlik sub'ektlariga amnistiya qo'llash, ya'ni belgilangan amnistiya muddati ichida tadbirkorlar o'z daromadlarini hech qanday to'siqsiz va ortiqcha tekshiruvlarsiz qayd etib, legallashtirishlari hamda faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qonuniy choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli qarori bilan:

2020 yil 1 iyuldan o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 63 ta faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlandi;

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilandi;

2020 yil 1 iyuldan boshlab, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish xabar berish tartibida o'zini o'zi band qilgan sifatida ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) bergan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi hamda vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish tartibi bekor qilindi;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar 2020 yil uchun ijtimoiy soliqni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtdan qat'i nazar bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to'lash va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o'rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanishi;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun nazarda tutilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi, ishtirokchilari soni kamida uch nafar bo'lgan oilaviy korxonalar aylanmadan soliqni belgilangan miqdordan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to'lash belgilandi.

O'zbekistonda valyuta qora bozorini yo'q qilish uchun noqonuniy valyuta qora bozorlarini qonuniylashtirgan holda belgilangan intervallar doirasida bozor narxlarida savdo qiluvchi valyuta ayirboshlash shoxobchalarini tashkil qilish lozim. Naqd xorijiy valyutani bemalol rasmiy soliq to'lab faoliyat yuritadigan xususiy shoxobchalarda almashtirish imkonini berish kerak.

Davlat tomonidan naqd pulsiz savdo qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz preferentsiyalar berish orqali qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligini yanada ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, rivojlangan davlatlarda bugungi kunga kelib naqd pul muomalasi maksimal darajada qisqartirilgan, barcha pul aylanishi bank orqali amalga oshirilishi davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelishi hech kimga sir emas.

Keyingi yillarda biznesga qo'shimcha qulayliklar yaratish, xususan, valyuta bozori erkinlashtirildi, yangi soliq tizimi joriy etildi, 100 ga yaqin ruxsat berish va litsenziyalash qoidalari qisqartirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 avgustdagi **“Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi farmoni bilan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish hamda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2021 yil 1 yanvardan boshlab 45 ta faoliyat bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning bekor qilindi;

26 faoliyat turlari birlashtirish yo'li bilan bekor qilindi;

23 ta faoliyat turlari xabardor qilish tartibi joriy etilishi yo'li bilan bekor qilindi;

14 ta litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning ayrim turlarini rasmiylashtirish muddatlari qisqartirildi.

47 ta litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish belgilandi.

Shuningdek 2021 yil 1 yanvardan boshlab, turizm faoliyatini litsenziyalashda turoperatorlar xizmatlarini sertifikatlash ixtiyoriy etib belgilandi;

kredit byurolari faoliyatini litsenziyalashda kamida 10 ta tijorat banki bilan kredit almashinuvini amalga oshirishga roziligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi talabi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyatini litsenziyalashda ushbu faoliyat uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ularning xuddi shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi filiallari tashkil etilganda har bir filial manzilini asosiy litsenziyada ko'rsatish amaliyotini joriy qilish orqali filiallarga alohida litsenziya rasmiylashtirish amaliyoti;

er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziya olishda talabgordan mahalliy davlat hokimiyati organlarining kafolat xatlarini olishni talab qilish tartibi bekor qilindi.

Qayd etish jilziki, mamlakatimizda keyingi ikki yil davomida yashirin iqtisodiyotning ta'sirini kamaytirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi O'RQ-419-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 23 ta moddadan iborat bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, qonunda korrupsiyaga oid tushunchalarga izoh berilib:

korruptsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik — korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushunilishi qayd etilgan.

Qonunning 4-moddasida, korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiyrintsiplari belgilangan bo'lib ular qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi printsiplaridan iborat.

Qonunda, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilangan:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi printsiptini ta'minlash.

Qonuning 26-moddasida, davlat organlari xodimlarining korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati belgilangan bo'lib, unga ko'ra Davlat organlarining xodimlari ularni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

Ushbu majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shuningdek Qonunda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari ham belgilanib, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin. Yuridik shaxslar korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O'z navbatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi (28-modda). Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Shuningdek 2018 yil 7 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi va unda O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shilishi belgilandi

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "Korrupsiyaga qarshi kurash va sud huquq masalalari qo'mitasi" tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari etib, barcha qonun va qonunosti hujjatlarida korrupsiya alomatlari mavjud bo'lgan normalarni aniqlash va bartaraf etish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro'yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanishi;

o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik printsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunishi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdorligi;

Agentlik direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi direktor tomonidan boshqarilishi belgilandi.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-

sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalar va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplaens-nazorat») hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralari ko'rilishini ta'minlash;

davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaktsinasi») va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaning holati, tendentsiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "Yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unda "Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Qarorda belgilangan tadbirlarda quyidagi ustuvor vazifalarni hayotga joriy etilishi nazarda tutildi:

-iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

-iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markirovkalash;

-iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish;

-bank xizmatlarining ommabopligini oshirish;

-«yashirin iqtisodiyot» sub'ektlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish;

-tashqi savdoda «yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo'yicha samarali tizimni joriy etish;

-«yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo'yicha keng targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid **davlat dasturida**, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organini tashkil etish, faoliyatining huquqiy asoslarini, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organining vazifa va funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilash;

Shuningdek, Yashirin iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va ushbu loyihalarda:

xorijiy mutaxassislar ishtirokida «yashirin iqtisodiyot»ning vujudga kelish omillarini tahlil qilish va unga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqish;

yakka tartibdagi tadbirkorlar noqonuniy faoliyatini qisqartirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

internet-savdo (elektron tijorat) sohasidagi sub'ektlarni aniqlash tartibini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashni hisobga olgan holda soliqqa tortish mexanizmini ishlab chiqish;

«E-ombor» tovarlarni hisobga olishning elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etish, import qilinadigan tovarlar bo'yicha elektron shaklda hisobotlarni tayyorlashni ta'minlash;

import qilingan oziq-ovqatlar, ma'danli va gazlangan suvlar, tarkibida alkogol bo'lmagan boshqa ichimliklarni majburiy markirovka qilishni bosqichma-bosqich joriy etish;

coliq organlarida markirovka qilish majburiy bo'lgan tovarlarni hisobga olishning elektron bazasini yaratish;

o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning faoliyatini tartibga solishni yanada takomillashtirish, ularni soliqqa tortish, ish stajini hisobga olish va faoliyat yuritish tartibini soddalashtirish;

savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sub'ektlari tomonidan ishlatilayotgan turli dasturiy mahsulotlarni Davlat soliq qo'mitasining Ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga integratsiya qilish;

bankomatlar orqali naqd pul mablag'ini bank plastik kartalari yoki bank hisob raqamlariga o'tkazish imkoniyatini yaratish;

mazkur karta va hisob-raqamlar egalariga amalga oshirilgan operatsiya qiymatining ma'lum miqdorida bonuslar taqdim etish tartibini joriy etish nazarda tutilishi belgilandi.

5. Soliq sohasida yashirin iqtisodiyotning oldini olish yo'llari.

Ma'lumki, soliq sohasida huquqbuzarlik sodir etishga qasd - real xo'jalik faoliyatiga taqlid qilib, buzilgan, sun'iy, yolg'on shartnomaviy munosabatlarni tuzishga qaratilgan harakatlar majmui hisoblandi. Soliq huquqbuzarligi, uni sodir etgan shaxs o'z harakatlarining noqonuniy xususiyatidan xabardor bo'lgan, bunday harakatlar (harakatsizlik)ning zararli oqibatlari sodir etilishini bilgan yoki ataylab yo'l qo'ygan bo'lsa, qasddan sodir etilgan hisoblanadi.

Bunday holatlarning qasdan sodir etilganligini aniqlash uchun bevosita dalillar bo'lishi lozim va bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- guvohlarning ko'rsatmasi;
- shaxsning haqiqiy niyatlarini ochib beruvchi musodara qilingan hujjatlarning mavjudligi va ularni amalga oshirish ("qora buxgalteriya hisobi" ning yozuvlari, hujjatlari yoki fayllari);
- video va audio yozuvlar;
- telefon va boshqa suhbatlarni tinglash natijalari.

Lekin bunday niyatni bevosita dalillarsiz isbotlash juda qiyin.

1. Soxta operatsiyalar (soliqlarni optimallashtirish sxemalari orqali bir kunlik firmalarni aniqlash).

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning klassik sxemasi – sotib olingan tovarlar yoki xizmatlar qiymatini oshirish maqsadida - xarajatlar qismini oshirib ko'rsatish yoki daromad qismini yashirish maqsadida, ya'ni tovarlar past narxlarda sotilishini kamrab olish va uning kontragentlari noqonuniy soliq engilliklarni, ya'ni soliqlarni kam to'lagan holda o'z manfaati uchun ko'proq daromad olishga qaratilgan soxta hujjat oqimini yaratganligini isbotlashi kerak.

Buning uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlashda soliq organlari **soxta bitimlarni** isbotlashlari lozim. Bunda:

a) koxona raxbarlarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ijrosi va qabul qilish uchun mas'ul shaxslarni, shuningdek soliq to'lovchi tashkilotning buxgalterlari va uning pudratchilarini shubhali shartnoma tuzish va ijro holatlarni haqida surishtirish;

b) shubhali moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni, shu jumladan ixtiyoriy hujjatlarni (yozishmalar, arizalar, yig'ilish bayonnomalari, ombor daftarlari, kirish va chiqish jurnallari, o'tish qaydnomalari va boshqalarni) tahlil qilish.

v) hujjatlarni tahlil qilish va nomuvofiqliklarni topish uchun ma'lumotlarni taqqoslash, masalan: shartnomada (yoki uning ilovalarida) tovarlar donabay miqdor birligida berilib, hisobvaraqa-faktura va fakturalarda esa-tonnada ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek, zarur bo'lsa, qo'l yozuvini ekspertizasini amalga oshirishni tayinlashi mumkin, asosiy buxgalteriya hujjatlar haqiqiylikini tekshirish;

g) soliq to'lovchining kontragentlari orasida xavf guruhiga mansub tashkilotlar (bir kunlik firmalar, affillangan tashkilotlar) aniqlansa, ular ushbu tashkilotlarni soliq to'lovchining mansabdor shaxslari bilan bog'lashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

d) xorijiy hamkorlar mansubligi isbot qilingan taqdirda, O'zbekistonda xorijiy kompaniyalar manfaatlarini ifodalovchi shaxslar haqida ma'lumotlarni tekshirish, soxta yoki yo'q nomzod direktorlar borligini aniqlash va bankdan xorijiy hamkorlar operatsiyalari haqida ma'lumotni talab qilishlari lozim. Barcha sxema yakuniy benefitsiar va bitimlarning haqiqiy maqsadini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

e) bir kunlik firmalarning muhrlari, affillangan tashkilotlar blankalari, fleshdisklar, serverlar, jetonlar, rotokin va boshqalarni qidirishda binolarni (ofislarni) ko'zdan kechirishni amalga oshirish;

j) bir kontragentning (bitta xodim) o'z shartnomani bajarish mumkin emasligini hisobga olib tovarlar xarakatini o'rganish (tovarlar etkazib berish uchun) va mahsulot ishlab chiqaruvchini, haqiqiy provayder yoki xizmat ko'rsatuvchi pudratchini aniqlash, ombor bor yo'qligini aniqlash, va tovarlar harakatini ham haqiqiy holatini va ham buxgalteriya hisobotini tahlil qilish;

z) mahsulot ishlab chiqaruvchilarning etkazib berish hajmi va haqiqiy ishlab chiqarish quvvatini tahlil qilish lozim bo'ladi.

2. Maxsus rejimni qo'llash maqsadida biznesni ajratish (droblenie).

Yuqori moliyaviy natijalarga erishi uchun qonun tadbirkorlar tomonidan biznesni ajratishni, bo'linishini taqiqlamaydi – lekin, soliq organlari biznesni bo'lishda, ajratishda biror bir g'ayirli niyat borligini isbotlashlari lozim.

Buning uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash kerak:

- korxonalar alohida-alohida bo'lgandan so'ng bir xil turdagi faoliyatni amalga oshiradi, bir xil yuridik manzilda joylashgan, bir xil binolardan, xodimlardan foydalanadi, yagona moddiy-texnik bazaga ega, bir xil mijozlar, yagona ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan yagona kompleksdan iborat bo'lishi;

- bir kishi tomonidan soliq va buxgalteriya hisobotlarini yuritish, bir mijozga xizmat ko'rsatish;

- tashkilotlar xodimlari o'z ish vazifalariga muvofiq bir xil ishni bajarish, xodimlar bir xil logotipli kiyimlarda bo'lishi mumkin;

- korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq buxgalteriya hujjatlari va hujjatlarini birgalikda saqlaydilar va yagona IP-manzildan foydalanadilar;

- bir xil banklarda bir xil shaxslar tomonidan ochilgan kompaniyalarning joriy hisobvaraqlari;

- inventarizatsiyani boshqarish uchun yagona ta'minot menejeri javobgarligi;

- o'zaro bog'liq shaxslar guruhi korxonalaridan birida olingan daromad "soddalashtirilgan" chegaraga yaqinlashsa, mijozlar bilan shartnomalar bekor qilinadi yoki shu shartlar asosida boshqa bir-biriga bog'liq korxonalar bilan qo'shimcha shartnomalar tuziladi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning bunday sxemasini aniqlash uchun soliq organlari kompaniyaga tekshirish bilan kelishlari kifoya.

3. Imtiyozli soliq stavkalarini qo'llash.

Soliq to'lovchi daromadlarni soliq to'lashdan yashirish uchun bino va uskunalarni 0% miqdorida daromad solig'i to'laydigan maxsus iqtisodiy zona (MIZ)ning rezident-kompaniyasiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, soliq to'lovchi MIZ rezidentidan xuddi shu aktivlarni ijaraga oladi. Natijada, soliq to'lovchi daromad solig'ini kamaytiradigan xarajatlarga ega va rezident-benefitsiar soliq to'lamaydigan daromadga ega.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash uchun soliq organlari ijara narxini tahlil qilib, yuqoriligi aniqlansa, bilingki bu erda daromadlarni yashirish holati hosil bo'ladi. Qolaversa, kompaniyalarning o'zaro bog'liqligi va harakatlar izchilligini isbotlash mumkin bo'ladi.

4. Shartnomalarni almashtirish.

Amaliyotda ko'pincha oldi-sotdi shartnomasining o'rnini almashtirish mavjud bo'lib, u sharoitga qarab komission bitim sifatida, lizing shartnomasi sifatida yoki ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish shartnomasi sifatida taqdim etiladi. Avans bo'yicha QQSni oldini olish maqsadida kompaniyalar kredit shartnomasini tuzadilar, tovarlar jo'natilgandan so'ng esa qarz mablag'lari to'lov hisobiga olinadi. Yoki kontragent bilan komissiya shartnomalarini tuzadilar, garchi ular aslida tovarlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirsalar ham.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemasi belgilari:

Komissiya shartnomasi. Kommitent komissiya agenti tomonidan tovarning yakuniy sotilishiga qadar QQS va daromad solig'ini to'lamaydi. Bu vaziyatda soliq, birlamchi hujjatlar va bitim shartlari tahlil: komissiya agenti (agent) hisoboti, pul o'tkazish sanasi, shartnoma shartlarini o'zgartirish, muayyan muddatdan kechiktirmay to'lash haqida sharti, qat'i nazar, uning amalga oshirish qismlarida tovarlar uchun

to'lov o'tkazish sharti. Vositachilik shartnomalari bo'yicha komissiya agenti hisoboti (yoki agentning Agentlik shartnomasi bo'yicha hisoboti) tuzilishi kerak.

Komissiya shartnomasi Kommitentning zimmasida bajarilishi kerak. Agar joriy hisob-kitoblar bo'yicha pul oqimlarini tahlil qilish chog'ida soliq organlari mol-mulkni sotishdan oldin pul mablag'larining o'tkazmasini topsalar, ular shartnoma vositachilik munosabatlarining huquqiy xususiyatiga zid bo'lgan komissiya agenti hisobiga bajariladi, degan xulosaga keladilar. Tovar to'lash shartining shartnomada ma'lum muddatdan kechiktirmay bo'lishi ham vositachilik bitimi tushunchasiga zid keladi.

Lizing shartnomasi. Moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo'yicha lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan belgilangan mol-mulkka egalik huquqini o'zi belgilagan sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga bu mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Oldi-sotdi shartnomalari lizing shartnomalari bilan almashtirilgan hollarda, to'lov aslida uzilishlarda amalga oshiriladi va lizing to'lovlari sifatida belgilanadi.

Lizing shartnomasining asosiy foydasi shundan iboratki, uning qo'llanilishi soliq to'lovchiga tezlashtirilgan amortizatsiyadan foydalanish imkonini beradi, ya'ni asosiy vositalar qiymati daromad solig'i xarajatlari sifatida uch barobar tezroq hisobdan chiqariladi.

Ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish bo'yicha kelishuv. Ustav kapitalidagi aktsiyalarni sotish QQS bilan bog'liq emas. Shuning uchun, QQS to'lash oldini olish uchun, soliq to'lovchilar ba'zan ustav kapitalida bir ulushini sotish kabi ko'chmas mulk yoki uskunalar sotish ro'yxatdan. Masalan, "sotuvchi" xaridor bilan mol sotishga rozi bo'ladi. Buning uchun, minimal ustav kapitali bilan MChJ yaratadi, va keyin kredit shartnomasi orqali uning ustav kapitaliga katta hissa qo'shadi. Bu qarz puli bilan yangi tashkil etilgan MChJ nazorat ostida soliq to'lovchi – "sotuvchi"dan ko'chmas mulk ob'ektini sotib oladi. Shundan so'ng xaridor ushbu MChJda ulushga ega bo'ladi. Bunday holda ulushni sotib olish bo'yicha bitim ko'chmas mulkni sotib olish va sotish bo'yicha bitimni qamrab oladi.

3-mavzu. Mamlakat tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining ahamiyatini oshirish masalalari.

R E J A

3. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

4. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni tartibga solishdagi asosiy o'zgarishlar.

3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosati bo'yicha resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

1. Tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda byudjet soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va tabiiy resurslarning cheklanganligi, ular ko'pchiligining qayta tiklanmasligi mavjud tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish evaziga jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga erishish zaruratini taqozo etadi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni to'liqroq qondirishda va respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biri shubhasiz, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida tabiiy resurslardan, jumladan er, suv, er osti boyliklaridan samarali va oqilona foydalanishning naqadar ahamiyatli ekanligi ko'p bora ta'kidlab o'tilishi, respublikamizda tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishning zarurligi davlat siyosati darajasi sifatida qaralishining yorqin ifodasidir. "Afsuski, keyingi paytlargacha bizda er osti boyliklari, er, suv va qayta tiklanmaydigan boshqa tabiiy resurslardan soliq undirish tamomila tan olinmay kelinardi. Bunda korxonalariga tabiatdan foydalanish va atrof muhitni ekologik jihatdan muhofaza qilish qonunlari bilan hisoblashmasdan bebaho, o'rni to'ldirilmaydigan tabiiy boyliklardan vahshiyona foydalanish imkoni berilar ediki, bu bilan biz o'zimizning haqimizga ham, avlodlarimizning haqiga ham xiyonat qilib kelardik"⁸.

Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda amalga oshirilgan soliq tizimidagi islohotlarda resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim

⁸ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 360-361-бетлар.

iqtisodiy mexanizmi bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar joriy etilishiga qaratildi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning muhim ko'rinishi, ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy etilgan soliqlardir. Bunday soliqlar mohiyatiga ko'ra tabiiy resurs soliqlari sifatida e'tirof etilib, mamlakatimiz soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirishda ularga katta e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi muhim ustuvor vazifalardan biri shubhasiz, soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. «Bu o'rinda asosiy yuk tabiiy, mineral xom-ashyo, er-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishi lozim»⁹. Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq'larga keng e'tibor berilishining naqadar aqamiyatli ekanligini mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yuqorida qayd etilgan fikrlaridan ham ko'rish mumkin.

Shu ma'noda respublikamizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish, ularning ahamiyatini oshirish masalalariga doir xulosalarni asoslash, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ilmiy jihatdan asoslash o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatning tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq siyosati ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar joriy etish;
- imtiyozli soliqqa tortish va soliqdan ozod qilish.

Mamlakatimiz soliq tizimida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq'larga: er solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi.

Joriy etilgan maxsus soliqlar orqali tabiiy resurslardan foydalanish muayyan darajada tartibga solinsa, imtiyozli soliqqa tortish orqali esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiatni muhofaza qilish tadbirlari rag'batlantiriladi. Shuningdek, ayrim tabiiy resurslardan me'yorida ortiq foydalanganlik uchun iqtisodiy jazo choralari ham belgilangan.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq soliqlarning joriy etilishi fiskal ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda, resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda tabiiy resurslarga boy o'lkamizda ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus to'lovlarning maqbul tizimining joriy etilishi, bir tomondan tabiiy resurslarni davrlar

⁹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Президент Ислон Каримовнинг Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. //Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.

bo'yicha teng taqsimlagan holda ulardan samarali va oqilona foydalanish zarurati bilan ifodalansa, ikkinchi tomondan esa, tabiiy resurslarni qayta tiklash va sifat holatini yaxshilash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning umumiy mohiyati bevosita soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi moliyaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat byudjetiga resurslar jalb etish, yuridik va jismoniy shaxslar iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Soliqlar yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Ularning manbai milliy daromad hisoblanib, ishlab chiqarish omillari, ya'ni mehnat, kapital va tabiiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etish jarayonida yangidan yaratilgan qiymatdan undiriladi. Soliqlar davlat tomonidan o'zlashtirilib, uning mulkiga aylanadi va davlat tomonidan o'z funktsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladi.

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashda mamlakat soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ko'plab mamlakatlar tajribasi o'zining muayyan ekologik samaradorligini ko'rsatayotganligini hisobga olgan holda, tabiiy resurs soliqlari bajaradigan vazifalar borasida ham turli fikrlar mavjudligini e'tirof etish lozim. Xususan, tabiiy resurs soliqlari ekologik soliqlar sifatida, amal qilish jarayonida ikki vazifani:

birinchidan, tabiiy resurslar bahosiga ta'sir etish orqali, ulardan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish;

ikkinchidan, jamiyatga etkazilgan ekologik zararlar butun jamiyat hisobidan emas, balki jamiyatga zarar etkazuvchilar tomonidan kompensatsiya qilinishi lozimligi ta'kidlanadi¹⁰.

Ushbu fikrlardan ko'rishimiz mumkinki, bu erda tabiiy resurs soliqlari bajarishi lozim bo'lgan vazifalarga odilona, bozor qonun-qoidalari asosida yondashilib, ularning tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish vazifasi va fiskal vazifasi e'tirof etilgan.

Qayd etganimizdek, tabiiy resurs soliqlarini joriy etishdan asosiy maqsad, ulardan samarali va oqilona foydalanishni tartibga solish va rag'batlantirishdan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishda davlat tomonidan belgilanadigan iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliq mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lgan soliqlarning joriy etilishi natijasida tovar bahosiga, ya'ni uning taklifiga ta'sir ko'rsatilib, xo'jalik

¹⁰ Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. Учебное пособие. –М.: ТЕИС, 1997. 206 стр.

yurituvchi sub'ektlarning iloji boricha tabiiy resurslardan intensiv tarzda, samarali va oqilona foydalanish evaziga o'zi ishlab chiqargan tovarga talab va taklif muvozanatini saqlashga bo'lgan moyilligini kuchaytiradi.

Shu o'rinda quyidagi fikrlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: "Resurslar cheklanganligidan jamiyat o'z ehtiyojini qondirish uchun mehnat unumdorligini oshirish yo'lidan boradi. Resurslar kamyob bo'lar ekan, ularni tobora ko'proq ishlatish orqali ehtiyojlarni to'la qondirib bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat resurslarni tejab ishlatish yo'lga o'tadi, resurs birligidan ko'proq mahsulot oladi, bunda ham moddiy ham mehnat resurslaridan tejaladi"¹¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ham ko'rishimiz mumkinki, jamiyatda resurslar cheklangan ekan, cheksiz ehtiyojlarni qondirishning birdan-bir vositasi ulardan intensiv tarzda, tejamkorlik bilan foydalanishni talab etadi.

Soliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim. Aks holda soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat manfaatlarining uyg'unlashishiga emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omilga aylanishi mumkin.

Shuningdek, bu esa o'z navbatida davlatning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini to'liq bajarishiga imkon bermaydi. Natijada har ikki tomon manfaatlari ham qanoatlanmaydi. Shuning uchun boshqa tizimlar kabi soliq tizimi ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mutanosib holda takomillashib borishi va bu jarayonda uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-son farmoni er uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, er va suv resurslari, er qa'ridan qazib olinadigan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish maqsadida qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2021 yil 1 yanvardan boshlab:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilash;

¹¹ Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. –Т.: Меҳнат, 1995. 44-45 бетлар.

tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi beriladigan bo'ldi.

Shuningdek, 2021 yilda soliq yukining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida:

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi belgilandi.

Bundan tashqari, farmon bilan, 2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari ma'qullandi:

dehqon xo'jaliklari va meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalariga er solig'ini hisoblashda er solig'i stavkasini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar uchun o'rnatilganidek belgilagan holda, joylashgan joy va etishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekin turlari koeffitsientlari hamda qishloq xo'jaligi ekinzorlari normativ qiymatidan kelib chiqib hisoblash tartibini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan erlarga soliq solish tartibini birxillashtirish;

barcha turdagi chiqindilarni saqlash va ularni utilizatsiya qilish uchun ajratilgan er uchastkalarini yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i uchun soliq solish ob'ektidan chiqarish;

tegishli suvni hisoblash hisoblagichlari mavjud bo'lganda, ishlab chiqarish jarayonida agregatlarni (turbinalarni) sovutish uchun suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliqqa tortish bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib tashlangan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib hisoblash;

kommunal xizmat ko'rsatish korxonalariga uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 2020 yil darajasida saqlab qolish, qishloq xo'jalik erlarini sug'orish va baliqlarni ko'paytirish (etishtirish) uchun foydalanilgan suv hajmi qismida esa, shu jumladan dehqon xo'jaliklariga 1 kub metr uchun 40 so'm miqdorida yagona soliq stavkasini belgilash;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda turli maqsadlarda foydalaniladigan suv resurslari hajmining hisobini alohida-alohida yuritish tartibini kiritish;

er qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan soliq organlariga foydali qazilmalar zaxirasi harakati to'g'risidagi hisobotni er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha yillik soliq hisobotini taqdim etish bilan bir vaqtda, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda taqdim etish tartibini belgilash.

Soliq yukini kamaytirish maqsadida, 2021 yil 1 yanvardan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududlaridan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan «Xavfsiz daryo» davlat unitar korxonasi daryo o'zanlarini tozalash natijasida olingan qum-shag'al materiallarining har bir kub metri uchun to'lov miqdori shartnoma tuzilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizidan 0,1 foiziga tushirilishi;

noruda foydali qazilmalari konlarini o'zlashtirish va ularning samarali qazib olinishini ta'minlash maqsadida noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan er qa'ri uchastkalaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish belgilandi.

Bulardan tashqari, farmon bilan foydali qazilmalarni haqiqiy qazib olishga nisbatan qo'llaniladigan va foydali qazilmalarni me'yordan ortiq yo'qotish to'g'risidagi geologik-marksheyderlik ma'lumotlarining haqqoniyligini nazorat qilish uchun Davlat soliq qo'mitasiga zarur uskunalarni xarid qilgan holda viloyatlar soliq boshqarmalarining shtat birliklari doirasida 3 shtat birligigacha marksheyderlarni jalb qilish;

davlat soliq xizmati organlariga vakolatli organ va sudlarga er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan soliq qonunchiligi muntazam ravishda buzilgan va (yoki) foydali qazilmalar zaxirasi harakati to'g'risidagi hisobot taqdim etilmagan taqdirda litsenziyani chaqirib olish yoki to'xtatib turish masalasi bo'yicha tashabbus bilan chiqish vakolati berildi.

Farmonda belgilangan muhim yangiliklardan yana biri, mol-mulk va er soliqlarini ko'chmas mulk (bino, inshoot va er uchastkalari) ob'ektlarining bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etilishining belgilanganligidir.

Unga muvofiq, ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida mol-mulk va er soliqlarini hisoblash tizimi quyidagi ikki bosqichda joriy etish:

birinchi bosqichda (2021 — 2023 yillar) — ko'chmas mulk bo'lgan turar-joy fondi ob'ektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu ob'ektlar egallagan er uchastkalariga nisbatan;

ikkinchi bosqichda (2022 — 2024 yillar) — yashash uchun mo'ljallanmagan alohida ko'chmas mulk ob'ektlari, shuningdek, ushbu ob'ektlar egallagan er uchastkalariga nisbatan.

Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamas, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitaga, zarurat tug'ilganda xorijiy ekspertlarning xizmatiga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan haq to'lagan holda ularni jalb qilish orqali;

- ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish va kadastr tizimini modernizatsiya qilish uchun Jahon bankidan imtiyozli kreditlar jalb qilishni;

-2021 yil 1 aprelga qadar xalqaro moliya institutlari ekspertlari bilan birgalikda ko'chmas mulk ob'ektlariga soliq solishni yanada takomillashtirish bo'yicha er solig'i va mol-mulk solig'ini o'rniga ko'chmas mulk solig'ini kiritishni nazarda tutuvchi «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- ko'chmas mulk ob'ektining (bino, inshoot va er uchastkalari) yuridik yoki jismoniy shaxs egaligida bo'lishi emas, balki ularning kadastr qiymatidan va ob'ektning foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda soliq solish tartibi bixillashtirilishi va er solig'i bo'yicha advalor stavkalarni kiritishni;

shu bilan birga belgilangan tartibda quyidagi loyihalar kiritilishini:

2021 yil 1 avgustga qadar - kadastr qiymatini maksimal darajada bozor bahosiga yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratgan holda, turar joy fondi ko'chmas mulki ob'ektlarining kadastr qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurish va uy-joyga xizmat ko'rsatish ob'ektlari bilan band bo'lgan er uchastkalarining kadastr (bozor) qiymatini aniqlash tartibini kiritish bo'yicha;

2021 yil 1 noyabrga qadar — yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari va ushbu ob'ektlar bilan band bo'lgan er uchastkalarining bozor bahosiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan kadastr qiymatini aniqlash mexanizmini kiritish to'g'risida hukumat qarori loyihalarini tayyorlash;

2021 yil 1 dekabrga qadar - foydalanishga ruxsat etilgan er uchastkalari turlari klassifikatorlari va ularga bo'lgan huquqlarni tugatish uchun asoslarni nazarda tutuvchi Er kodeksining yangi tahriri loyihasini;

-2021-2022 yillarda respublikaning quyidagi «tajriba-sinov» hududlarida er uchastkalaridan foydalanilishiga va kapital qurilish ob'ektlarining belgilangan maqsadiga qarab ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor qiymatiga asoslangan kadastr qiymatini aniqlash bo'yicha eksperiment o'tkazilishini:

turar va noturar (tijoriy) joylarga mo'ljallangan ko'chmas mulk ob'ektlari — Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani;

sanoat ob'ektlari — Navoiy viloyati Navoiy shahri;

rekreatsion zonalar va alohida qo'riqlanadigan hududlar ob'ektlari — Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ob'ektlar — Buxoro viloyati Romitan tumani ta'minlash belgilandi.

Buning uchun, 2021 — 2024 yillar davomida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulklarni baholashni o'tkazish uchun Davlat soliq

qo'mitasining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko'ra Davlat byudjetidan mablag' ajratib borish Moliya vazirligiga yuklatildi.

Shu bilan birga Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga 2022 yil 1 yanvarga qadar ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatini ularning bozor bahosiga asoslangan holda aniqlash, har bir egalik qiluvchiga (foydalanuvchiga) tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratish uchun axborot tizimini takomillashtirish, ko'chmas mulk ob'ektlarini ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda sifatli baholashdan o'tkazish metodikasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, farmonda, byudjet daromadlarini barqarorlashtirish maqsadida, 2021 yil 1 iyuliga qadar ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda o'rmon xo'jaliklari, baliq ovlash xo'jaliklari, ovchilik xo'jaliklari, shuningdek, istirohat bog'larini soliqqa tortish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga yuklatildi.

Prezidentimizning mazkur farmoni bilan ayrim me'yoriy hujjatlarga jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 avgustdagi «Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4816-son qaroriga o'zgartirish kiritilib, unda baliqchilik xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan foydalanilgan suvning haqiqatda iste'mol qilingan hajmini aniqlash imkoni bo'lmaganda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi belgilangan suvni iste'mol qilish normativlarining 50 foizi miqdorida belgilashni 2020 yildan qo'llash huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi "er hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pf-6061-son farmoni bilan, er maydonlarining hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish tadbirlari belgilandi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining qishloq xo'jaligi erlari va ekinlarini monitoring qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, qishloq xo'jaligi erlarini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish, tuproq bonitirovkasini o'tkazish, qishloq xo'jaligi erlarining me'yoriy qiymatini aniqlash, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishga doir vazifalari, funktsiyalari hamda vakolatlari Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlarning tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida ularning monitoringini o'tkazish O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi doirasida amalga oshirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etilib, Kadastr agentligining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida:

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

davlat er kadastr, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga va er uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali er nazoratini amalga oshirish;

- geodeziya va kartografiya sohasida:

geodeziya va kartografiya sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

aerokosmik suratga olish, topografiya-geodeziya, kartografiyaga oid izlanishlar hamda tadqiqotlarni, erlarni masofadan zondlash, geodinamik tadqiqotlar ma'lumotlari va materiallaridan foydalangan holda kartografik monitoringni amalga oshirish;

davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritish;

davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;

- davlat kadastrlarini yuritish sohasida:

davlat kadastrlarini yuritish sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish, hududlar davlat kadastrining samarali yuritilishini ta'minlash;

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini ta'minlashga qaratilgan samarali kadastr nazoratini amalga oshirish;

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlarini yuritish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash.

Shu bilan birga, farmon bilan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning, shu jumladan er uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish va ijaraga

olish huquqining vujudga kelishi, o'zgarishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi faqat davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin kuchga kirishi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat etmaslikda aybdor shaxslarga ma'muriy javobgarlik belgilanishi;

ko'chmas mulkning turi, tavsifi, hajmi, qiymati va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida uning kadastr yig'majildi tayyorlanishi belgilandi.

Bundan tashqari Farmon bilan, zaxirada turgan va yangi ajratilayotgan er uchastkalariga kadastr yig'majildi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarda - tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limining;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlarda - tuman (shahar) qurilish bo'limining murojaatiga muvofiq tuman (shahar) hokimligining buyurtmasiga asosan tayyorlanishi hamda ushbu xarajatlar er uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida mazkur er uchastkasiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qoplanishi;

er uchastkalariga bo'lgan huquqlar mazkur Farmon kuchga kirgunga qadar vujudga kelgan, biroq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan bo'lsa, ularga kadastr yig'majildini tayyorlash hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish huquq egalari buyurtmalariga asosan ularning mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

davlat organlari va tashkilotlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, shu jumladan o'rmon xo'jaliklari, suv xo'jaligi tashkilotlari, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, ijtimoiy muassasalarga berilgan er uchastkalariga kadastr yig'majildini tayyorlash hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish balansda saqlovchilarning buyurtmalariga asosan va ularning mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi;

kadastr yig'majildi Kadastr agentligi tomonidan shahodatlangan kadastr muhandislari hamda Kadastr agentligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan shartnoma asosida tayyorlanishi;

2020 yil 1 oktyabrdan boshlab, er uchastkalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi, o'zgarishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kirishi;

davlat er kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali to'plangan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi tartiblari belgilandi.

Shuningdek, Farmonda 2021 yil 1 yanvardan boshlab:

er turi, konturi, chegarasi va huquq egalari haqidagi barcha ma'lumotlar Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritilishi va onlayn geoportal Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinishi;

er balansi va uning hisoboti, tuman (shahar) er kadastrı daftari faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishi;

Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geoaxborot tizimida shakllantirilishi;

tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga faqat telekommunikatsiya tarmoqlari orqali to'g'ridan-to'g'ri taqdim etib borilishi belgilandi.

Bundan tashqari farmonda, er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik, er uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish hamda davlat kadastrlarini yuritish tartibini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar faqat Kadastr agentligi organlari tomonidan ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini;

ko'chmas mulk ob'ektlarining davlat kadastrı sohasida davlat xizmatlari narxlarini qayta ko'rib chiqish, shu jumladan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'imni kamaytirish bo'yicha hukumat qarori loyihasini vazirlar Mahkamasiga kiritish Kadastr agentligiga yuklatildi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab, qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymatini aniqlash va qayta baholash, tuproq bonitirovkasi va tuproq xaritalarining korrektirovkasini o'tkazish, sug'oriladigan erlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar tuzish, tuproq (er) monitoringini o'tkazish uchun Qishloq xo'jaligi vazirligiga yuklatildi.

Iqtisodiy sohadagi keng ko'lamli o'zgarishlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimini yanada takomillashtirishni ularni ajratish, ularning hisobini yuritish, nazoratini amalga oshirishning qulay imkoniyatlarini yaratadi.

3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yilgi byudjet-soliq siyosati bo'yicha resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga kiritilgan asosiy o'zgartirishlar.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda gi «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida'gi **O'RQ-659-sonli Qonuni** resurs soliqlari ma'murchiligi yo'nalishida soliq qonunchiligiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi.

1. Yer solig'i bo'yicha, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan erlar bo'yicha, shuningdek dehqon xo'jaliklari uchun soliqni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'ining bazaviy stavkasi va er uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib hisoblash tartibi

bekor qilindi va ularga qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatidan kelib chiqib to'lashga o'tkazildi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

2021 yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (*yuridik va jismoniy shaxslarning*) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab er solig'i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni qo'llagan holda er solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa – Soliq kodeksida belgilangan er solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida **0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda, belgilangan er solig'i stavkasiga tuman deputatlar Kengashlari tomonidan **soliq yukuni keskin oshishini oldini olish maqsadida 0,7 dan 1,3 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini birinchi yillarda qo'llash maqsadga muvofiq. **Alohida joylar** va respublikaning **turistik zonalaridagi** alohida er uchastkalari, shu jumladan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan **1 gektardan ortiq** er uchastkalariga **nisbatan 3,0 gacha** oshiruvchi koeffitsient qo'llanilishi mumkin (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyuldagi PF- 6027- sonli Farmoni*).

Shuningdek, **jismoniy shaxslarning** er maydonlari uchun olinadigan **er solig'i** (yakka tartibdagi tadbirkorlar va turistik zonalarda joylashgan er uchastkalaridan tashqari) **summasi** 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasining **1,3 baravaridan oshmasligi** belgilangan.

Bundan tashqari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari alohida er uchastkalariga, shuningdek turistik zonalarda joylashgan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan 1 gektardan ortiq er uchastkasiga er solig'ini 3 baravargacha miqdorda oshiruvchi stavkasini belgilash huquqiga ega.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalari joylashgan joydagi **soliq organlariga** soliq stavkalarini joriy soliq davrining **31 dekabriga qadar** taqdim etadilar.

Soliq kodeksida **yuridik shaxslar** bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan erlari uchun **bazaviy** soliq stavkasi, **respublika hududlari kesimida 1 gektar** uchun mutlaq miqdori quyidagicha belgilandi:

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so'mda
Toshkent shahri:	
1 zona	208,2
2 zona	166,5
3 zona	124,9
4 zona	83,3
5 zona	41,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,2
Andijon viloyati	33,0
Buxoro viloyati	26,7
Jizzax viloyati	26,7
Qashqadaryo viloyati	26,7
Navoiy viloyati	26,7
Namangan viloyati	33,0
Samarqand viloyati	33,0
Surxondaryo viloyati	23,5
Sirdaryo viloyati	20,8
Toshkent viloyati	27,6
Farg'ona viloyati	26,7
Xorazm viloyati	26,7

Soliq kodeksida **jismoniy shaxslar** bo'yicha **respublika hududlari kesimida** bazaviy soliq stavkalari **mutloq miqdorda 1 kv.m.** uchun, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan erlardan tashqari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Respublika hududlari	1 kv.m. uchun bazaviy soliq stavkasi, so'mda
-----------------------------	---

Toshkent shahri:	
1 zona	1193,6
2 zona	1013,2
3 zona	832,6
4 zona	652,3
5 zona	471,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	245,0
Andijon viloyati	297,6
Buxoro viloyati	245,0
Jizzax viloyati	245,0
Qashqadaryo viloyati	245,0
Navoiy viloyati	245,0
Namangan viloyati	297,6
Samarqand viloyati	297,6
Surxondaryo viloyati	221,6
Sirdaryo viloyati	191,8
Toshkent viloyati	252,2
Farg'ona viloyati	245,0
Xorazm viloyati	245,0

Yuridik shaxslar uchun quyidagilar egallagan er qismi bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi:

turistik zonalarda joylashgan, sanatoriy-kurort ob'ektlari;

onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga turistik zonalarda alohida sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun er solig'ining kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki er solig'ini to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni joriy etish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni kiritish hisobiga kengaytirilmoqda. 2021 yilning 1 yanvarigacha faqatgina tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanayotgan soliq to'lovchilar soliq imtiyozidan foydalanishi mumkin edi.

2021 yilning 1 yanvaridan boshlab boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish (yomg'irlatib, diskret va boshqa (shu jumladan tomchilatib) texnologiyalarini joriy etilgan erlar – suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan e'tiboran besh yil muddatga er solig'ini to'lashdan ozod etilmoqda. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organining xulosasi asosida beriladi.

Agarda, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi.

Qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali ta'sir ko'rsatish choralari nazarda tutilishi mumkin bo'lgan va soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan ob'ektlar jumlasiga samarali foydalanilmayotgan, baliq ko'paytirish (etishtirish) uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzalarini kiritish bilan er uchastkalarini ro'yxati kengaytirilmoqda. Bu er uchastkalariga er solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilmaydi.

2. Mol mulk solig'i bo'yicha, Soliq kodeksining 415-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan ob'ektlarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkasini 0,2 dan 0,4 foizga oshirildi.

Jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari 1,15 baravariga indeksatsiya qilindi. Bunda, 2021 yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq summasi, 2020 yilda hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko'p oshirilmasligi belgilandi.

Turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort ob'ektlari egallagan erlar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki ushbu soliqlarni to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Ko'p kvartirali uylariga bevosita uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarining mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ektiga kiritildi. Bunday ob'ekt soliq bazasiga nisbatan 0,23 foiz miqdoridagi soliq stavkasida soliqqa tortilishi belgilandi

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha, Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda.

Bunda, soliq stavkalari kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun 2020 yil darajasida saqlab qolindi. qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub.m. uchun 40 so'm miqdorida belgilandi.

Belgilangan limitlar doirasida er usti va er osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	1 kub metr uchun soliq stavkasi, so'mda:	
		er usti suv resurslari manbalari	er osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2–6-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2.	Sanoat korxonalarini	472	564
3.	Elektr stantsiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	70	90
4.	qishloq xo'jalik erlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari	40	40
5.	avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1 990	1 990
6.	pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	25 185	25 185

Qishloq xo'jaligi erlarini sug'orish va baliq etishtirish (o'stirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklarida suv o'lchash uskunalari mavjud bo'lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsientni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Soliq kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga muvofiq, kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari soliq solish ob'ekti hisoblanmasligi belgilandi.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklarida suvdan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o'zgartirilmoqda. Xususan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili:

joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun;

dehqon xo'jaliklari bo'yicha soliqni hisoblash uchun - soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to'g'risida ma'lumot taqdim etishi belgilandi.

Sun'iy suv havzalarida baliq etishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv ob'ektlaridan olingan va ushbu suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv xajmi mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv ob'ektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq solish ob'ekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari shart va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lash tartibi kiritilmoqda.

4. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Quyidagi foydali qazilmalar uchun 5 foiz miqdorida, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda yagona soliq stavkasi belgilanmoqda:

qurilish qumlari (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 8 500 so'm bo'lgan);

qum-shag'al aralashmasi (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 7 500 so'm bo'lgan);

qumtoshlar (5 foiz), qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan);

qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari) (2020 yilda 5 foiz, biroq 1 kub. m uchun 10 000 so'm bo'lgan).

Soliq solinadigan ob'ektning nomi	Soliq stavkalari, foizlarda	
	2020 yilda	2021 yilda
Qurilish qumlari	5%, biroq 8 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qum-shag'al aralashmasi	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qumtoshlar	5 foiz	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan
Qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanets jinslari)	5%, biroq 10 000 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan	5%, biroq 7 500 so'm/kub metrdan kam bo'lmagan

*Masalan: Toshkent viloyati Chinoz tumanida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonasi tomonidan 2020 yilda 40 154 kub.metr **“Qurilish qumlari”** qazib olgan va 8 500 so'm soliq stavkasida 341,3 mln.so'm soliq to'lagan bo'lsa, 2021 yilda ham shu miqdorda **“Qurilish qumlari”** qazib olganda, soliq stavkalarini unifikatsiya qilinishi natijasida (soliq stavkasi 7 500 so'm) 301,2 mln.so'm soliq to'laydi yoki 40,1 mln.so'm kam soliq to'laydi.*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin, kumush, palladiy va mis bo'yicha soliq stavkasi 15 foiz miqdorda belgilandi.

Boshqa foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkalari 2020 yil darajasida saqlab qolindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi «2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-6155-

son farmoni bilan tasdiqlangan DAVLAT DASTURI'ning 3.3. bo'limi "**Soliq islohotlarini amaliyotga samarali joriy etish, soliq ma'muriyatchiligini shaffof yo'lga qo'yish, soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish**" deb nomlanib unda resurs solqlari ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar belgilandi

Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash ma'murchiligini takomillashtirish;

Mazkur yo'nalishda, mahsulotlarni noqonuniy olib kirish, ishlab chiqarish va sotish holatlarining oldini olish;

alohida turdagi mahsulotlarning qonuniy aylanmasini ta'minlash mexanizmini tubdan takomillashtirish;

ishlab chiqarish hajmini, omborlardagi qoldiqlarni va mahsulot real vaqt rejimida jo'natilishini nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish;

tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha yagona tasniflash tizimini joriy etish.

V. KEYSLAR BANKI

BIRINCHI NAMUNA.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“Soliqlar siyosatining asosiy yo’nalishlari” o’quv kursining
“Oilaviy tadbirkorlikni rivojalandirishda soliq imtiyozlari va engilliklarni
tadbiq etilishi” mavzusi bo’yicha tayyorlangan**

KEYS- STADI

**Keys: “Mening oilam” oilaviy korxonada faoliyatini rivojalandirishda
soliq imtiyozlari va engilliklarni tadbiq etilishi o’rganish .**

Toshkent – 2022

I.KEYS

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq imtiyozlari va engilliklarni tadbiiq etilishi

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O'quv predmeti: «Soliqlar va soliqqa tortish».

Mavzu: «Oilaviy tadbirkorlikni soliqqa tortish».

Ushbu keysning maqsadi: O'zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikka qulay shart-sharoitlar yaratishda soliq imtiyozlari va engilliklarni qo'llash orqali aholining tadbirkorlikka undash masalalari.

Rejalashtiriladigan o'quv natijalari:

- oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga oid soliq me'yoriy hujjatlarni ro'yxatini shakllantiradi va oilaviy tadbirkorlikni tashkil etilish bosqichlarini o'zlashtirish;
- oilaviy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda soliq to'lovlaridan tashqari qo'shimcha berilgan engilliklar oid ma'lumotlarni tahlil qilish va soliq bazasini hisoblash mexanizmini hisob-kitobini amalga oshirishda malakalarini orttirish;
- mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

Talabalar ushbu keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun oilaviy tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan soliq imtiyoz turlari, ularning qo'llanilishi xususiyatlari va qo'shimcha qulayliklarga oid ma'lumotlarni tahlil qilish va soliq bazasini hisoblash mexanizmini hisob-kitobini amalga oshirishda nisbatan mavjud yondashuvlar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Ushbu keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettiradi. Keys ob'ekti –

Oilaviy korxonada shaklidagi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jimoniy shaxs.

Axborot manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-son Qonuni, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdaqi PQ-3454-sonli qarori;
- Davlat xizmatlari shaklidagi «Yagona darsha» markazlari ma'lumotlari;
- Oilaviy korxonada va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning 2016-2017 yillardaqi ish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqidagi yillik hisobotlari.

Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi:

Keys hayotiy, syujetsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va statistik materiallar asosida tuziladi. Keys qisqa, tuzilmalangan. Bu keys-topshiriqdir.

Keys didaktik maqsadlariga ko'ra vaziyat sub'ektini rivojlantirishning yangi strategiyalari va yo'llarini ishlab chiqishga rag'batlantiradigan keyslar toifasiga kiradi.

Keys elektron versiyada taqdim etilgan.

Keysdan quyidagi o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin: «Soliqlar va soliqqa tortish», «Soliq ma'murchiligini takomillashtirish», «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» va «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish».

3.2.TALABAGA USLUBIY KO'RSATMALAR

Keys uslubiy pasportining mazkur komponenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- keysdagi muammo va kichik muammolar ifodasi (agar keys muammoni izlash va hal etishga o'rgatadigan keyslar toifasiga kirmaydigan bo'lsa);
- muammo echimi algoritmi (ushbu elementning bo'lishini o'qituvchi – keysolog belgilaydi);
- o'quv-uslubiy materiallar: hisob-kitoblar qoidalari va formulalari, uslublar va rusumlar bayoni va boshqalar (keysologning fikriga qarab).
- muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag'i yoki muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishga doir yo'riqnoma;
- keys bilan individual va guruh bo'lib ishlashni baholash mezonlari va ko'rsatichlari;

KEYS STADI

Imtiyozlar – oilaviy tadbirkorlik uchun madad

Mazkur materialda barcha toifadagi korxonalar, shuningdek ayirim faoliyat sohalari korxonalari uchun belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar keltirilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilanoq, bozor iqtisodiyotining asosiy negizlaridan bo'lgan xususiy mulk huquqini mustahkamlash, uning daxlsizligi va ishonchli huquqiy himoyasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mazkur sohani tartibga solishda, rivojlantirishda va albatta mulkdorlar va tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, mulkdorlar sinfining shakllanishiga, xususiy mulk himoyasi va daxlsizligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yuritishga huquqiy kafolatlar mustahkamlanmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida belgilanganidek, oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanib, o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi hamda yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilingani tufayli, hech shubhasiz, yurtimizda oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga qulay imkoniyatlar yaratib berilganini alohida ta'kidlash joiz.

Xususan:

- Prezidentimizning 2017 yil 31 yanvarda PQ-2746-son “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko’ra, Toshkent shahrida kichik va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun mikrokreditlashning yangi sxemasini joriy etildi va o’rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan jismoniy shaxslar, mehnat organlarida ro’yxatga olingan band bo’lmagan fuqarolar, oilaviy va xususiy tadbirkorlik bilan shug’ullanayotgan aholi, shuningdek, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari tavsiyanomalari bo’yicha ishga joylashishga ehtiyojmand bo’lgan boshqa shaxslar mikrokreditlash uchun qamrab olinadigan shaxslar orasida ustuvor kontingentlar sifatida e’tirof etildi.

- Prezidentimizning 2017 yil 17 martdagi PQ-2844-son “Tadbirkorlik sub’ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga asosan tadbirkorlik sub’ektlari va barcha aholi qatlamining imtiyozli mikrokreditlardan keng foydalanishini ta’minlash, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rag’batlantirish orqali aholi bandligini yanada oshirish maqsadidayangi ro’yxatdan o’tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar ajratish, yangi davlat ro’yxatidan o’tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 60 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta’minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining kafilligi asosida ajratishni kengaytirish belgilandi.

- O’zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to’g’risida»gi O’RQ-327-sonli Qonunda belgilangan oilaviy korxonalariga soliq solishning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator qonun va qonun osti hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Xususan, Soliq kodeksining 176 va 179-moddalariga kiritilgan o’zgartirishga asosan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar to’langanidan keyin oilaviy korxonalar ishtirokchisi ixtiyorida qoladigan foyda summasi jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga kiritiladi va jismoniy shaxslarning daromadi sifatida soliqqa tortilmaydi. Shuningdek, 351-moddasiga kiritilgan o’zgartirish bilan oilaviy korxonalar soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqsiz, yagona soliq to’lovini to’lovchilari hisoblanishi belgilab qo’yildi.

- O’zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi «Oilaviy tadbirkorlik to’g’risida»gi O’RQ-327-son qonunining 28-moddasida oilaviy korxonalar turar joydan bir vaqtning o’zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) uchun foydalangan taqdirda, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta’minoti, kanalizatsiya, gaz ta’minoti va issiqlik ta’minoti) haqini to’lash aholi uchun belgilangan tariflar bo’yicha va shartlar asosida amalga oshirilishi ko’rsatilgan.

Oilaviy korxonani tashkil etish va unga soliq solish tartibi

YuRIDIK ShAXS TASHKIL ETMAGAN HOLDA

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladigan oilaviy tadbirkorlik faoliyati **Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomda** (ro'yxat raqami 216, 2009 yil 29 iyul, keyingi o'rinlarda – Nizom) belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy tadbirkorlik – er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk huquqi bilan tegishli bo'lgan ularning umumiy mulki negizida amalga oshiriladigan hamda er-xotinning va ularga yordam beruvchi oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan, yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Oila a'zolari – er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalardir.

Oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda **yakka tartibdagi tadbirkorni** davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi, unda yakka tartibdagi faoliyatning oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirilishi, shuningdek birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi oila a'zolari ko'rsatiladi (Nizomning 4-bandi).

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishda oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan er-xotindan biri ulardan bittasining notarial tasdiqlangan roziligiga ko'ra ish ko'radi.

Nizomning 8-bandiga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan doimiy xodimlar yollashga yo'l qo'yilmaydi. Istisno hollarda oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirishda vaqtincha bir martalik ishlarni amalga oshirish uchun oila a'zolari hisoblanmaydigan fuqarolarning jalb etilishiga yo'l qo'yiladi.

YuRIDIK ShAXS TASHKIL ETGAN HOLDA

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli **oilaviy korxonadir**. Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonaning ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonaning ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Oilaviy korxonaning faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi.

Oilaviy korxonaning faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin (Qonunning 4-moddasi). Oilaviy korxonaning o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari korxonaning mol-mulki etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Oilaviy korxonaga qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxonaga ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonaga ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.

Oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarning erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxonaga ishtirokchilari bo'lishi mumkin. E'tibor bering, bunda **faqat muomalaga layoqatli shaxslar** oilaviy korxonaga ishtirokchilari bo'lishi mumkin (Qonunning 5-moddasi).

Davlat organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan boshqa shaxslar oilaviy korxonaga ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas.

Bir oilaviy korxonaga ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxonaga ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda oilaviy korxonaga nomidan uning boshlig'i ish ko'radi.

Oilaviy korxonaga ishtirokchilaridan biri uning boshlig'i bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi (Qonunning 6-moddasi).

Qonunning 16-moddasiga muvofiq, oilaviy korxonaga ishtirokchilariga mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda tegishli bo'lgan turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, shu jumladan, ishlab chiqarish, xo'jalik binolari va boshqa imoratlar oilaviy korxonaga faoliyati amalga oshiriladigan joydir.

Oilaviy korxonaga ishtirokchilariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni ulardan oilaviy korxonaga faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylarga aylantirish talab qilinmaydi, bundan faoliyatning ayrim turlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

OILAVIY KORXONAGA SOLIQ SOLISH

Oilaviy korxonaga Qonunning 26-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 351-moddasiga asosan belgilanadigan tartibda yagona soliq to'lovi to'lovchisidir.

Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Oilaviy korxonaga mehnat haqi fondidan ijtimoiy fondlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar to'laydi. Oilaviy korxonaga o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod etiladi. Bunday buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi PF-3588-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan.

Oilaviy korxonaga kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi.

MOL-MULK SOLIG'I

Soliq kodeksining 276-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonalar turar joyidan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, unga **mol-mulk solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi**.

ER SOLIG'I

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonalar er uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, **er solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi** (Soliq kodeksining 291-moddasi ikkinchi qismi).

Keys stadiga oid savollar:

1. **Akarning oilasi bilan birgalikda oilaviy korxonamizni ochmoqchimiz. Oilaviy korxonalar ochish tartibi qanaqa ?**
2. **Oilaviy tadbirkorlikda kreditga oid qanday imtiyozlar ko'zda tutilgan?**
3. **Bundan tashqari yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda ochilgan korxonalarining bir-biridan farqi nimada?**
4. **Agar faoliyatimizni yo'lga qo'ysak, mol-mulk va er soliqlarini qaysi stavkalar bo'yicha to'lashimiz kerak bo'ladi?**
5. **Oilaviy tadbirkorlikda boshqa tadbirkorlik faoliyatiga qaraganda qanday qulay shart-sharoitlar belgilangan?**

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektidan farqli o'laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

Mustaqil ish - har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o'zida mujassam etadigan g'oyalarni qisqacha yozma ko'rinishidagi taqdimotidir.

Mustaqil ishning turlari va tizimi:

1. Ifodalanish to'liqligicha ko'ra:

- a) informativ (referatlar – konspektlar);
- b) indikativ (referatlar –rezyume (qisqacha mazmun)

2. Mustaqil ish tarkibi:

A) bibliografik qayd etilishi:

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

B) Mustaqil ish matni:

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo'lannish sohasi.

O'quv fani bo'yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy ko'nikmasini hosil qilish;

- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarini o'zlashtirish;

- Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;

- Yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

“Real sektor statistikasi” modulidan mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma'lumotlarini to'plagan holda bajarish.

Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni “Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti” modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” deb nomlangan kitobidan keltirilgan soliq va soliqqa tortish tizimiga oid masalalarni o'rganish.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bo'yicha o'zgartirishlarni o'rganish.

3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda qabul qilingan “Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-508-son qonuni

5. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RQ-589-son qonuni

6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2014 y., 36-son

7. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. (Yangi tahriri) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son)

8. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 1-son

9. Soliq siyosati va uni makroiqtisodiy siyosat bilan o'zaro uyg'unligi

10. Soliq siyosatining strategik yo'nalishlari. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida soliq siyosatining xususiyatlari.

11. Inqirozning navbatdagi to'liqini sharoitida AQShda soliq siyosatining xususiyatlari.

12. Yaponiyada soliq siyosati va uning o'ziga os xususiyatdari

13. Xitoy davlati soliq siyosati

14. MDH mamlakatlarida soliq siyosati.

15. Rossiya federatsiyasi soliq siyosati v uning strategik yo'nalishlari

16. O'zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan soliq siyosati

17. Soliqlar haqidagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari

VII. GLOSSARIY

TERMIN	Rus tilida	Ingliz tilida	o'zbek tilidagi sharhi
Asosiy vositalar	Osnovnie srelstva	fixed assets	deb, korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar.
Asosiy vositalar bilan ta'minlanish	Obespechenost osnovnimi sredstvami	Provision of fixed assets	korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi.
Aktiv (faol) asosiy fondlar	Aktivnie osnovnie sredstva	Active fixed assets	kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari.
Asosiy fondlarni yangilash koeffitsienti	Koeffitsient obnovleniya osnovnix fondov	The coefficient of fixed assets renewal	yangi kelgan asosiy fondlar so'mmasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.
Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari	Denejnie potoki ot osnovnoy deyatelnosti	Cash flows from operating activities	xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi.
Aylanma mablag'lar	Oborotnie sredstva	current assets	aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi

			aktivlarda turgan pul mablag'lari.
Boshqaruv tamoyillari	Printsipi upravleniya	principles of management	iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.
Boshqaruv tizimi	Sistemi upravleniya	Control systems	boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi.
Balansni likvidligi	Likvidnost balansa	balance Liquidity	balansdagi likvid bo'lgan mablag'larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi.
Brak mahsulot	Braknaya produktsiya	bar producs	tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot.
“Balans”	Balans	Balance	lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topib, tom ma'noda ikki palla degan ma'noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat	Zatrati na odin sum tovaronoy produktsii	The cost of one sum of commodity products	ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.
Debitor qarzlari	Debitorskaya zadoljennost	Receivables	aynan tahlil qilinayotgan korxonalar aylanma mablag'larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.
Debitorlik qarzlarning aylanish kuni	Oborachivaemost debitorskoy zadoljennosti v dnyax	Accounts receivable turnover in days	debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.
Induktsiya	Induktsiya	Induction	tadqiqotni yoki biror ob'ektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o'tilishi tushuniladi.
Ichki xo'jalik rezervlar (imkoniyatlari)	Vnutrixozyaystvennie rezervi	Intra reserves	xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy

			ta'sirini tugatish tushuniladi.
Iqtisodiy-matematik usullar	Ekonomiko-matematicheskie metodi	Economic-mathematical methods	integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o'yin kabilar.
Investitsiya faoliyati	Investitsionnaya deyatelnost	Investment activities	nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi.
Ijtimoiy unumdorligi mehnat	Sotsialnaya proizvoditelnost truda	Social productivity	moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi
Individual unumdorligi mehnat	Individualnaya proizvoditelnost truda	Individual productivity	individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, tsexdagi, korxonada, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti.

Kreditor qarzlari	Kreditorskaya zadoljennost	Accouns payable	o'zga korxonalarining aylanma mablag'larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxonada aylanmasida qatnashishi tushuniladi.
Kreditorlik qarzlarning aylanish kuni	Oborachivaemost kreditorskoy zadoljennosti v dnyax	Accouns payable turnover in days	kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar kuniga ko'paytirish va sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.
Leveraj	Liveraj	Leverazh	xususiy kapitalning o'sgan qismi bo'lib, ko'rsatib xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi.
Metod(usul)	Metod (sposob)	The method (method)	yunon tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish va bilish usulidir. Muayyan

			fanning predmetini o'rganish usuli.
Metodologiya(uslubiyat)	Metodologiya	Methodology	muayyan fanning predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.
Materiallar samarasi	Materialotdacha	Materialootdacha	moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi.
Material sig'imi	Materialoemkost	consumption of materials	bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to'g'ri kelishini ko'rsatadi.
Moliyaviy natija	Finansoviy rezultat	Financial results	korxonada faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanaigan yakunidir.
Muddatli likvidlik koeffitsienti	Koeffitsient srochnoy likvidnosti	Quick ratio	u pul mablag'lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo'lish orqali aniqlanadi.
Mutlaq likvidlik koeffitsienti	Koeffitsient absolyutnoy likvidnosti	Absolute liquidity ratio	u pul mablag'larining joriy majburiyatlariga

			nisbati sifatida aniqlanadi.
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	Koeffitsient finansovoy nezavisimosti	The financial independence	u korxonaning o'z mablag'larining xo'jalik mablag'lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.
Mehnat omillari	Faktori truda	labor Factors	korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
Mehnat omillari vositalari	Faktori sredstv truda	Factors labor funds	korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
Mehnat omillari predmetlari	Faktori predmetov truda	Factors objects of labor	korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish	Ritmichnaya proizvodstva produktsii	Rhythmic production	mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning

			oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq etkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlanishi.
Mahsulot sifati	Kachestva produktsii	quality producs	uning barcha mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi.
Mehnat unumdorligi	Proizvoditelnost truda	productivity	moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi
Moddiy resurslar	Materialnie resursi	Material resources	ishlab chiqarishning muayyan tsiklida foydalanishda bo'lgan va shu tsiklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlar.
Maxsulot tannarxi	Sebestoimost produktsii	product cost	maxsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxonada moliyaviy faoliyati bo'qyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi.

Moliyaviy faoliyat	Finansovaya deyatelnost	Financial activities	bo'limida aktsiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks etadi.
Moddiy tekshiruvlar	Materialnaya proverka	Material inspection	moddiy boyliklar, pul mablag'lari xaqiqiy qoldig'ini buxgalteriya xisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.
Omilli tahlil	Faktorniy analiz	Factor analysis	natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o'zida ifoda ettirgan tahlildir.
Omillar	Faktori	factors	u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.
Operatsion foyda(asosiy faoliyati foydasi)	Operatsionnaya pribil (pribil ot osnovnoy deyatelnosti)	Operating profit (operating profit)	yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi

			natijasida hosil bo'lgan foyda.
Pul oqimlari	Denejnie potoki	monetary flows	pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi.
Pul ekvivalentlari	Denejnie ekvivalenti	Cash equivalents	erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investitsiyalar.
Pul mablag'lari	Denejnie sredstva	Cash	kassadagi nakd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob. valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar.
Passiv (nafaol) asosiy vositalar	Passivnie osnovnie sredstva	Passive fixed assets	binolar, inshootlar va transport vositalari.
Retrospektiv(joriy) tahlil	Retrospektivniy (tekushchiy) analiz	Retrospective (current) analysis	hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil.

Rentabellik	Rentabelnost	Profitability	jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkich.
Raqobat	Konkurentsiya	Competition	lotincha so'zdan olingan bulib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi.
Sotilgan mahsulot	Realizovannaya produktsiya	products sold	tovarlar iste'molchilarga jo'natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob - kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.
Sof mahsulot	Chistaya produktsiya	Net output	tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy faollarning amortizatsiyasi summasi o'rtasidagi farq.
Soliq to'lagunga qadar foyda	Pribil do uplati nalogov	Profit before tax	umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish

			orqali hosil bo'lgan foyda.
Sof foyda	Chistaya pribil	Net profit	solliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar va yig'implarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.
Taqqoslanadigan mahsulot	Sravnivaemaya produktsiya	comparable products	shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari.
Taqqoslanmaydigan mahsulot	Nesravnivaemaya produktsiya	comparable products	joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.
Tovar mahsuloti	Tovarnaya produktsiya	commercial products	barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.
Taqsimlanmagan foyda	Neraspredelennaya pribil	retained earnings	korxonaning hisobida turgan sof foydasi.
Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)	Pribil obshchexozyaystvennoy deyatelnosti	Profit from general economic activity	operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali

			hosil bo'lgan foyda.
Ustav kapitali	Ustavniy kapital	Authorized capital	o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-508-son Qonuni
9. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RQ-589-son qonuni
10. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2014 y., 36-son
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. (Yangi tahriri) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son)
12. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 1-son
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabr O'zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4555-son qarori

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 mart "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 aprel "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni qabul qilindi

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 may "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5996-sonli Farmoni

26. 2020 yil –«Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Kuch-adolatda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining huquqiy gazetasi. 2020 yil 25 yanvar. № 3-4 (777)

III. Maxsus adabiyotlar

27. Abdraxmanova G.I., Vishnevskiy K.O., Goxberg L.M. i dr.; Tsifrovaya ekonomika: 2019: kratkiy statisticheskiy sbornik / Nats. issled. un-t «Visshaya shkola ekonomiki». – M.: NIU VShE, 2019. – 96 s

28. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAK Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

29. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2019. - 336 b
30. Gadoev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aktsiz solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.
31. Gadoev E. va boshqalar. Foyda solig'i. O'quv qo'llanma. - T.: Norma, 2011.- 408 b.
32. Gadoev E. i dr. Uproshchyonnaya sistema nalogooblojeniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
33. Gadoev E.F. Nalog na doxodi fizicheskix lits. Uchebnoe posobie -T.: Norma, 2011. - 312 str.
34. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
35. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.
36. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
37. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
38. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
39. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
40. Obrazovanie v tsifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
41. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish kontseptsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
42. S.Xudoyqulov, Sh.Babaev. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. T.: Iqtisodiyot. 2019.-305 b.
43. Sanakulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O'quv qo'llanma. -T.: Noshir, 2012. - 236 b.
44. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
45. O'zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarida. Rasmiy nashr. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2011. – 150 b.
46. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
47. Alimardanov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik.-T.: «Cho'lpon nomidagi NMIU», 2014. -218 bet.

48. Djurayeva K. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: El_press, 2013. -141 b.
49. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
50. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
51. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
52. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
53. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
54. Vahobov.A.V, Jo`rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.

IV. Internet saytlar

55. www.lex.uz- O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
56. www.edu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
57. www.aci.uz- O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi.
58. www.ictcouncil.gov.uz- Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash.
59. www.bimm.uz- O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz.
60. www.ziyonet.uz- ta’lim portali.
61. www.infocom.uz- Infocom.uz elektron jurnali.
62. www.mfer.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
63. www.uza.uz – O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
64. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali.
65. www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti.
66. www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti.
67. www.tsue.uz – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining sayti.